

A. QUCHQAROV, SH. SARIQOVA,
P. USMONOVA, U. RAHMONOV

МАЖБУРИЙ
НУСХАЛАР

МАТЕМАТИКА 4

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi
umumiyl o'rta ta'lim maktablarining
4-sinfi uchun darslik sifatida tasdiqlagan



TOSHKENT
"YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE"
2007

22.1 q71
Q97

Matematika: Umumiy o'rta ta'lif maktabalarining 4-sinfi uchun darslik/ A.Quchqarov, Sh. Sariqova, P. Usmonova, U. Rahmonov; Mas'ul muharrir M. Mirzaahmedov. — T.: "Yangiyul poligraph service", 2007 – 208 b.

I. Quchqarov A.

BBK 22.1 ya 71.

E. Sariqov umumiy tahriri ostida

Ilmiy uslubiy maslahatchi — B. Haydarov, fizika-matematika fanlari nomzodi.

Mas'ul muharrir — M. Mirzaahmedov, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar — N. Ahmedova, RTM boshlang'ich ta'lif bo'limi boshlig'i;

L. O'rinoyleva, Nizomiy nomli TDPU katta o'qituvchisi;


M. Nabiyeva, Toshkent viloyati Angren shahar 41-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

10 33638
391


"Respublika maqsadli kitob jamg'armasi hisobidan ijara uchun chop etildi"

ISBN 978-9943-309-09-8

© "Yangiyul poligraph service", 2007
© A. Quchqarov, Sh. Sariqova, 2007



3-SINFDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH




d) $M \cdot A = T - E = M : A = T : I = K - A$



1.

3-sinfda o'tilganlarni takrorlash



Maktabning birinchi sinfi o'quvchilari uchun yuqoridagi rasmida ko'rsatilgan miqdorda Prezident sovg'alari tayyorlab qo'yilgan edi. Maktabga 150 nafar birinchi sinf o'quvchisi keldi. Bu ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi savollarga javob bering:

1. a) Birinchi sinf o'quvchilaridan nechta sumka ortib qoladi?
 b) Har bir o'quvchiga 5 tadan daftar berilsa, jami daftarlар barcha o'quvchilarga yetarli bo'ladimi? 6 tadan-chi?
 d) Agar har bir o'quvchiga fanlar bo'yicha 6 tadan kitob kerak bo'lsa, keltirilgan kitoblar barcha o'quvchilarga yetadimi?
 e) Har bir o'quvchiga 2 tadan ruchka va 2 tadan qalam berilsa, nechta ruchka va nechta qalam ortib qoladi?

2. a) Yelim bilan plastilinlar soni birlgilikda nechta?
 b) Daftar va ruchkalar sonini taqqoslang.
 d) Oddiy qalamlar o'chirg'ichlardan qancha ko'p?
 e) Bir xil sondagi o'quv qurollari nomini ayting?

3. $131 \star 113$

 $607 \star 706$

$499 + 1 \star 500 - 1$

$300 + 1 \star 300 - 1$

4. 4- betdag'i rasmida tasvirlangan o'quv qurollari 4 ta qutida keltirildi.

1-qutida: sumka, ruchka, rangli qalamlar;

2-qutida: darslik, o'chirg'ich, rasm daftari;

3-qutida: rangli qog'ozlar, yelim, qalamdon;

4-qutida: plastilin, daftari, oddiy qalamlar bor.

Har bir qutidagi jami o'quv qurollari sonini hisoblang.

a) har bir sonda nechta yuzlik, nechta o'nlik va nechta birlik borligini aniqlang;

b) bu sonlarni taqqoslang;

d) sanoqda bu sonlardan oldin va keyin keladigan sonlarni ayting.

5. Chumchuq ikkinchi daraxtga borib-kelish uchun necha metr masofani uchib o'tadi?



215 m



6. $7 \star 3 = 5 \star 5$

 $3 \star 6 = 8 \star 1$

$8 \star 3 = 6 \star 1$

$2 \star 6 = 16 \star 2$

7. 514 sonining xona birliklarini ayting va ularning qaysi sinfiga tegishli ekanligini aniqlang.

8. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:
63, 72, 328, 407, 986, 570.



9. $800 + 48$

 $222 + 78$

$153 + 170$

$721 - 300$

$235 + 65 + 60$

$480 + 20 - 10$



2.

3-sinfda o'tilganlarni takrorlash

1.

Ota
100 yosh

65 kg

O'g'il
63 yosh

80 kg

Nevara
36 yosh

60 kg 25 kg

Chevara
9 yosh

- a) O'g'il otadan necha yosh kichik?
- b) Chevaraning yoshi o'g'ilning yoshidan necha marta kichik?
- c) Nevaraning yoshi chevaraning yoshidan necha marta katta?
- d) Chevara tug'ilganiga necha oy bo'lgan?
- e) O'g'il otadan necha kilogramm og'ir?
- f) Chevara nevaradan necha kilogramm yengil?
- g) Nevara o'g'ildan necha kilogramm yengil?

2. Dilafruz maktabga 1 marta borib-kelish uchun qancha yo'l yuradi? 2 martada-chi?



650 m



$$1 \text{ sm} = 10 \text{ mm}$$

$$1 \text{ m} = 10 \text{ dm}$$

$$1 \text{ dm} = 10 \text{ sm}$$

$$1 \text{ m} = 100 \text{ sm}$$

3. Soat millari sutkaning qaysi paytini ko'rsatayapti?



4. $4 \text{ m } 3 \text{ dm} \star 34 \text{ dm}$

$2 \text{ soat } 25 \text{ min} \star 165 \text{ min}$

 $6 \text{ m } 80 \text{ sm} \star 806 \text{ sm}$

$3 \text{ min } 40 \text{ s} \star 200 \text{ s}$

5. Pallali tarozi va 200 g li tosh yordamida 3 marta o'l-chash orqali unni ikkita 800 g li va bitta 2 kg li qismlarga ajrating.



$3 \text{ kg } 600 \text{ g}$

6. Televizorda 72 qisqli multfilm haftaning har seshanba, chorshanba va payshanba kunlari ko'rsatiladi. Bu multfilm necha hafta davomida to'la ko'rsatiladi?

7. Anvar yozgi ta'tilda 5 hafta va 6 kun qishloqda dam oldi. Anvar necha kun qishloqda bo'lgan? Bu necha oy va necha kun bo'ladi?

 $x + 48 = 67$ $x - 17 = 48$ $x - 14 = 187$

 $x - 26 = 15$ $x + 35 = 98$ $x + 73 = 273$




3.

3-sinfda o'tilganlarni takrorlash

1. Quyidagi rasmda tasvirlangan mahsulotlar tort pishirish uchun ishlatildi:



70 so'm




160 so'm



150 so'm



200 so'm



180 so'm


- a) Bir dona tuxum narxi 70 so'm bo'lsa, 4 ta tuxum uchun necha so'm to'langan?
- b) Un va shakar uchun jami necha so'm to'langan?
- c) Sariyog' sutdan necha so'm arzon?
- d) Tort pishirish uchun jami necha so'm xarajat qilingan?

2. Kamondan otish bo'yicha musobaqalar nihoyasiga yetdi. Har bir ishtirokchiga 10 tadan imkoniyat berildi.


- a) Har bir ishtirokchi olgan rag'bat sonlarini qo'shib chiqing.
- b) Kim birinchi o'rinni egallagan?
- c) Kim ikkinchi o'rinni egallagan?
- d) Kim 540 rag'bat sonini to'plagan?




Ahmad



Sherzod



Oybek



3. Qulay usulda hisoblang:

$$70 + 24 + 30$$

$$680 + 27 + 20$$

$$85 + 37 + 15$$

$$860 + 46 + 40$$

$$79 + 93 + 21$$

$$770 + 94 + 30$$


4. $243 + 56 \star 65 + 243$

$$678 - 64 \star 678 - 164$$

 $467 + 33 \star 367 + 33$

$$100 + 217 \star 200 + 117$$

5. 10 ta kubcha yonma-yon qo'yilib, qator hosil qilindi. Bunday qatorlarning 10 tasi rasmida ko'rsatilgandek yonma-yon joylashtirildi. Jami nechta kubcha ishlatildi? Agar har bir kubcha ustiga yana bittadan kubcha qo'yilsa, jami kubchalar nechta bo'ladi?



6.

$$\begin{array}{r} + \star \star \star \\ 115 \\ \hline 395 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 363 \\ + \star \star \star \\ \hline 785 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - \star \star \star \\ 348 \\ \hline 593 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - \star \star \star \\ 246 \\ \hline 620 \end{array}$$

7.

$$\begin{array}{r} 21 \cdot 3 \\ 43 \cdot 2 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 62 \cdot 4 \\ 76 \cdot 5 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 363 : 3 \\ 462 : 7 \end{array}$$

8. Jadvalni to'ldiring:



Kamayuvchi	700	540		170	510
Ayirluvchi	460		360		440
Ayirma		270	280	40	

9. Omborda 800 kg kartoshka bor edi. Birinchi kuni ombordan 280 kg, ikkinchi kuni esa birinchi kundagidan 60 kg ortiq kartoshka olib ketildi. Omborda qancha kartoshka goldi?





4.

3-sinfda o'tilganlarni takrorlash

1. a) 4 kg bolgar qalampiri necha so'm bo'ladi?
- b) 3 kg pomidor necha so'm bo'ladi?
- c) 3 kg sholg'om necha so'm bo'ladi?
- d) 2 kg sabzi va 1 kg loviya necha so'm bo'ladi?
- e) 2 kg kartoshka necha so'm bo'ladi?
- f) 2 kg mosh necha so'm bo'ladi?
- g) Quyidagi mahsulot-

larning umumiy narxini toping:

- 1) 1 kg kartoshka, 1 kg pomidor, 2 kg sabzi.
 - 2) 1 kg mosh, 2 kg sabzi, 1 kg bolgar qalampiri.
 - 3) 2 kg karam, 1 kg no'xat, 1 kg sabzi.
2. a) Toshkentdan Andijongacha necha kilometr?
 - b) Samarqanddan Farg'onagacha necha kilometr?
 - c) Buxorodan Toshkentgacha necha kilometr?



$$3. \begin{array}{r} \times 32 \\ 7 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} \times 209 \\ 2 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} \times 304 \\ 3 \\ \hline \end{array}$$

4. Nok olmadan necha kilogramm kam?



36 kg



4 marta kam

5. $6 \cdot 2 + 4 \star 6 \cdot 6$

$35 : 5 + 10 : 5 \star 45 : 5$

 $7 \cdot 3 - 3 \cdot 2 \star 3 \cdot 4$

$32 : 8 + 16 : 8 \star 40 : 8$

6. Oddiy daftarning narxi qancha?




900 so'm

7. Suzish bo'yicha musobaqaga 12 o'quvchi, yugurish bo'yicha musobaqaga undan 6 ta ortiq o'quvchi qatnashdi. Kurash musobaqasiga esa yugurish musobaqasiga qaraganda 2 marta kam o'quvchi qatnashdi. Kurash musobaqasiga nechta o'quvchi qatnashgan? Musobaqalarda jami nechta o'quvchi ishtirok etgan?

8. $80 : x = 8$ $x : 8 = 8$ $8 \cdot x = 64$



Umar Hayyom o'z zamonasining mashhur matematik olimi, astronomi va faylasufi bo'lган. Uning qalamiga mansub asarlar orasida matematika faniga oid "Arifmetika muammolari" nomli asari alohida ahamiyatga ega.



Umar Hayyom
(1048 — 1131)



5.

3-sinfda o'tilganlarni takrorlash

1. Rasmlarga ko'ra masala tuzing va uni yeching.



Moskva shahridagi "Ostankino" telemenorasi, 537 m.




Toshkent telemenorasi, 375 m.



Parij shahridagi "Eyfel" minorasi, 320 m.

2. $200 + 8 + 10 = 599 - 90 - 9 = 375 - 5 - 70$
3. Albomning narxi x so'm, daftarning narxi esa y so'm.
Quyidagi ifodalar nimani bildiradi?
- | | | |
|---------|-------------|-------------------------|
| $x + y$ | $3 \cdot y$ | $6 \cdot x + 3 \cdot y$ |
| $x - y$ | $6 \cdot x$ | $6 \cdot x - 3 \cdot y$ |
4. $119 - x = 56$ $x - 512 = 302$ $512 - x = 302$
5. Gul do'koniga 346 ta atirgul va undan 180 ta kam chin-nigul keltirildi. Do'konga jami nechta gul keltirilgan?
6. $30 - 56 : 8 = 300 + 4 \cdot 9 = (150 + 25) - 152$
 $67 + 20 : 4 = 848 - 8 \cdot 6 = (925 - 901) \cdot 9$



7. Bitta kitob uchun 950 so'm, 2 ta albom uchun esa 360 so'm to'landi. Kitob albomdan necha so'm qimmat? Albom kitobdan necha so'm arzon?

8. $109 \cdot 6 = 959 : 7 = (603 - 427) \cdot 2$
 $114 \cdot 7 = 856 : 4 = (768 - 395) \cdot 2$



6.

3-sinfda o'tilganlarni takrorlash

1. Har bir ustundagi ifodalarda qanday amallar bajarilgan? Bu amallar qanday tartibda bajarilgan? Nima uchun?

$$38 - 10 + 6 = 28 + 6 = 34$$

$$24 : 3 \cdot 2 = 8 \cdot 2 = 16$$

$$38 - (10 + 6) = 38 - 16 = 22$$

$$24 : (3 \cdot 2) = 24 : 6 = 4$$

2. $100 \begin{array}{r} 136 \\ - 36 \\ \hline 64 \end{array} + 40 = 104 + 40 = 144$

$$48 : 6 \cdot 4 = 8$$


$$100 \begin{array}{r} 124 \\ - 24 \\ \hline 80 \end{array} + 141 = 80 + 141 = 221$$

$$30 + 70 - 9 \cdot 8 = 100 - 72 = 28$$

$$200 - 42 : 7 = 200 - 6 = 194$$

$$55 - 28 + 7 \cdot 9 = 55 - 28 + 63 = 80$$

3. Bolalar bog'chasiga 4 xalta pecheniy va 3 xalta konfet keltirildi. Bolalar bog'chasiga necha kilogramm pecheniy va necha kilogramm konfet keltirilgan?



4. Qavslarni shunday qo'ying-ki, natijada tenglik to'g'ri bo'lisin:

$$32 - 2 \cdot 6 + 3 = 14$$

$$32 - 2 \cdot 6 + 3 = 183$$

$$32 - 2 \cdot 6 + 3 = 17$$

$$32 - 2 \cdot 6 + 3 = 270$$

5. Salim bilan Nasibada jami 30 ta konfet bor edi. Salim 8 ta konfet yeganidan so'ng, unda 4 ta konfet qoldi. Salimning konfetlari Nasibanikidan qancha kam bo'lgan?


6. $47 + 39 : 3 - 8 \cdot 4$

$$300 - 60 : 3 - (60 + 3)$$

$$72 : 9 + 52 - 17 \cdot 2$$

$$(300 - 60) : 3 - (60 + 3)$$

7. Kesmaning uzunligi necha santimetr?



8. $35 + x = 35$

$$5 \cdot x = 235$$

$$76 - x = 76$$

$$780 : x = 2$$

I bo'limga doir qo'shimcha misol va masalalar

- 3-betdagি rasmда berilgan topshiriqlarni bajaring:
 - Nishondagi rag'bat sonlarini qo'shing.
 - Quyon kataklardagi sonlarni qo'shib chiqsa, natija necha bo'ladi?
 - Rebusni yeching. Bunda bir xil harflarga bir xil raqamlar, har xil harflarga har xil raqamlar mos keladi.
- Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing: 72, 97, 171, 303, 405, 480, 506, 666.
- Abrorda 200 so'm, Asrorda esa 500 so'm pul bor. Abror va Asror 150 so'mlik muzqaymoqdan bittadan olishdi. Bolalarning har birida qancha pul qoldi?
- $7 \text{ sm} = \square \text{ mm}$ $5 \text{ m} = \square \text{ sm}$ $4 \text{ yil} = \square \text{ oy}$
 $8 \text{ hafta} = \square \text{ kun}$ $3 \text{ asr} = \square \text{ yil}$ $6 \text{ soat} = \square \text{ min}$
- To'ti tulkiga quyidagi matematik jumboqni aytdi:



— Bir son o'yla, unga 18 ni qo'sh. Yig'indini 2 ga ko'paytir, ko'paytmaga 4 ni qo'sh. Natijani 2 ga bo'l, bo'linmadan o'ylagan sonningni ayir. Natija 20 ga teng bo'ldi. Shunday-mi?

— Ha.

To'ti aytgan matematik jumboqning siri nimada?



- $x \cdot 3 = 150$ $x : 4 = 110$ $289 - x = 171$
 $2 \cdot x = 180$ $x : 3 = 246$ $963 - x = 921$
 $x \cdot 4 = 320$ $x : 6 = 112$ $999 - x = 763$

RAQAMLASH



a) $ABD - EFG = MNK$



7.

Uch xonali sonlar

1. Namunaga ko'ra jadvaldagи kvadratchalarni sanang, ularning sonini yozing va o'qing:

Sanay-miz			
Yoza-miz	113		
O'qiy-miz	bir yuz o'n uch		

Birlar, o'nlar, yuzlar xona birliklari birligida birinchi sinf — **birlar sinfini tashkil qiladi.**

$$10 \text{ birlik} = 1 \text{ o'nlik}$$

$$10 \text{ o'nlik} = 1 \text{ yuzlik}$$

$$10 \text{ yuzlik} = 1 \text{ minglik}$$

$$1 \text{ yuzlik} = 100 \text{ birlik}$$

$$1 \text{ minglik} = 1\,000 \text{ birlik}$$

$$1 \text{ minglik} = 100 \text{ o'nlik}$$



2. Jadvaldagи sonlarni o'qing:

Yuzlar xonasi	O'nlar xonasi	Birlar xonasi
2	6	3
7	2	9

3. Har bir qatordagi sonlarni o'qing:

1	2	3	4	5	6	7	8
10	20	30	40	50	60	70	80
100	200	300	400	500	600	700	800

Sonlarning xona birliklarini ayting? Har bir ustundagi sonlar nimasi bilan o'xshash? Nimasi bilan farq qiladi?

4. Rasmdagi ma'lumotlardan foydalanib, savollarga javob bering:
- Baliqchilar birgalikda qancha baliq tutishgan?
 - Hosil bo'lgan sonda nechta birlik, nechta o'nlik va nechta yuzlik bor?



5. Sonlarni o'qing: 446, 304, 540, 800, 222, 999.
- Bu sonlarning har birida qanday xona birliklari bor?
 - Bu sonlarning har birida nechta birlik bor?
 - Bu sonlarning har birida nechta o'nlik bor?
 - Bu sonlarning har birida nechta yuzlik bor?
6. Ombordan do'konlarga jami necha kilogramm sabzavot jo'natilgan?



7. $356 < 35*$ $428 > 4*8$ $57* > 575$
 $784 < *84$ $764 > *64$ $*49 < 449$

-
8. 6 yuzlik = birlik 540 birlik = o'nlik
 18 o'nlik = birlik yuzlik = 80 o'nlik
9. Birinchi kesmaning uzunligi 80 sm, ikkinchi kesmaning uzunligi birinchisidan 16 sm qisqa. Ikkala kesma uzunliklarining yig'indisini toping.



8.

Uch xonali sonlar

1. 33, 52, 7, 300, 105, 333, 15, 853, 157 sonlar orasidan:
 a) ikki xonali bo'limgan sonlarni yozing;
 b) 3 raqami qatnashgan sonlarni yozing;
 d) o'nlar xonasida 5 raqami qatnashgan sonlarni yozing.

2. $777 = \square + 70 + 7$ $425 = 400 + \square + 5$
 $\square = 800 + 20 + 3$ $672 = \square + 70 + 2$

3. Qoldiqli bo'lishni bajaring:

91 : 3	313 : 5	548 : 9	844 : 7
22 : 4	418 : 4	716 : 7	999 : 8

4. 120 ta stul va 41 ta stol nechta to'plam bo'ladi? Nechta stol ortib qoladi?



1 ta to'plam



5. Tomoni 6 sm bo'lgan kvadrat va bo'yi 10 sm, eni 2 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Ularning perimetrlarini taqqoslang.

6. Rasmda jami necha so'm pul tasvirlangan? Hosil bo'lgan sonni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing.



7. Sonlarni raqamlar bilan ifodalang:



6 o'nlik va 2 birlik	36 o'nlik va 8 birlik
8 o'nlik va 1 birlik	7 yuzlik va 10 o'nlik



8. Farida 248 betlik kitobning 124 betini o'qidi. Kitobning necha beti hali o'qilgani yo'q?




9.

To'rt xonali sonlar



- Eng katta uch xonali son: 999.
- Bu songa 1 ni qo'shamiz: $999 + 1$.
- Natijada to'rt xonali son hosil bo'ladi. U 1 000 ko'rini-shida yoziladi va **ming** deb o'qiladi. Bu sondagi 1 raqami turgan IV xona **minglar xonasi** deyiladi.



Yuqorida yozilgan sonni bir ming uch yuz yigirma to'rt, deb o'qiyimiz.

1. Jadvalda yozilgan sonlarni o'qing:

Minglar xonasi	Yuzlar xonasi	O'nlar xonasi	Birlar xonasi
1	2	7	2
2	6	8	3
4	5	0	6

2. Rasmdagi hayvonlarning bayroqlaridagi sonlar daraxtga ilingan sonning qaysi xona qo'shiluvchilari?



3. So'roq belgilari qo'yilgan nuqtalarga mos sonlarni ayting:

118 ? 120

708 709 ?

? 6 001 6 002

4 998 4 999 ?

? 7 890 7 891

6 342 ? 6 344

4. Perimetri 20 sm bo'lgan uchta har xil to'g'ri to'rburchak chizing.



5. $2\ 376 =$ minglik yuzlik o'nlik birlik

$6\ 732 =$ minglik yuzlik o'nlik birlik

$5\ 840 =$ minglik yuzlik o'nlik birlik


$4\ 058 =$ minglik yuzlik o'nlik birlik

6. Ajratib ko'rsatilgan raqamlar nimani bildiradi?

2 356 5 263 7 510 8 315 6 824

2 579 5 972 7 056 3 518 9 561

7. Bir quti konfet bir quti pecheniyidan qancha og'ir?




8. 1 025, 1 817, 2 913, 4 003, 9 701, 7 801, 5 002 sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing.


9. Matnni davom ettirib masala tuzing va uni yeching.
Do'konga ikkita mashinada 3 t kartoshka keltirildi. Birinchi mashinada 1 t 500 kg kartoshka keltirildi.

**10.****To'rt xonali sonlar**

- a) Narxi 1 000 so'mdan qimmat bo'lgan asboblarni ko'rsatting.
 b) Har bir asbobning narxi 100 so'mga arzonlashtirilsa, ularning narxi qanchadan bo'ladi?
- Korxonada 297 ta ayol va 562 ta erkak ishchi ishlaydi. Korxonada jami nechta ishchi ishlaydi?
- Sonlarni o'qing: 9 000, 9 005, 9 045, 9 345. Sanoqda har bir sondan oldin va keyin keladigan sonni aytинг.
- $20 \cdot 6 : 4$ $924 - 425 + 6$ $560 : 7 \cdot 2 - 15$
 $30 \cdot 6 : 2$ $879 - 324 + 3$ $720 : 9 \cdot 8 - 19$
- Ikki omborda 1 000 sr kartoshka bor edi. Ikkala ombordan bir xil miqdorda kartoshka olib ketildi. Birinchi omborda 345 sr, ikkinchisida 389 sr kartoshka qoldi. Har bir ombordan qancha kartoshka olib ketilgan?
- Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:
 8 870 8 600 4 009 4 280



7. Sanoqdagi dastlabki beshta va oxirgi beshta: a) uch xonali; b) to'rt xonali sonlarni yozing.



$386 + 247$	$617 + 374$	$727 - 695$
$572 + 183$	$906 - 260$	$526 - 429$



11.

To'rt xonali sonlar

1. a) Daftaringizga quyidagi jadvalni chizing:

Minglar xonasasi	Yuzlar xonasasi	O'nlar xonasasi	Birlar xonasasi

- b) Ushbu sonlarni jadvalga joylashtiring va bu sonlarni o'qing: 7, 70, 700, 7000; 93, 865, 4107.
 d) Bu sonlardagi nollar nimani bildiradi?
 e) Bir nechta sonlarni yozing va jadvalga joylashtiring.

Agar sonning biror xonasida nol turgan bo'lsa, son o'qilganda shu xona nomi tushirib qoldiriladi, ya'ni o'qilmaydi.

2. Natijani toping:

$$18 \xrightarrow{-3} \boxed{\quad} \xrightarrow{-10} \boxed{\quad} \xrightarrow{:2} \boxed{\quad} \xrightarrow{-3} \boxed{\quad}$$

$$29 \xrightarrow{-5} \boxed{\quad} \xrightarrow{+55} \boxed{\quad} \xrightarrow{-4} \boxed{\quad} \xrightarrow{+190} \boxed{\quad}$$

$$25 \xrightarrow{-4} \boxed{\quad} \xrightarrow{+900} \boxed{\quad} \xrightarrow{-800} \boxed{\quad} \xrightarrow{-4} \boxed{\quad}$$

$$48 \xrightarrow{:8} \boxed{\quad} \xrightarrow{-18} \boxed{\quad} \xrightarrow{-2} \boxed{\quad} \xrightarrow{+700} \boxed{\quad}$$



996 ta



3 marta kam

3. Qo'ng'irot eli Alpomishni kutib olish uchun qal'aga yig'ildi. Uni 996 ta qal'a aholisi va undan 3 marta kam qishloq aholisi ko'rishga tuyassar bo'ldi. Alpomishni jami nechta odam ko'rgan?

4. a) Sonlarni o'sib borish tartibida ayting:
7 649, 769, 8 640, 27, 5 432, 98.
b) Sonlarni kamayib borish tartibida ayting:
346, 2 624, 81, 874, 9, 3 425.
5. Maktablardagi 15 000 o'quvchidan 14 800 tasi bayramga qatnashdi. Nechta o'quvchi bayramga qatnashmagan?


$$\begin{array}{r} 969 \\ - 889 \\ \hline 80 \end{array} \quad \begin{array}{r} 773 \\ - 649 \\ \hline 124 \end{array} \quad \begin{array}{r} + 654 \\ 268 \\ \hline 922 \end{array}$$

7.

$$\begin{array}{r} + 257 \\ 308 \\ \hline 565 \end{array} \quad \begin{array}{r} + 392 \\ 596 \\ \hline 988 \end{array} \quad \begin{array}{r} - 642 \\ 284 \\ \hline 358 \end{array}$$

8. Rasmdagi samolyot, vertolyot va havo sharlarining ko'tarilgan balandliklarini kilometrlarda ifodalang.

$$1\ 000\ m = 1\ km$$



Buyuk bobokalonimiz Al-Xorazmiy o'zining asarlarida sonlarning o'nlik sanoq sistemasida yozilishi, xona birliklariga ajratib o'qilishi va ular ustida to'rt amalning qo'llanilishini tushuntirib bergen. Al-Xorazmiyning asarlari orqali butun dunyo aholisi sonlarni yozish va ular ustida amallarni bajarishda qulay usuldan foydalana boshlagan.



Al-Xorazmiy
(783 — 850)



12.




Besh xonali sonlar

- a) Eng katta to'rt xonali son: 9 999.
 b) Bu songa 1 ni qo'shamiz: 9 999 + 1.
 d) Hosil bo'lgan son eng kichik besh xonali sondir. U **10 000** ko'rinishida yoziladi va o'n ming deb o'qiladi. Bu sondagi 1 raqami turgan V xona — o'n minglar xonasi deyiladi.

1. Jadvaldagи sonlarni o'qing:

O'n minglar xonasi	Minglar xonasi	Yuzlar xonasi	O'nlar xonasi	Birlar xonasi
1	0	0	0	0
2	0	3	4	2
4	6	4	2	7

2. Cho'tdagи sonlarni o'qing:



3. Sonlardagi ajratib ko'rsatilgan raqamlar nimani bildiradi?

27 000

36 740

82 576

71 643

53 264

46 945

65 740

41 617



Yelpig'ich yorda-mida turli xil burchaklar hosil qilish mumkin. Burchaklar kat-taligiga qarab turlichay nomlanadi:



o'tkir
burchak



to'g'ri
burchak



o'tmas
burchak



yoyiq
burchak



Sonlarni quyidagicha taqqoslash mumkin:

1. Sanoqda kelish tartibi bo'yicha. Masalan:

$64\ 587 < 64\ 894$, chunki sanoqda 64 587 soni 64 894 dan oldin keladi.

2. Xona birliklari bo'yicha. Masalan:

a) $8\ 412 < 9\ 697$, chunki birinchi sonning minglar xonasidagi 8, ikkinchi sonning minglar xonasidagi 9 dan kichik.

b) $5\ 784 > 5\ 759$, chunki bu ikki sonlarning minglar va yuzlar xonasidagi raqamlar teng, birinchi sonning o'nlar xonasidagi 8, ikkinchi sonning o'nlar xonasidagi 5 dan katta.

$$4. \begin{array}{r} 548 \\ - 788 \end{array} \quad \begin{array}{r} 599 \\ - 433 \end{array} \quad \begin{array}{r} 4\ 426 \\ - 8\ 649 \end{array} \quad \begin{array}{r} 3\ 658 \\ - 6\ 611 \end{array} \quad \begin{array}{r} 87\ 546 \\ - 93\ 847 \end{array} \quad \begin{array}{r} 91\ 274 \\ - 98\ 415 \end{array}$$



5. Quyidagi matnda berilgan sonni raqamlar bilan yozing: bitta qora chumoli daraxtdan ajralib chiqqan shirani iniga tashish uchun ini bilan daraxt orasida yigirma bir ming bir yuz yetmish besh marta qatnar ekan.

$$\begin{array}{r} 365 \\ - 228 \end{array} \quad \begin{array}{r} 382 \\ - 235 \end{array} \quad \begin{array}{r} 483 \\ - 366 \end{array}$$

7. Rasmdagi oq-qora televizorning narxi rangli televizor narxidan qancha kam?



25 000 so'm



94 000 so'm

8. Sanoqda quyidagi sonlardan oldin va keyin keladigan sonlarni yozing:



92, 671, 999, 1 000, 6 099, 9 999, 10 000, 29 999, 99 998.

9. Qandolatchilik firmasi 1 t shirinlik tayyorladi va birinchi do'konga 265 kg, ikkinchi do'konga birinchisidan 375 kg ortiq shirinlik jo'natdi. Firma omborida necha kilogramm shirinlik qoldi?





13.

Besh xonali sonlar

1. 70 001 ⭐ 70 010 85 000 ⭐ 80 500
 56 090 ⭐ 56 009 62 503 ⭐ 62 305
2. Toshkentdagи "Xalqlar do'stligи" saroyi 4 200 ta tomoshabinga mo'ljallangan. Yangi konsertni 3 000 ta kattalar va 600 ta bolalar tomosha qilishdi. Saroyda nechta o'rin bo'sh qolgan?
3. Sonlarni o'qing va ularni o'sib borish tartibida yozing: 80 555, 80 500, 80 505, 80 005, 85 050.
4. Jadvalni to'ldiring:

<i>b</i>	17 000	16 300	24 500	79 000
<i>b</i> - 1 000				

5. Metr va detsimetrlarda ifodalang:
 14 600 sm; 23 790 sm; 33 800 sm; 44 270 sm.

6. Malika o'zi va ikki ukasiga bittadan muz-qaymoq va bittadan "Koka-Kola" ichimligi sotib oldi. U necha so'm to'lashi zarur?



200 so'm

250 so'm

7.

Har bir qatordagi teng miqdorlarni topping:



60 040 g

60 040 m

60 km 40 m

60 kg 40 g

73 km 37 m

73 t 37 kg

73 037 kg

73 037 m



8. Xo'jalik omborida 990 kg un bor edi. 230 kg un xo'jalik a'zolariga tarqatildi. Omborda qancha un qoldi?



14. Mustahkamlash uchun mashqlar

1. 74 000, 74 072, 740, 7 400, 40 740, 4 700, 7 447 sonlar orasidan:
- to'rt xonali bo'limgan sonlarni ayting;
 - uch xonali bo'limgan sonlarni ayting;
 - birinchi sinf birliklari qatnashmagan sonlarni ayting.
2. Ikkala tarvuzning birligida massasi qancha? Birinchi tarvuz ikkinchi tarvuzdan qancha yengil?



$$3. \quad x + 591 = 730 \quad 805 - x = 697 \quad x - 363 = 568$$

4. Berilgan sonlar qatoridagi "begona" sonni aniqlang:

- 12 584, 74 963, 36 707, 9 701, 48 796;
- 3 756, 40 656, 1 972, 7 924, 6 070;
- 4 004, 5 005, 6 006, 7 008, 9 009.

5. Jadvalni to'ldiring:

c	536	421	702	623
d	216	309	160	346
$c + d$				

6. Umidada 23 000 so'm pul bor edi. U narxi 2 000 so'm bo'lgan konfetdan 2 kg, narxi 900 so'm bo'lgan pecheniyidan 3 kg xarid qildi. Umidada qancha pul qoldi?

7.	$496 + 37$	$196 : 4 + 847$	$620 + (800 - 92 \cdot 8)$
	$412 + 80$	$205 : 5 + 222$	$340 + (513 - 81 \cdot 6)$

8. Qurilishga 2 600 kg mix ishlatalgandan so'ng omborda 400 kg mix qoldi. Omborda necha tonna mix bo'lgan?





15.

Olti xonali sonlar



- a) Eng katta besh xonali son: 99 999.
 b) Bu songa 1 ni qo'shamiz: 99 999 + 1.
 d) Hosil bo'lgan son eng kichik olti xonali sondir. U 100 000 ko'rinishida yoziladi va **yuz ming** deb o'qiladi. Bu sondagi 1 raqami turgan VI xona — **yuz minglar xonasi** deyiladi.

Minglar, o'n minglar, yuz minglar xona birliklari birgalikda ikkinchi sinf — **minglar sinfini** tashkil qiladi.



Sonlarni o'qish qoidasi. Masalan: 215 436.

- 1) Oldin sonni o'ngdan chapga qarab sinflarga ajratiladi. Har bir sinfda uchtadan xona birligi bo'ladi: **215 436**
- 2) Ikkinci sinf birliklaridan keyin sinf nomini qo'shib o'qiladi: **215 ming**
- 3) So'ng birinchi sinf birliklarini o'qiladi: **436**
Natijada berilgan son **ikki yuz o'n besh ming to'rt yuz o'ttiz olti deb** o'qiladi.

1. Jadvaldagи sonlarni o'qing:

II sinf – minglar sinfi			I sinf – birlar sinfi		
VI xona birligi	V xona birligi	IV xona birligi	III xona birligi	II xona birligi	I xona birligi
Yuz minglar	O'n minglar	Bir minglar	Yuzlar	O'nlar	Birlar
1	0	0	0	0	0
3	1	5	4	3	6
	2	4	6	4	0
4	0	6	5	0	0

2. Sonlardagi ajratib ko'rsatilgan raqamlar nimani bildiradi?

327 200	372 200	732 000	732 700
453 264	453 624	453 246	463 246
479 232	947 232	794 232	794 242


3. Quyidagi sonlarni sinflarga ajratib o'qing:

485	2 076	47 150	150 480
671	8 000	59 806	432 804
743	3 475	72 948	265 000

4. Ushbu sonlarni raqamlar bilan yozing:

- a) 624 ming 725;
- b) 846 ming 118;
- d) minglar sinfida 872 birlik va birlar sinfida 34 birlik;
- e) minglar sinfida 928 birlik va birlar sinfida 742 birlik.

5. Samolyot manzilga yetishi uchun yana qancha masofani uchib o'tishi kerak?




6. $345 - 160 + 50$ $680 + 301 + 30$

$$212 + 713 + 12 \quad 414 + 563 - 69$$

7. Sonlarni o'qing. Qatorlardagi eng kichik va eng katta sonlarni yozing:

- a) 12 063, 81 727, 30 009, 85 226;
- b) 296 824, 104 291, 325 571, 630 748.

8. Rasmdagi muz tog'ining suv ostidagi qismining balandligini toping.





16.

Olti xonali sonlar

- Sonlarni sinflarga ajrating va o'qing:
a) 6 520, 8 729, 93 067, 200 721, 462 091, 862 935;
b) 9 680, 74 306, 351 084, 508 764, 687 148, 775 613.
- a) Sanoqda har bir sondan keyin keladigan sonni ayting:
99, 799, 4 367, 7 599, 20 300, 381 026.
b) Sanoqda har bir sondan oldin keladigan sonni ayting:
40, 650, 1 000, 9 680, 26 700, 800 080.

3. $\begin{array}{r} *0* \\ -2*6 \\ \hline 344 \end{array}$ $\begin{array}{r} *3* \\ -1*6 \\ \hline 417 \end{array}$ $\begin{array}{r} *5* \\ -3*7 \\ \hline 564 \end{array}$ $\begin{array}{r} *1* \\ -2*5 \\ \hline 639 \end{array}$

- Har bir avtobusga 32 tadan o'quvchi joylashishini mo'ljallab, sayohat uchun 9 ta avtobusga buyurtma berilgan edi. Lekin, bitta avtobus kam keldi. Endi har bir avtobusga nechtadan o'quvchi joylashishi lozim?
-  124 106 ⭐ 114 206 206 315 ⭐ 206 351
505 555 ⭐ 550 555 300 090 ⭐ 300 009
- Rasmga ko'ra masala tuzing va uni yeching:




250 so'm



350 so'm



- Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:
365 800, 547 801, 415 784, 684 004, 123 547, 900 499.



- Bosmaxona 220 000 ta "Matematika", undan 25 000 ta ortiq "Ona tili" kitoblarini chop etdi. Bosmaxona nechta kitob chop etgan?



17.

Olti xonali sonlar

1. Jadvalda uch kun davomida supermarketga keltirilgan tovarlarning so'mdagi qiymati berilgan.

Hafta kunlari	Bo'limalar			
	Kiyim-kechak	Poyabzal	Gazlama	Oziq-ovqat
Dushanba	65 000	51 000	26 000	82 000
Seshanba	47 000	70 000	40 000	32 000
Chorshanba	26 000	35 000	45 000	90 000

- a) Jadvaldagи sonlarni o'qing.
- b) Har bir bo'limga 3 kun davomida necha so'mlik tovar keltirilgan?
- c) Har bir bo'lim bo'yicha eng ko'p tovar keltirilgan kunlarni aniqlang.



2. Ajratib ko'rsatilgan raqamlar qaysi xona birligini bildiradi?
93 003, 173 441, 207 351, 347 912, 540 019.

3. Bo'yi 25 sm va eni 15 sm bo'lgan uchta to'g'ri to'rtbur-chak yasash uchun qancha sim kerak bo'ladi?



$$\begin{array}{lll} 4. \quad x - 343 = 269 & 2 \cdot x = 112 & x : 4 = 72 \\ 816 - x = 515 & x \cdot 3 = 306 & 85 : x = 5 \end{array}$$

5. Fermadagi o'rdak, g'oz va tovuqlar soni 5 000 ta. O'rdaklar 2 400 ta. Bu g'ozlar sonidan 1 500 ta ortiq. Fermada nechta tovuq bor?






6. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:
4 378, 59 793, 161 210, 193 003, 290 001.




7. Omborga birinchi kuni 125 000 kg, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 5 000 kg ortiq bug'doy keltirildi. Omborga shu ikki kunda necha kilogramm bug'doy keltirilgan?

**18.****Olti xonali sonlar**


1. a) Cho'tdagi sonlarni o'qing.
b) Sonlarni yuz mingga orttiring va natijani o'qing.



2. Berilgan sonlarni o'sish tartibida yozing:
6 973, 78 965, 780 711, 49 559, 869 769.
3. 1 kg konfet 2 400 so'm tursa, 3 kg konfet qancha turadi?
4. Muhammadning bobosi narxi 900 so'm bo'lgan shakardan 4 kg va narxi 1 900 so'm bo'lgan vaflidan 3 kg sotib oldi va sotuvchiga 10 000 so'm berdi. U qancha qaytim oladi?
5. Chizmani daftaringizga chizing. Chizmada jami nechta uchburchak tasvirlangan?
6. $7 \cdot \square + 209 = 762$ $6 \cdot \square + 396 = 780$
 $9 \cdot \square - 428 = 409$ $4 \cdot \square - 500 = 300$
7. $x + 128 000 = 320 000$ $x - 336 000 = 645 000$



8. Quyidagi sonlarni o'qing:
32 780, 140 763, 496 961, 555 443, 789 461, 971 283.
9. Bir fermadagi qo'y larning har biridan 5 kg dan jami 400 kg, ikkinchi fermadagi qo'y larning har biridan 4 kg dan jami 320 kg jun qirqib olindi. Ikkala fermada jami nechta qo'y bor?





19.

Olti xonali sonlar

- a) 99 997 dan 100 006 gacha bo'lgan sonlarni yozing.
b) Birlar sinfining ostiga bitta, minglar sinfining ostiga ikkita chiziqcha chizing.

Ko'p xonali sonlar yuqori sinf birliklaridan boshlab yoziladi. Masalan, olti yuz yetmish bir ming ikki yuz olti. Uni yozish



- ikkinci sinf birliklari — **671** yoziladi;
- undan keyin birinchi sinf birliklari — **671 206** yoziladi;
- demak, bu son **671 206** tarzida yoziladi.



- Sonlarni yozing:
a) sakkiz yuz yigirma ikki ming to'rt yuz oltmisbir;
b) olti yuz ming o'n yetti; d) to'rt yuz ming to'qqiz.
- Ifoda tuzing va uning qiymatini topping: a) 457 ming va 215 sonlari yig'indisi; b) 720 000 va 272 000 sonlari ayirmasi.
- $(428 - 315) \cdot 6$ $(345 + 79) \cdot 2 - 299$
- Lola bilan Alining jami 2 700 so'm puli bor. Lolaning puli Alining pulidan 300 so'm kam. Ularning har birida qanchadan pul bor?
- Karam va kartoshkaning massalarini topping.



- Sonlarni raqamlar bilan yozing:
901 ming 4 236 ming 12 600 ming 325
- Oq qayin 125 yil, eman daraxti esa undan 8 baravar ko'p yashaydi. Eman daraxti necha yil yashaydi?



20.

Olti xonali sonlar

Agar sonni o'qishda uning biror xona birligi yo'q bo'lsa, sonni yozishda bu xonaga nol yoziladi.



1. Sonlarni o'qing: 24 890, 603 716, 710 342

Birinchi va ikkinchi sinf xona birliklarini ayting.


2. $581 + 229$ $912 - 481$ $817 - 367$

3. $101\ 195 \star$ $101\ 905$ $234\ 140 \star$ $231\ 040$

$310\ 945 \star$ $311\ 111$ $573\ 611 \star$ $572\ 611$

4. Karim aka uyini jihozlamoqchi. Unda 900 000 so'm pul bor.

- a) U bu pulga qaysi jihozlardan sotib olishi mumkin?
 b) U televizor va magnitofon sotib olsa, qancha pul to'laydi? Karim akada qancha pul qoladi?
 d) Yumshoq mebellar to'plami va gilam sotib olinsa, necha so'm xarajat qilinadi?



5. Qaysi sondan 1000 ni ayirsak, ayirma 8 000 bo'ladi?

6. $x - 280 = 320$ $x + 360 = 450$ $x - 470 = 500$

7. $487 - 234$ $760 - 549$ $464 - 383$
 $891 + 106$ $398 + 119$ $572 + 365$

8. Uchta qishloqda 18 200 ta aholi yashaydi. Birinchi qishloqda 4 200 ta, ikkinchisida birinchisidagidan 1 600 ta ortiq aholi yashaydi. Uchinchi qishloqda qancha aholi yashaydi?





21.

Olti xonali sonlar


1. Ushbu sonlardan keyin keladigan sonlarni ayting: 99, 999, 9 999, 99 999, 999 999.

999 999 sonidan keyin **million** soni keladi. Bu son bunday yoziladi: **1 000 000**.

Mingta ming — bu **bir millionni** tashkil qiladi.



2. Sonlarni raqamlar bilan yozing:
75 ming 6; 254 ming 48; 428 ming 640; 806 ming 401.
3. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:
384 794, 710 564, 324 960, 156 404, 946 001.
4. $129 \cdot 6$ $175 \cdot 4$ $96 \cdot 7 - 96$
5. Nodir 12 yoshda, onasining yoshi esa undan 3 marta ortiq. Necha yildan so'ng Nodir onasining hozirgi yoshida bo'ladi?
6. Ikkala tarelkada qancha pul bor?



chapdagidan 3 marta ko'p

1 000 so'm

7. $x + 345 = 473$
 $x + 448 = 917$

$x - 111 = 534$
 $x - 244 = 645$

8. "Umid" firmasi yil boshida bankdan 800 000 so'm qarz oldi. Yil oxirida firma bankka olgan qarzidan 125 000 so'm ko'p pul qaytardi. "Umid" firmasi bir yildan so'ng bankka qancha pul qaytargan?





22.

Olti xonali sonlar

1. Har bir ustundagi sonlarni solishtiring:

1	6	40
10	60	400
100	600	4 000
1 000	6 000	40 000


- a) Birinchi ustundagi sonlarning har biridagi 1 raqami ni-mani bildiradi? Ikkinci ustundagi 6 raqami-chi?
b) Sonning o'ng tomoniga bitta nol yozganda bu son necha marta ortadi?
d) Ikkita nol yozganda-chi? Uchta nol yozganda-chi?

- 1) Sonning o'ng tomoniga bitta nol yozilsa, son 10 marta; ikkita nol yozilsa, 100 marta; uchta nol yozilsa, 1 000 marta ortadi.
2) Sonning o'ng tomonidagi bitta nol tushirib qoldirilsa, son 10 marta; ikkita nol tushirib qoldirilsa, 100 marta; uchta nol tushirib qoldirilsa, 1 000 marta kamayadi.



2. 25, 70, 600 sonlarini 10 marta, 100 marta, 1 000 marta orttiring.

Sonli labirint. □ + □




3. a) 1 000; 6 000; 40 000; 56 000 sonlarining o'ng tomonidan
bitta nol tushirib qoldirilsa, bu sonlar qanday o'zgaradi?
b) Ikkita nol tushirib qoldirilsa-chi?
4. 3 000; 80 000; 643 000 sonlarini 10 marta, 100 marta,
1 000 marta kamaytiring.
5. $1\ 000 : 10 \star 100 \cdot 10$ $4\ 200 \cdot 10 \star 42\ 000 : 10$
 $600 \cdot 10 \star 60\ 000 : 10$ $90\ 000 : 100 \star 9 \cdot 100$
6. To'qimachilik korxonasida 10 kunda 80 000 m gazlama
to'qildi. Korxona 100 kunda qancha gazlama ishlab
chiqaradi?

7. $2\ 000 : 10$ $30\ 000 : 100 \cdot 1\ 000$
 $2\ 000 \cdot 10$ $30\ 000 : 1\ 000 \cdot 100$

8. Ayiqpolvon qishda yeyish uchun uch
bochkada asal to'pladi. U bir bochkaga
144 kg, ikkinchi bochkaga undan 3
marta kam, uchinchi bochkaga esa
ikkinchidagidan 2 marta kam asal
to'pladi. Ayiqpolvon qishga jami necha
kilogramm asal to'plagan?



Buyuk yunon faylasufi Arximedning
matematikaga oid ko'plab asarlari
ma'lum va mashhurdir. Ayniqsa, undan
sonlarga oid ulkan ilmiy meros qolgan.
Uning geometriyaga doir tatqiqotlari natijasidan
biz hozirgacha foydalanib kelmoqdamiz.



**23.****Yassi shakillar**

1. Quyidagi rasmda kvadrat, doira, uchburchak, oltiburchak, to'g'ri to'rtburchak, beshburchak va to'rtburchak tasvirlangan. Ular yassi shakllarga misol bo'ladi. Har bir raqamga mos kelgan shakllarning nomini ayting.



2. Uchburchakning nechta uchi bor? Beshburchakda-chi?
3. Beshburchakda nechta tomon bor? Oltiburchakda-chi?
4. Rasmda berilgan ko'pburchaklarning nomini ayting. Ularning tomonlarini o'lchang va perimetrini hisoblang.



5. 666 hosil qilish uchun qanday sonni 6 ga ko'paytirish kerak?
6. Qanday 4 ta bir xil qo'shiluvchining yig'indisi 48 bo'ladi?
7. Siniq chiziq bo'g'inlari uzunliklarini o'lchang. Siniq chiziq uzunligini hisoblang.

**8.**

$$\begin{array}{r} *8* \\ + 2*7 \\ \hline 503 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 98* \\ - **5 \\ \hline 441 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 6*8 \\ - *4* \\ \hline 482 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 5*7 \\ + 27* \\ \hline *08 \end{array}$$

9.

- Kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak chizing. Ularning tomonlarini o'lchang va perimetrlarini toping.






24.

Fazoviy jismlar

1. Quyidagi rasmda shar, silindr, piramida, konus, parallelepiped va kub tasvirlangan. Ular fazoviy jismlarga misol bo'ladi. Har bir raqamga mos kelgan jismlarning nomini ayting?



2. Kubning nechta qirrasi bor? Uning yoqlari nechta?
3. Kubning yoqlari qanday geometrik shakldan iborat?
4. 2-, 4- va 5-fazoviy jismlarning qanday umumiy xossasi bor?
5. $623 + 174$ $573 + 168$ $806 - 324$
 $857 - 435$ $727 - 349$ $632 + 213$
6. Futbol to'pi qanday geometrik jismga o'xshaydi?
7. Fermer g'amlangan pichanni, har oyda 30 sr dan sarflasa, 3 oyga yetishi mumkin. Bu pichanni 5 oyga yetkazish uchun fermer har oyda qancha pichan sarflashi kerak?



8. Bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:
- | | | |
|------------|----------------|--------------------|
| $500 : 10$ | $3\,600 : 100$ | $37\,000 : 1\,000$ |
| $900 : 10$ | $8\,000 : 100$ | $43\,000 : 1\,000$ |
9. Kubning yoqlarini turli rangga bo'yash uchun necha xil bo'yoq kerak bo'ladi?





25. Mustahkamlash uchun mashqlar


1. a) Birlar sinfining 695; 342; 95; 510; 7 birliklarini;
minglar sinfining 36; 124; 413; 6; 827 birliklarini o'qing
va ularni ortib borish tartibida yozing;
b) birlar sinfining 6; 78; 346; 509; 963 birligini;
minglar sinfining 843; 8; 77; 325; 91 birliklarini o'qing
va ularni kamayish tartibida yozing.

2. Sonlarni o'qing: 3 609, 92 820, 720 053, 130 040, 248 463.

3. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:
817, 3 029, 53 082, 706 480.

4. $352 \star 235$ $7\ 425 \star 74\ 000$
 $908 \star 3\ 060$ $82\ 016 \star 82\ 106$

5. Naqshni daftaringizga chizing va uni bo'yang:



6. $x + 25 = 948$ $x - 948 = 25$ $948 - x = 25$

7. Sevara 200 so'm sarflaganidan keyin, unda sarflagan puliga qaraganda 2 marta ko'p pul qoldi. Unda qancha pul qolgan? Dastlab Sevarada qancha pul bo'lgan?

8. Maktab kutubxonasida 2 100 ta kitob bor. Maktabdagи har bir o'quvchi 2 tadan kitob olsa, kutubxonada 300 ta kitob qoladi. Bu maktabda nechta o'quvchi bor?



$+ 666$	$+ 597$	$- 965$	$- 857$
285	360	149	668



26. Mustahkamlash uchun mashqlar

1. Sonlarni o'qing. Berilgan sonlar juftining o'xshash va farqli tomonlarini aniqlang.

60 va 60 000 850 va 850 000 999 va 999 000

2. $20\ 000 \text{ sm} = \square \text{ m}$ $12\ 000 \text{ kg} = \square \text{ t}$

$38\ 000 \text{ sm} = \square \text{ mm}$ $49\ 000 \text{ kg} = \square \text{ sr}$

3. 1) Ombordagi qurilish moliali miqdori ifodalangan sonlarni o'qing.



2 km 85 t

- 2) Massani ifodalovchi miqdorlarni kilogrammlarda, uzunlikni ifodalovchi miqdorlarni metrlarda ifodalang.



750 t

- 3) Hosil bo'lgan miqdorlarni 10 ga bo'ling va bo'linmalarning xona birliklarini aniqlang.



1 km 96 t

4. $x : 3 = 197$ $x : 4 = 212$ $x \cdot 5 = 915$


5. $3\ 560 < 3\ 5 * 0$ $7 * 31 < 7\ 231$ $60\ 085 < 60\ 0 * 5$

$8\ 000 > * 999$ $4\ 001 > 4\ 00 *$ $84\ 509 < 85 * 09$

6. $576 + 318$ $800 - 146$


$613 + 305$ $701 - 612$

7. Rasmda tasvirlangan mevalardan do'konga jami 760 kg keltirildi. Do'konga har bir mevadan necha kilogrammdan keltirilgan?



370 kg


II bo'limga doir qo'shimcha misol va masalalar

1. 15-betdagi rasmda berilgan topshiriqlarni bajaring:
 - a) To'ti ushlab turgan son xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozilsa, rasmdagi hayvonlar qanday tartibda turishi kerak?
 - b) Rasmda hammasi bo'lib nechta kubcha bor?
 - c) Rebusni yeching. Bunda turli harflarga har xil raqamlar mos keladi.
2. Qulay usulda hisoblang:
$$\begin{array}{r} 580 + 29 + 20 \\ 620 + 48 + 80 \end{array} \quad \begin{array}{r} 729 + 190 - 29 \\ 442 + 153 - 42 \end{array}$$
3. Rasmdagi shaklni daftaringizga chizing va bo'yang.

4. Ushbu sonlarni raqamlar bilan yozing:
 - a) olti yuz sakson to'qqiz;
 - b) uch yuz qirq ikki;
 - c) 6 sr 70 kg
 - d) olti yuz olti;
 - e) bir yuz oltmis sakkiz.
5. Teng miqdorlarni toping:



1) 6 sr 70 kg	4) 4 soat 30 min
2) 4 km 300 m	5) 270 min
3) 4 300 m	6) 670 kg
6. Rasmda jami necha so'm pul tasvirlangan? Hosil bo'lgan sonni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing.



7. Rasmdagi shakllarning nomlarini ayting. Bu shakllar haqida nimalarni bilasiz?



8. a) Soatlar ko'rsatayotgan vaqtni ayting:



- b) Besh soatdan keyin bu soatlar qanday vaqtni ko'rsatadi?

9. Maftuna 486 betli kitobning 196 betini o'qidi. Kitobning o'qilmagan beti nechta?

10. Ifoda tuzing va uning qiymatini toping:

- a) 295 va 2 sonlari ko'paytmasiga 100 ni qo'shing;
b) 1 000 sonidan 305 va 3 sonlari ko'paytmasini ayiring.

11. Jadvalni to'ldiring:

Kamayuvchi	642	821		969		804
Ayriluvchi		475	216		405	
Ayirma	303		542	347	558	225

12. Sayohatchi poyezdda 600 km, velosipedda esa poyezdagiga qaraganda 10 marta kam masofani bosib o'tdi. Sayohatchi jami necha kilometr masofani bosib o'tgan?

13. $47 * > 478$ $758 > 74 *$ $556 > 5 * 5$
 $661 > 66 *$ $941 < 95 *$ $885 > 8 * 8$

14. Azamatning akasi 1 ta telefon va 1 ta kompyuter xarid qildi. U xaridi uchun jami necha so'm to'lagan?



7 000 so'm

500 000 so'm

15. $x + 444 = 725$ $902 - x = 499$

16. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:
 17 817, 29 909, 35 001, 476 440, 667 070.


17. $700 : 10 \cdot 100$ $900 \cdot 10 : 100$ $850 : 10 \cdot 10$
 $600 \cdot 10 : 100$ $400 : 100 \cdot 10$ $950 \cdot 10 : 10$

18. Qavslarni shunday qo'ying-ki, natijada tenglik to'g'ri bo'lisin:
 $900 - 320 - 140 = 720$ $240 + 750 - 670 = 320$
 $850 - 430 + 170 = 250$ $490 - 480 - 290 = 300$

19. Neksiya avtomashinasi 144 km masofaga 12 litr benzin sarflaydi. Neksiya avtomashinasi 28 litr benzin bilan necha kilometr masofani bosib o'tadi?

III BO'LIM

QO'SHISH VA AYIRISH



SPORT + PORT + ORT = RRRRR



27.

Sonli ifodalar



Sonlarni qo'shish, ayirish, ko'paytirish yoki bo'lish — bular arifmetik amallardir. Yozuvda ularni ifodalash uchun "+", "-", "·", ":" belgilari ishlataladi.

Masalan, $8 + 7$, $13 - 6$, $3 \cdot 13$, $24 : 4$.

Sonlar va arifmetik amallardan tuzilgan bunday yozuvlarga **sonli ifodalar** deyiladi.

Sonli ifodadagi amallar bajarilsa, ifodaning qiymati hosil bo'ladi.



- | | |
|----------------------|--------------------|
| 1. $4\ 000 + 2\ 000$ | $10\ 000 - 5\ 000$ |
| $7\ 000 + 3\ 000$ | $25\ 000 - 2\ 000$ |
| $3\ 000 + 2\ 000$ | $32\ 000 - 1\ 000$ |
| $5\ 000 + 4\ 000$ | $20\ 000 - 2\ 000$ |
- 3 000 ta 800 ta kam
2. Ikkala mashinada nechta g'isht bor?
-
3. $2\ 345 + 0$ $0 + 2\ 000$ $1\ 245 + 0$ $0 + 4\ 225$

Agar sonli ifodada faqat qo'shish va ayirish amallari qatnashgan bo'lsa, amallar yozilish tartibida, chapdan o'ngga ketma-ket bajariladi. Masalan,

(1)

(2)

(2)

$$375 - 240 + 15 = 135 + 15 = 150.$$



4. $755 + x = 990 - 45$ $817 - x = 648 + 47$
 $x - 192 = 515 - 49$ $x + 348 = 473 + 51$

5. $217 \star 583 \star 686 = 114$ $761 \star 312 \star 146 = 303$
+ $932 \star 864 \star 427 = 495$ $542 \star 135 \star 241 = 918$

6. a) Rasmdagi oila a'zolari hozir necha yoshda?
 b) Ota o'g'ilidan necha yosh katta? Ona kelinidan-chi?
 d) Birinchi nevara tug'ilganda ota necha yoshda bo'lgan?
 e) Ikkinchchi nevara tug'ilganda ona necha yoshda bo'lgan?



7. + $870 + 0$ $348 + 675$ $(845 + 47) : 2$
+ $0 + 138$ $863 + 125$ $(642 - 123) : 3$
- $786 - 0$ $300 + 263$ $(514 + 411) : 5$

8. Bir hikoya matni kitobning 114-betidan boshlanib, 132-betida tugaydi. Yana bir hikoya matni kitobning 247-betidan boshlanib, 258-betida tugaydi. Qaysi bir hikoyaning matni qisqa va u necha betni tashkil qiladi?





28.

Sonli ifodalar

1. Qulay usul bilan hisoblang:

$$2 \cdot 3 \cdot 5$$

$$2 \cdot 4 \cdot 5$$

$$7 \cdot 5 \cdot 2$$

$$2 \cdot 6 \cdot 5$$

$$2 \cdot 8 \cdot 5$$

$$5 \cdot 9 \cdot 2$$

2. $721 : 7$

$804 : 6$

$948 : 3$

$816 : 8$

$980 : 5$

$738 : 9$

3. Rasmdagi shaklni daftaringizga chizing va bo'yang.

4. Oydinda 1 000 so'm pul bor edi. U narxi 50 so'm bo'lgan daftardan 9 ta sotib oldi. Oydinda qancha pul qoldi?

5. $810 : 9 \cdot 7$


$63 \cdot 10 : 3$

$115 \cdot 8 : 10$

$230 \cdot 4 : 10$

$85 : 5 \cdot 9$

$640 : 8 : 10$



Agar sonli ifodada faqat ko'paytirish va bo'lish amallari qatnashgan bo'lsa, amallar yozilish tartibida, chapdan o'ngga ketma-ket bajariladi. Masalan,

① ② ③

② ③

③

$$300 : 2 : 5 \cdot 7 = 150 : 5 \cdot 7 = 30 \cdot 7 = 210$$



6. Birinchi kutubxonada 24 000 ta, ikkinchisida birinchisiga qaraganda 8 000 ta ortiq kitob bor. Ikkala kutubxonada jami nechta kitob bor?

7. $872 : 4 : 2 \cdot 5$

$64 \cdot 10 : 8 \cdot 3$

$768 : 3 \cdot 7 : 4$

$844 : 2 \cdot 3 : 2$

8. Qutida 500 ta qog'oz varag'i bor edi. Uch kun mobaynida har kuni 70 tadan qog'oz ishlatildi. Qutida necha varaq qog'oz qoldi?





29. To'rt arifmetik amallarga doir mashqlar

1. $400 - 127 \cdot 3$

$344 : 4 + 221 \cdot 3$

$555 : 5 + 170$

$247 \cdot 2 - 232 : 8$

Agar sonli ifodada turli arifmetik amallar qatnashgan bo'lsa, avval chapdan o'ngga ketma-ket ko'paytirish va bo'lislis amallari, keyin qo'shish va ayirish amallari yozilish tartibida bajariladi. Masalan,

(3) (1) (2) (4)

$240 - 500 : 50 \cdot 20 + 9 = 49.$



2. Ifoda tuzing va uning qiymatini toping:

- a) 165 va 3 sonlari ko'paytmasiga 160 sonini qo'shing;
b) 642 sonidan 455 va 5 sonlari bo'linmasini ayiring.

3. Sisternada 500 litr benzin bor edi. Undan 10 chelak benzin olingandan keyin, sisternada 390 litr benzin qoldi. Chelaka necha litr benzin sig'adi?

4. $560 = 240 : 4 + \square$

$740 = 90 \cdot 9 - \square$

$870 = \square - 630 : 9$

$80 = \square - 560 : 7$

5. Qanday to'rt xonali sondan 1 ayrilsa, uch xonali son hosil bo'ladi?



6. Rasmdagi ma'lumotlar asosida tarvuzning massasini toping.



7. $143 \cdot 6 - 240 : 2$

$148 : 4 \cdot 2 - 56 + 270$

$802 - 160 : 4 \cdot 9$

$305 + 240 \cdot 3 : 2 - 125$

8. Kitob do'koniga har birida 8 tadan kitob bo'lgan 12 o'ram, har birida 16 tadan kitob bo'lgan 10 o'ram kitob keltirildi. Do'konga hammasi bo'lib nechta kitob keltirilgan?



30. To'rt arifmetik amallarga doir mashqlar

Agar sonli ifodada qavslar qatnashgan bo'lsa, avval qavslar ichidagi amallar, keyin qolgan amallar oldingi qoidalar bo'yicha bajariladi.

- (3) (1) (5) (4) (2)



$$2 \cdot (8 - 5) + 12 : (7 - 3) = 2 \cdot 3 + 12 : 4 = 6 + 3 = 9.$$



1. $640 : (33 - 25) = 80$ $486 : (602 - 600) = 243$
 $(600 - 24) : 8 \cdot 3 = 72$ $(700 - 1) : (200 - 197) = 3$

2. $67 \star 5 = 8 \star 9$ $77 \star 3 = 20 \star 4$
 $95 \star 5 = 22 \star 3$ $90 \star 2 = 15 \star 3$

3. Rasmdagi "begona" shaklni toping:



4. Qavslarni shunday qo'ying-ki, natijada tenglik to'g'ri bo'lsin:
 $100 - 45 + 75 : 5 = 40$ $100 - 45 + 75 : 5 = 76$
 $100 - 45 + 75 : 5 = 26$ $100 - 45 + 75 : 5 = 70$

5. Shohida sotuvchiga 1 000 so'm pul berdi va narxi 245 so'm bo'lgan 4 ta umumiy daftар sotib oldi. Shohida qancha qaytim olgan?



$$\begin{array}{ll} 6. \quad 500 - x = 320 & x - 490 = 230 \\ x + 135 = 890 & 780 + x = 900 \end{array}$$




7. Bir fermer xo'jaligi 360 kg asal, ikkinchi fermer xo'jaligi undan 180 kg ko'p asal yig'ib oldi. Hamma asalni 9 kg li bidonlarga quyish uchun nechta bidon kerak bo'ladi?

**31.****Qo'shish**

1. $10 + 20 = 30$

qo'shiluvchi qo'shiluvchi yig'indi

- 1) Qo'shish amalini belgilash uchun qanday belgi qo'llaniladi?
- 2) Qo'shishda qatnashayotgan sonlar qanday nom bilan ataladi?
- 3) Qo'shishning natijasi nima deb ataladi?



2. $4\,000 + 1\,000$ $1\,000 + 4\,000$
Natijalar nima uchun bir xil?
3. Har bir juft yig'indilarni taqqoslang:
 a) $8\,130 + 1\,000$ va $1\,000 + 8\,130$
 b) $9\,560 + 4\,000$ va $4\,000 + 9\,560$
 d) $10\,000 + 2\,000$ va $2\,000 + 10\,000$
 e) $18\,700 + 200$ va $200 + 18\,700$
4. O'quvchilarga 2 400 ta kitob tarqatilgandan keyin maktab kutubxonasida 1 800 ta kitob qoldi. Maktab kutubxonasi-da jami nechta kitob bo'lgan?

Bir nechta sonning yig'indisini hisoblashda ularning o'rinalarini turlichalama almashtirish va ularni turli usulda guruhash mumkin.



5. Tengliklarning to'g'riligini tushuntiring:

$$1) 89 + 37 + 5 = 89 + 5 + 37$$

$$2) (8 + 7) + 78 = 8 + (7 + 78)$$

6. Yig'indini har xil usullardan foydalanib hisoblang va natijalarni taqqoslang:

$$56 + 8 + 2 + 4$$

$$56 + (8 + 2) + 4$$

$$56 + 8 + (2 + 4)$$

$$(56 + 4) + (8 + 2)$$


Qo'shiluvchilardan biri nol bo'lsa, yig'indi ikkinchi qo'shiluvchiga teng bo'ladi.

$$1\,283 + 0 = 1\,283$$

$$0 + 6\,797 = 6\,797$$



7. Uydan maktabgacha bo'lgan masofa uydan futbol maydonigacha bo'lgan masofadan necha metr qisqa?



8.  $x + 824 = 999$

$$155 + x = 547$$

$$x - 306 = 625$$

$$905 - x = 418$$

9. Anvarbek 270 bet matnni kompyuterda terdi. Agar unga 510 betli matnni kompyuterda terish topshirilgan bo'lsa, u yana necha bet matnni kompyuterda terishi kerak?



32.**Sonlarni ustun usulida qo'shish**

14 235 + 16 368 yig'indi ustun usulida quyidagi tartibda hisoblanadi:

1- qadam. Birliklarni qo'shamiz:	2- qadam. O'nliklarni qo'shamiz:	3- qadam. Yuzliklarni qo'shamiz:	4- qadam. Mingliklarni qo'shamiz:	5- qadam. O'n mingliklarni qo'shamiz:
$5 + 8 = 13$	$1 + 3 + 6 = 10$	$1 + 2 + 3 = 6$	$4 + 6 = 10$	$1 + 1 + 1 = 3$
$ \begin{array}{r} 1 \\ + 14\ 235 \\ + 16\ 368 \\ \hline 3 \end{array} $	$ \begin{array}{r} 11 \\ + 14\ 235 \\ + 16\ 368 \\ \hline 03 \end{array} $	$ \begin{array}{r} 11 \\ + 14\ 235 \\ + 16\ 368 \\ \hline 603 \end{array} $	$ \begin{array}{r} 1\ 11 \\ + 14\ 235 \\ + 16\ 368 \\ \hline 0603 \end{array} $	$ \begin{array}{r} 1\ 11 \\ + 14\ 235 \\ + 16\ 368 \\ \hline 30\ 603 \end{array} $

Demak, $14\ 235 + 16\ 368 = 30\ 603$

1.
$$\begin{array}{r}
 35\ 426 \\
 + 34\ 220 \\
 \hline
 34\ 220
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 36\ 382 \\
 + 42\ 235 \\
 \hline
 42\ 235
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 50\ 274 \\
 + 40\ 374 \\
 \hline
 40\ 374
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 47\ 385 \\
 + 52\ 847 \\
 \hline
 52\ 847
 \end{array}$$

2. Aloqa bo'limiga birinchi kun 23 640 ta, ikkinchi kun esa 38 573 ta xat keltirildi. Shu ikki kunda aloqa bo'limiga nechta xat keltirilgan?

3.
$$\begin{array}{r}
 9 \cdot 53 \star 95 \cdot 3 \\
 \hline
 68 \cdot 7 \star 6 \cdot 87
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 19 \cdot 4 + 19 \star 5 \cdot 19 \\
 \hline
 14 \cdot 7 \star 3 \cdot 214 + 3
 \end{array}$$

4.
$$\begin{array}{r}
 56\ 486 + 27\ 947 \\
 37\ 829 + 62\ 307
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 48\ 324 + 16\ 952 \\
 63\ 521 + 23\ 514
 \end{array}$$

5. Qurilishga jami nechta g'isht keltirilgan?

6. $x : 5 = 114$ $x - 8\ 912 = 1\ 241$

7. Fermerning 3520 ta oq va undan 287 ta ortiq kulrang quyonlari bor. Fermerning jami nechta quyonি bor?

8.
$$\begin{array}{r}
 32\ 617 + 14\ 268 \\
 23\ 567 + 35\ 647
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 45\ 312 + 36\ 547 \\
 53\ 145 + 19\ 565
 \end{array}$$





33.

Sonlarni ustun usulida qo'shish

1. $36\ 547 + 7\ 105$ yig'indi qanday hisoblanganligini tushuntiring:

1- qadam	2- qadam	3- qadam	4- qadam	5- qadam
$7+5=12$	$1+4+0=5$	$5+1=6$	$7+6=13$	$1+3=4$
$\begin{array}{r} 1 \\ + 36\ 547 \\ \hline 7\ 105 \\ \hline 2 \end{array}$	$\begin{array}{r} 1 \\ + 36\ 547 \\ \hline 7\ 105 \\ \hline 52 \end{array}$	$\begin{array}{r} 1 \\ + 36\ 547 \\ \hline 7\ 105 \\ \hline 652 \end{array}$	$\begin{array}{r} 1 \\ + 36\ 547 \\ \hline 7\ 105 \\ \hline 3\ 652 \end{array}$	$\begin{array}{r} 1\ 1 \\ + 36\ 547 \\ \hline 7\ 105 \\ \hline 43\ 652 \end{array}$

Demak, $36\ 547 + 7\ 105 = 43\ 652$.

2. $\begin{array}{r} 35\ 565 \\ + 2\ 329 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 35\ 746 \\ + 4\ 172 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 426\ 431 \\ + 42\ 854 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 513\ 414 \\ + 88\ 916 \\ \hline \end{array}$

3. $525 + x = 717$ $x - 3\ 486 = 5\ 972$
 $x + 319 = 681$ $x - 7\ 130 = 8\ 313$

4. Sonlar qatorida nechta besh xonali son bor?

5. $\begin{array}{r} 5*3\ 4*7 \\ + 23*71* \\ \hline 789\ *39 \end{array}$ $\begin{array}{r} *78\ *12 \\ + 3*4\ 5*1 \\ \hline 84*\ 90* \end{array}$ $\begin{array}{r} 6*5\ 8*9 \\ + 24*65* \\ \hline 924\ *93 \end{array}$

6. Rasmga ko'ra masala tuzing va uni yeching:



380 g



240 g



160 g

7. $\begin{array}{r} 27\ 257 \\ + 38\ 231 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 343\ 718 \\ + 426\ 346 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 660\ 592 \\ + 298\ 437 \\ \hline \end{array}$

8. Lola xarid uchun sotuvchiga 12 000 so'm berdi va 900 so'm qaytim oldi. Lola xarid uchun necha so'm to'lagan?





34. Ayirish. Sonlarni ustun usulida ayirish

1.

$$30 - 10 = 20$$



kamayuvchi aryluvchi ayirma

- 1) Ayirish amalini belgilash uchun qanday belgi ishlataladi?
- 2) Ayirishda qatnashayotgan sonlar qanday nom bilan ataladi?
- 3) Ayirish natijasida hosil bo'lgan son nima deb ataladi?
- 4) Qanday holda ayirma kamayuvchiga teng bo'ladi?
- 5) Qanday holda ayirma nolga teng bo'ladi?

Ayrluvchi nol bo'lsa, ayirma kamayuvchiga teng bo'ladi.
Kamayuvchi ayrluvchiga teng bo'lsa, ayirma nol bo'ladi.

$$420 - 0 = 420$$

$$555 - 555 = 0$$



36 487 – 24 879 ayirma ustun usulida quyidagi tartibda hisoblanadi:

1- qadam. Birliklarni ayiramiz:	2- qadam. O'nliklarni ayiramiz:	3- qadam. Yuzliklarni ayiramiz:	4- qadam. Mingliklarni ayiramiz:	5- qadam. O'n minglik- larni ayiramiz:
$17 - 9 = 8$	$7 - 7 = 0$	$14 - 8 = 6$	$5 - 4 = 1$	$3 - 2 = 1$
$\begin{array}{r} 71 \\ - 36 487 \\ \hline 24 879 \\ 8 \end{array}$	$\begin{array}{r} 71 \\ - 36 487 \\ \hline 24 879 \\ 08 \end{array}$	$\begin{array}{r} 5171 \\ - 36487 \\ \hline 24879 \\ 608 \end{array}$	$\begin{array}{r} 5171 \\ - 36487 \\ \hline 24879 \\ 1608 \end{array}$	$\begin{array}{r} 5171 \\ - 36487 \\ \hline 24879 \\ 11608 \end{array}$

Demak, $36 487 - 24 879 = 11 608$

2.	$\begin{array}{r} 53479 \\ - 21257 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 85945 \\ - 63629 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 24843 \\ - 14672 \\ \hline \end{array}$
----	---	---	---


3. Rasmdagi pomidor karamdan necha gramm og'ir? Javobni kilogrammda ifodalang.
4. $874 - 258 \cdot 3 + 746$
 $(856 - 548) : 4 + 107 \cdot 5$
 $328\ 500 - 996 : 3 + 14\ 612$
 $487\ 197 - 356 \cdot 3 + 32\ 764$
5. Sig'imi 20 000 litr bo'lgan sisternada 18 000 litr benzin bor. Sisternaga yana necha litr benzin quyish mumkin?
6. $75\ 636 + (547 - 426)$ $(468 + 19\ 737) - 3\ 006$
 $82\ 075 + (789 - 645)$ $(5\ 789 - 2\ 194) + 2\ 073$
7. Uyga kim oldin kiradi?



482 + 87	905 + 96	904 + 96
1 465 + 930	3 608 + 74	2 872 + 579
2 874 + 15 386	42 376 + 37 624	9 036 + 31 064
35 000 - 12 639	20 100 - 16 760	50 120 - 18 673



<u>40 152</u>	<u>604 020</u>	<u>100 000</u>	<u>975 563</u>
- 29 508	- 584 635	- 89 291	- 540 247



9. Uchta savatda 120 kg xurmo bor. Birinchi savatda 48 kg, ikkinchi savatda esa undan 2 marta kam xurmo bor. Uchinchi savatda qancha xurmo bor?





35.

Sonlarni ustun usulida ayirish

1. $78\ 492 - 45\ 674$ ayirma qanday hisoblanganligini tushuntiring:

1- qadam	2- qadam	3- qadam	4- qadam	5- qadam
$\begin{array}{r} 81 \\ - 78\ 492 \\ \hline 45\ 674 \end{array}$	$\begin{array}{r} 81 \\ - 78\ 492 \\ \hline 45\ 674 \end{array}$	$\begin{array}{r} 7\ 181 \\ - 78\ 492 \\ \hline 45\ 674 \end{array}$	$\begin{array}{r} 7\ 181 \\ - 78\ 492 \\ \hline 45\ 674 \end{array}$	$\begin{array}{r} 7\ 181 \\ - 78\ 492 \\ \hline 45\ 674 \end{array}$
8	18	818	2 818	32 818
$12 - 4 = 8$	$8 - 7 = 1$	$14 - 6 = 8$	$7 - 5 = 2$	$7 - 4 = 3$

Demak, $78\ 492 - 45\ 674 = 32\ 818$

2. $\begin{array}{r} 348\ 256 \\ - 153\ 140 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 782\ 986 \\ - 653\ 774 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 435\ 268 \\ - 200\ 351 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 253\ 468 \\ - 142\ 383 \\ \hline \end{array}$

3. Oldin ikki sonning ayirmasini, so'ngra yig'indisini toping:
 734 508 va 45 792 637 965 va 271 904
 447 206 va 64 869 572 392 va 149 058

4. $x + 5\ 242 = 9\ 811$ $x - 3\ 948 = 12\ 515$
 $x + 6\ 781 = 6\ 781$ $x - 2\ 781 = 16\ 721$

5. Korxona bir yilda 654 325 juft erkaklar oyoq kiyimi, undan 12 430 juft kam ayollar oyoq kiyimi ishlab chiqardi. Korxona bir yilda necha juft ayollar oyoq kiyimi ishlab chiqargan?
6. Tadbirkorning 976 ming so'm puli bor edi. U 780 ming so'mga oshxona sotib oldi. Tadbirkorda qancha pul qoldi?

7. $384\ 790 + 135\ 687$ $245\ 368 - 124\ 875$
 $445\ 215 + 214\ 576$ $935\ 148 - 321\ 459$
8. Uchta muktabda hammasi bo'lib 3 650 ta o'quvchi bor. Birinchi muktabda 1 240 ta, ikkinchisida esa 1 180 ta o'quvchi bor. Uchinchi muktabda nechta o'quvchi bor?





36. Bir necha sonni ustun usulida qo'shish

1. Qo'shish qanday bajarilganligini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 573 \\ + 694 \\ \hline 1348 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 47685 \\ + 6709 \\ \hline 135867 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 347838 \\ + 57608 \\ \hline 905882 \end{array}$$


2. $578 + 829 + 19\ 360$ $9\ 001 + 7\ 398 + 34\ 805$
 $903 + 6\ 480 + 20\ 125$ $5\ 642 + 29\ 187 + 183\ 094$

3. Jadvalni to'ldiring.

a	b	c	$a + b + c$
547	67 543	285 684	
341 369	87 915	15	

4. $490 \star 750 \star 890 = 350$ $620 \star 410 \star 340 = 550$
 $960 \star 580 \star 120 = 500$ $990 \star 250 \star 120 = 620$

5. Samolyot Toshkentgacha qancha masofani uchib o'tadi?



6. Tokzordan birinchi kuni 210 kg, ikkinchi kuni undan 60 kg kam uzum uzildi. Uzum mayiz qilinganda uning massasi 3 marta kamayadi. Uzilgan uzumdan qancha mayiz olinadi?

7. $323 + 621 + 99$ $56\ 214 + 7\ 562 + 8\ 413$
 $4\ 215 + 235 + 82$ $654\ 125 + 112\ 356 + 51\ 245$

8. Do'konga 164 litr pista yog'i va 2 ta bir xil idishda paxta yog'i keltirildi. Agar jami 236 litr yog' keltirilgan bo'lsa, bitta idishga necha litr paxta yog'i solingan?





**37.****Mustahkamlash uchun mashqlar**

$$\begin{array}{r} 1. \quad 862\ 576 \\ + \quad 415\ 473 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 75\ 856 \\ + \quad 354\ 548 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 584\ 976 \\ + \quad 68\ 859 \\ \hline \end{array}$$

2. Chizg'ich yordamida qalamingizning uzunligini o'lchang va natijani daftaringizga yozing.

$$\begin{array}{r} 3. \quad 654\ 821 \\ - \quad 68\ 734 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 765\ 008 \\ - \quad 76\ 329 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 543\ 602 \\ - \quad 358\ 714 \\ \hline \end{array}$$

4. a) Rasmlari keltirilgan buyuk ajdodlarimiz necha yil umr ko'rgan?
b) Bu yil ularning tavallud topganiga necha yil to'ladi?

Abu Ali ibn Sino
980 – 1 037Umar Hayyom
1 048 – 1131Nasiriddin Tusiy
1 201 – 1 274

5. $521\ 008 + (800\ 026 - 724\ 013)$
 $902\ 007 - (346\ 009 + 185\ 306)$
6. Yosh tabiatshunoslar jami 25 700 tup daraxt ko'chati o'tqazdi. Ulardan 8 580 tasi olma, undan 4 210 tup ortiq gilos, qolganlari olxo'ri ko'chatlaridan iborat. Yosh tabiatshunoslar necha tup olxo'ri ko'chati o'tqazdilar?

7. Bosmaxonada 356 400 ta kitob chop etildi. Do'konlarga kitoblar jo'natilgandan keyin bosmaxonada 134 300 ta kitob qoldi. Bosmaxona do'konlarga nechta kitob jo'natgan?
8. $326 \cdot 3 - 340 : 4$ $342 : 6 \cdot 8 + 80\ 404$
 $30\ 040 - 68 \cdot 5$ $426 : 6 \cdot 8 + 92\ 618$



38. Qo'shishning to'g'riliqini tekshirish usullari



Qo'shish amali	Tekshirish usullari		
	I. Ayirish yordamida	II. Qo'shish yordamida	
61 243 + 5 782 _____ 67 025	a) 67 025 - 5 782 _____ 61 243	b) 67 025 - 61 243 _____ 5 782	5 782 + 61 243 _____ 67 025

Agar yig'indidan qo'shiluvchilarning biri ayrilganda, ikkinchi qo'shiluvchi hosil bo'lса, qo'shish to'g'ri bajarilgan bo'ladi.

1. Yig'indini hisoblang va natijani tekshiring:

$$1\ 785 + 6\ 354$$

$$7\ 854 + 3\ 265$$

$$35\ 478 + 12\ 365$$

$$9\ 125 + 13\ 567$$



2. 150 kg bug'doy ekildi va ekilgan urug'dan 8 marta ko'p hosil yig'ib olindi. Qancha bug'doy hosili olingan?

3. Qo'shishni bajaring va natijani tekshiring:

$$\begin{array}{r} 4\ 789 \\ + 7\ 318 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 68\ 987 \\ + 97\ 456 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 45\ 789 \\ + 6\ 879 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 798\ 245 \\ + 45\ 786 \\ \hline \end{array}$$

4. $5\ 487 + 714 - 54 \cdot 4$ $(348 - 800 : 4) \cdot 7 + 300$
 $(79\ 906 - 78\ 806) : 2 \cdot 8$ $(363 : 3 + 121) \cdot 4 + 23\ 400$

5. Olmaxon qishda yeyish uchun 5 kunda 40 ta yong'oq to'pladi. U necha kunda 240 ta yong'oq to'playdi?

6. Ikkala mashinaga necha kilogramm bug'doy ortilgan?



3 050 kg



1 090 kg ortiq

7. Qo'shishni bajaring va natijani tekshiring:



$$1\ 450 + 27\ 659$$

$$6\ 547 + 27\ 651$$

$$245\ 887 + 3\ 209$$



39. Ayirishning to'g'riligini tekshirish usullari



Ayirish amali	Tekshirish usullari	
	I. Qo'shish yordamida	II. Ayirish yordamida
$\begin{array}{r} 85\ 324 \\ - 6\ 936 \\ \hline 78\ 388 \end{array}$	$\begin{array}{r} 78\ 388 \\ + 6\ 936 \\ \hline 85\ 324 \end{array}$	$\begin{array}{r} 85\ 324 \\ - 78\ 388 \\ \hline 6\ 936 \end{array}$

Agar ayirmaga ayriluvchi qo'shilganda, kamayuvchi hosil bo'lsa, kamayuvchidan ayirma ayrliganda esa, ayriluvchi hosil bo'lsa, ayirish to'g'ri bajarilgan bo'ladi.



1. Ayirmani hisoblang va natijani tekshiring:

$$26\ 578 - 3\ 567$$


$$25\ 678 - 14\ 687$$

$$36\ 874 - 6\ 757$$

$$56\ 784 - 36\ 578$$

2. Jadvalni to'ldiring:

Kamayuvchi	4 356		6 587	8 747
Ayriluvchi	984	689		672
Ayirma		4 578	5 487	



3. Rasmdagi shaklni daftaringizga chizing va bo'yang.



$$4\ 420 + (5\ 678 - 3\ 249) \qquad \qquad 870 + 900 : 100 \cdot 6$$

5. Fermer xo'jaligi ikki daladan 57 897 kg arpa yig'ishtirib oldi. Agar birinchi daladan 32 280 kg arpa hosili olingan bo'lsa, ikkinchi daladan qancha hosil olingan?

6. Ayirishni bajaring va natijani tekshiring:



$$9\ 545 - 368$$

$$24\ 343 - 4\ 672$$

$$257\ 652 - 178\ 030$$

7. Zalda 380 ta o'rin bor. O'quvchilar 8 qatorni band qilganlaridan keyin 140 o'rin bo'sh qoldi. Har bir qatorda nech-tadan o'rin bor?





40. Tenglamalar. Noma'lum qo'shiluvchini topish

1. Tenglamaning yechilishini tushuntiring:

$$\begin{aligned}200 + x &= 500 \\x &= 500 - 200 \\x &= 300 \\200 + 300 &= 500 \\500 &= 500\end{aligned}$$



Noma'lum qo'shiluvchini topish uchun yig'indidan ma'lum qo'shiluvchini ayirish kerak.

2. $89 + x = 663$ $51 + (30 + x) = 800$
 $76 + x = 982$ $(88 + x) + 93 = 976$



3. Tenglama tuzing va uni yeching:

Noma'lum son bilan 1 260 va 396 sonlari yig'indisi 7 834 ga teng;

4. Rasmga mos tenglama tuzing va uni yeching.



a



b



5. Tomonining uzunligi 6 sm bo'lgan kvadrat chizing va uning perimetrini toping.



6. Sabzavot omborida 548 t lavlagi bor edi. Uning bir qismi olib ketilgandan keyin omborda 339 t lavlagi qoldi. Qancha lavlagi olib ketilgan?



7. Agar noma'lum songa 1 963 va 875 sonlarining ayirma-sini qo'shsak, 2 007 hosil bo'ladi. Noma'lum sonni toping.



8. $145 + x = 214$ $x + (718 - 513) = 987$
 $x + 219 = 1700$ $(x + 457) + 2700 = 7321$



41. Tenglamalar. Noma'lum kamayuvchini topish

1. Tenglamalarning yechilishini tushuntiring:

$$\begin{aligned} \text{a) } x - 2798 &= 367 \\ x &= 367 + 2798 \\ x &= 3165 \\ 3165 - 2797 &= 367 \\ 367 &= 367 \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} \text{b) } x - 666 &= 7445 \\ x &= 7445 + 666 \\ x &= 8111 \\ 8111 - 666 &= 7445 \\ 7445 &= 7445 \end{aligned}$$

Noma'lum kamayuvchini topish uchun ayirmaga ayriluvchini qo'shish kerak.



$$\begin{array}{ll} \text{2. } x - 178 = 4369 & x - 6810 = 8273 \\ x - 4101 = 909 & x - 8002 = 6434 \end{array}$$

3. Qaysi sondan 264 ayrlisa, 335 hosil bo'ladi?

$$\begin{array}{ccccccc} \text{4. } & \begin{array}{c} 6200 \\ \vdots \\ 100 \end{array} & \xrightarrow{\cdot} & \begin{array}{c} 10 \\ \vdots \\ 380 \end{array} & \xrightarrow{+} & ? \end{array}$$

$$\begin{array}{ll} \text{5. } 35\,124 + 6\,487 & \star 40\,001 + 1\,538 \\ 647\,000 - 425\,843 & \star 672\,193 - 350\,101 \\ 471\,906 + 358\,199 & \star 640\,073 + 189\,058 \end{array}$$

6. Bitta stul necha so'm?
Bitta stol necha so'm?



35 500 so'm

48 500 so'm

$$\begin{array}{ll} \text{7. } x - 5\,041 = 3\,269 & x + 552 = 5\,143 - 1\,358 \\ 16\,976 - x = 9\,814 & 18\,125 + x = 97\,320 - 149 \end{array}$$

8. Uchburchakning bir tomoni 7 sm, ikkinchisi 8 sm. Uning perimetri 24 sm bo'lsa, uchinchi tomon uzunligini toping.





42. Tenglamalar. Noma'lum ayrıluvchini topish

1. Tenglamalarning yechilishini tushuntiring:

$$\begin{aligned} a) 6178 - x &= 365 \\ x &= 6178 - 365 \\ x &= 5813 \\ 6178 - 5813 &= 365 \\ 365 &= 365 \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} b) 7911 - x &= 4346 \\ x &= 7911 - 4346 \\ x &= 3565 \\ 7911 - 3565 &= 4346 \\ 4346 &= 4346 \end{aligned}$$

Noma'lum ayrıluvchini topish uchun kamayuvchidan ayrimani ayirish kerak.




$$\begin{array}{ll} 2. 687 - x = 243 & 97\,685 - x = 3\,256 \\ 3652 - x = 718 & 56\,214 - x = 18\,716 \end{array}$$

3. Masalani tenglama tuzib yeching:

Jamshidning 1 200 so'm puli bor edi. U bitta shokolad sotib olganidan so'ng unda 450 so'm pul qoldi. Shokolad necha so'm turadi?

4. "Velosiped poygasi".



5. Do'konda uch kun davomida 1 248 kg un sotildi. Birinchi kuni 236 kg, ikkinchi kuni undan 3 marta ko'p un sotildi. Do'konda uchinchi kuni qancha un sotilgan?

6. Filning massasi 3 tonna. Jirafaning massasi 980 kg. Jirafaning massasi filning massasidan qancha kam?

$$\begin{array}{ll} 7. 526\,500 - x = 364\,254 & (248 + x) - 362 = 567 \\ 985\,600 - x = 438\,565 & (x + 456) - 514 = 850 \end{array}$$





43.

Mustahkamlash uchun mashqlar

1. $(258 + 921) : 3 \star 258 + 921 : 3$
 $3\ 470 - 2\ 055 : 5 \star (3\ 470 - 2\ 055) : 5$
 $7\ 528 - 3\ 056 : 4 \star (7\ 528 - 3\ 056) : 4$

2. Samarqand shahrida o'tkaziladigan "Sharq taronalari" festivaliga 5 650 ta mehmon keldi. Birinchi mehmonxonaga 2 180 kishi, ikkinchi mehmonxonaga undan 2 marta kam, uchinchi mehmonxonaga esa qolgan mehmonlar joylashdi. Uchinchi mehmonxonaga necha kishi joylashgan?



3. $600 + 400 : 2 : 2 : 3 : 5$
 $5\ 000 - 3\ 000 + 500 - 1\ 000 : 5 : 2$



4. $(x + 18\ 342) - 25\ 706 = 46\ 596$
 $428\ 000 - (x + 28\ 234) = 243\ 146$

5. Maktabda 1 576 nafar o'g'il bola va 1 139 nafar qiz bola o'qiydi. Shunday savol qo'ying-ki, masala ayirish amali yordamida yechilsin.

6. $465\ 475 + 36\ 874$ $968\ 741 - 436\ 547$
 $526\ 478 + 25\ 614$ $845\ 625 - 562\ 147$

7. Mashinada bir xil bidonlarda 448 litr sut keltirildi. 10 ta bidondagi sut tushirilgandan keyin mashinada 128 litr sut goldi. Bitta bidonga necha litr sut solingan?

8. $x + 255\ 410 = 800\ 254$
 $x - 413\ 001 = 298\ 001$



44.

Uzunlik



1 sm = 10 mm;
 1 dm = 10 sm;
 1 m = 10 dm;
 1 km = 1 000 m

Kattaliklar ustida amallarni quyidagi tartibda bajarish mumkin:

- 1) kattaliklar bir xil o'lchov birligida ifodalanadi;
- 2) amallar sonlardagi kabi bajariladi.



1. $2000 \text{ sm} = \square \text{ m}$	$5 \text{ km } 600 \text{ m} = \square \text{ m}$
$23 \text{ km} = \square \text{ m}$	$6 \text{ m } 3 \text{ dm} = \square \text{ sm}$
2. $18 \text{ m} + 40 \text{ sm}$	$16 \text{ dm} + 26 \text{ sm}$
$4 \text{ km} + 350 \text{ m}$	$22 \text{ m} + 100 \text{ mm}$



Ikkala o'ramda hammasi bo'lib qancha gazlama borligini topamiz:



263 m 85 sm



48 m 95 sm

2	6	3	8	5
4	8	9	5	
3	1	2	8	0

Yechilishi: 1) $263 \text{ m } 85 \text{ sm} = 26\ 385 \text{ sm}$

$$48 \text{ m } 95 \text{ sm} = 4\ 895 \text{ sm}$$

$$2) 26\ 385 + 4\ 895 = 31\ 280$$

$$31\ 280 \text{ sm} = 312 \text{ m } 80 \text{ sm}$$

Javob: 312 m 80 sm.

3. Qo'shishni ustun usulida bajaring:

$$28 \text{ sm } 9 \text{ mm} + 39 \text{ sm } 7 \text{ mm}$$

$$75 \text{ dm } 8 \text{ sm} + 39 \text{ dm } 6 \text{ sm}$$

$$467 \text{ m } 9 \text{ sm} + 7 \text{ m } 48 \text{ sm}$$

$$9 \text{ km } 745 \text{ m} + 3 \text{ km } 845 \text{ m}$$

Namuna:

6 dm	9 sm
28 dm	7 sm
$\underline{35 \text{ dm}}$	
6 sm	

4. Birinchi brigada $5 \text{ km } 60 \text{ m}$, ikkinchi brigada undan $2 \text{ km } 280 \text{ m}$ ortiq yo'lga asfalt yotqizdi. Bu ikki brigada hammasi bo'lib qanday uzunlikdagi yo'lga asfalt yotqizgan?

5. $7 \text{ km } 3 \text{ m} \star 70\,000 \text{ m}$ $6 \text{ m } 23 \text{ sm} \star 52 \text{ dm } 8 \text{ sm}$

 $25 \text{ dm} \star 2 \text{ m } 5 \text{ dm}$ $7 \text{ m } 6 \text{ sm} \star 7 \text{ m } 5 \text{ dm}$
 $3 \text{ km } 150 \text{ m} \star 3\,105 \text{ m}$ $28 \text{ dm } 9 \text{ sm} \star 289 \text{ sm}$

6. AB kesma CD kesmadan qancha uzun?



7. $267 \cdot 3 - 753$ $459 : 9 \cdot 7$ $17\,870 - 428 \cdot 2 + 34$
 $388 \cdot 2 - 605$ $497 : 7 \cdot 8$ $68\,400 - 174 \cdot 2 + 53$

8. $x + 212\,100 = 952\,050$

$$x - 365\,874 = 510\,246$$

$$862\,545 - x = 478\,379$$



9. 2007- yil 14- aprel kuni ham-yurtimiz Ruslan Chagayev Rossiyalik bokschi Nikolay Valuyev ustidan g'alaba qozonib, jahon championi bo'ldi. Ruslan bilan Nikolayning: a) bo'yisi; b) massasi orasidagi farqni toping.

Ruslan
Chagayev

Bo'yisi: 185 sm
Massasi: 104 kg

Nikolay
Valuyev

Bo'yisi: 213 sm
Massasi: 145 kg



45.

Uzunlik



Rasmdagi ikki qavatli uyning
balandligini topamiz:

$$1) 9 \text{ m } 40 \text{ sm} = 940 \text{ sm}$$

$$2 \text{ m } 80 \text{ sm} = 280 \text{ sm}$$

$$2) 940 - 280 = 660$$

$$3) 660 \text{ sm} = 6 \text{ m } 60 \text{ sm}.$$

Javob: 6 m 60 sm.



$$1. 75 \text{ m } 86 \text{ sm} - 39 \text{ m} \quad 35 \text{ km } 820 \text{ m} - 7 \text{ km } 900 \text{ m}$$

$$12 \text{ km } 20 \text{ m} - 8 \text{ km} \quad 456 \text{ m } 62 \text{ sm} - 328 \text{ m } 97 \text{ sm}$$

2. Terakning bo'yi 7 m 90 sm, archaning bo'yi 5 m 95 sm.
Terak archadan qancha baland?

$$3. 89 \star 5 = 42 \star 2 \quad 72 \star 8 = 8 \star 1$$

$$18 \star 6 = 60 \star 48 \quad 96 \star 6 = 64 \star 4$$

4. Tikuvchida 4 m 50 sm gazlama bor edi. U ko'ylik uchun
2 m 85 sm gazlamani ishlatdi. Qancha gazlama qoldi?

$$5. \begin{array}{ccccc} 9847 & + & 2553 & : & 10 \\ \text{---} & & \text{---} & & \text{---} \\ 10 & & & & 1059 \\ & & & & - \\ & & & & 4 \\ & & & & = \\ & & & & ? \end{array}$$

$$6. 2 \text{ km } 500 \text{ m} \star 4300 \text{ m} \quad 6 \text{ km } 100 \text{ m} \star 6010 \text{ m}$$

$$8 \text{ km } 250 \text{ m} \star 8025 \text{ m} \quad 4 \text{ km } 25 \text{ m} \star 4025 \text{ m}$$



7. Uchburchakning tomonlari 2 dm 9 sm, 1 dm 8 sm va
3 dm 6 sm. Uchburchakning perimetrini toping.



$$8. 40 \cdot 9 - 300$$

$$530 - 80 \cdot 5$$

$$560 : 7 \cdot 6$$

$$630 : 9 \cdot 5$$

$$90 \cdot 4 : 3$$

$$60 \cdot 8 : 4$$



46.

Massa



$1 \text{ kg} = 1\,000 \text{ g}$

$1 \text{ sr} = 100 \text{ kg}$

$1 \text{ t} = 1\,000 \text{ kg}$


$1 \text{ t} = 10 \text{ sr}$



1 sentner



1 tonna



3 tonna

1. $5 \text{ sr} = \square \text{ kg}$

$7\,000 \text{ sr} = \square \text{ t}$

$4 \text{ sr } 32 \text{ kg} = \square \text{ kg}$

$4\,000 \text{ sr} = \square \text{ t}$

$8\,000 \text{ kg} = \square \text{ t}$



$25\,186 \text{ kg} = \square \text{ t } \square \text{ kg}$

$9\,000 \text{ kg} = \square \text{ sr}$

$8 \text{ t } 3 \text{ sr} = \square \text{ kg}$



Tarvuz va olmalarning umumiy massasini topamiz:



1) $3 \text{ kg } 250 \text{ g} = 3\,250 \text{ g}$

$4 \text{ kg } 550 \text{ g} = 4\,550 \text{ g}$

2) $3\,250 + 4\,550 = 7\,800$

3) $7\,800 \text{ g} = 7 \text{ kg } 800 \text{ g}$

Javob: 7 kg 800 g

2. Teng miqdorlarni toping:

1) 8 sr 4) 12 sr

7) 600 kg

10) 3 000 kg

2) 5 sr 5) 6 sr

8) 800 kg

11) 1 200 kg

3) 13 t 6) 3 t

9) 130 sr

12) 500 kg

3. "Sirli sandiq".

- 1- guruhga: qizil katakdagi miqdorlarni — sentnerlarda;
 2- guruhga: ko'k katakdagi miqdorlarni — tonnalarda;
 3- guruhga: yashil katakdagi miqdorlarni — grammlarda;
 4- guruhga: sariq katakdagi miqdorlarni — kilogrammlarda ifodalash topshiriladi.

Qaysi guruh bu miqdorlarning yig'indisini birinchi bo'lib to'g'ri topsa, o'sha guruh oltin kalit sohibi bo'ladi.

500 kg	4 sr 50 kg	200 kg	1 t
6000 kg	4 kg	20 sr	5 kg 400g
300 kg	50 sr	2 kg 20 g	3 sr 5 kg
1 kg 400g	3 t 10 sr	2 t	500 sr



4. Namunaga ko'ra hisoblang:

$$15 \text{ kg } 129 \text{ g} + 2 \text{ kg } 470 \text{ g}$$

$$317 \text{ kg } 439 \text{ g} + 23 \text{ kg } 382 \text{ g}$$

$$4 \text{ t } 618 \text{ kg} + 2 \text{ t } 400 \text{ kg}$$

$$7 \text{ t } 817 \text{ kg} + 1 \text{ t } 600 \text{ kg}$$

Namuna:

$$\begin{array}{r}
 + 17 \text{ kg } 130 \text{ g} \\
 3 \text{ kg } 380 \text{ g} \\
 \hline
 20 \text{ kg } 510 \text{ g}
 \end{array}$$

5. Xirmonga birinchi paxta terish mashinasi 8 sr 56 kg, ikkinchi mashina esa 7 sr 32 kg paxta to'kdi. Xirmonga ikkala mashina qancha paxta to'kkani?

6. Uchta ekin maydonidan 4 t kartoshka hosili olindi. Birinchi ekin maydonidan 860 kg, ikkinchi ekin maydonidan birinchisiga qaraganda 2 marta ko'p kartoshka olindi. Uchinchi ekin maydonidan qancha hosil olingan?

7. $(17\ 487 + 12\ 665) - x = 15\ 044$

$$(x + 59\ 526) - 58\ 764 = 176$$

8. Ertalab do'konda 17 t 280 kg un bor edi. Kechqurun 6 t 60 kg un qoldi. Necha kilogramm un sotilgan?





47.

Massa

1. Tarozining chap pallasida-gi toshning massasini toping?



2. $x - 34 = 48 : 3$

$$640 - x = 180 + 120$$

$$750 - x = 19 \cdot 7$$

$$x - 640 = 180 + 120$$

$$88 + x = 98 \cdot 3$$

$$x - 640 = 180 - 120$$

3. Baliqchilik xo'jaligi bir yilda 30 000 kg baliq yetishtirishni mo'ljalladi. Xo'jalik yil davomida 30 290 kg baliq yetishtirdi. Xo'jalik mo'ljaldan qancha ortiq baliq yetishtirgan?

4. Kattaliklarni o'sib borish tartibida joylashtiring:

a) 4 t, 80 sr, 5 t, 3 sr 15 kg, 2 t 7 sr;

b) 8 sr, 5 t 75 kg, 7 t 10 kg, 7 009 kg, 6 t 5 sr;

d) 200 sm, 15 dm, 9 dm 9 sm, 750 sm, 6 m 44 sm;

e) 2 km, 4 km 20 m, 4 km 12 m, 15 km, 1 000 m.


5. $817 \star 9 \star 72 = 880$

$$2689 \star 965 \star 154 = 3808$$

$912 \star 8 \star 36 = 884$

$$7009 \star 999 \star 364 = 5646$$

6. Ikkinci qopdagagi un birinchi qopdagagi undan qancha yengil?



$$68 \text{ kg } 400 \text{ g}$$

7. $12 \text{ kg} - 6 \text{ kg } 287 \text{ g}$

$$8 \text{ t } - 4 \text{ t } 290 \text{ kg}$$

$$29 \text{ kg} - 5 \text{ kg } 26 \text{ g}$$

$$6 \text{ t } 249 \text{ kg} - 973 \text{ kg}$$

8. Perimetri 18 sm bo'lgan uchta turli to'g'ri to'rtburchak chizing. Ularning tomonlari uzunliklarini yozing.



48.

Vaqt



$$1 \text{ minut} = 60 \text{ sekund}$$

$$1 \text{ soat} = 60 \text{ minut}$$

$$1 \text{ sutka} = 24 \text{ soat}$$

$$1 \text{ hafta} = 7 \text{ sutka}$$

$$1 \text{ yil} = 12 \text{ oy}$$

$$1 \text{ asr} = 100 \text{ yil}$$

Minutlarda berilgan vaqt ni soat va minutlarda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$115 \text{ min} = 60 \text{ min} + 55 \text{ min} = 1 \text{ soat } 55 \text{ min}.$$

Misollarning yechilishiga e'tibor bering:

$$\text{a) } 55 \text{ min} + 25 \text{ min} + 15 \text{ min} = 95 \text{ min} =$$

$$= 60 \text{ min} + 35 \text{ min} = 1 \text{ soat } 35 \text{ min}$$

$$\text{b) } \begin{array}{r} 5 \text{ soat } 45 \text{ min} \\ + 4 \text{ soat } 35 \text{ min} \\ \hline 10 \text{ soat } 20 \text{ min} \end{array}$$

$$\text{Bu yerda } 45 \text{ min} + 35 \text{ min} = 80 \text{ min} = 1 \text{ soat } 20 \text{ min}.$$

1. Soat va minutlarda ifodalang:

$$75 \text{ min} \quad 100 \text{ min} \quad 123 \text{ min}$$

$$184 \text{ min} \quad 200 \text{ min} \quad 340 \text{ min}$$

$$2. \quad 15 \text{ min} + 20 \text{ min} + 25 \text{ min}$$

$$45 \text{ min} + 35 \text{ min} + 40 \text{ min}$$

$$26 \text{ min} + 59 \text{ min} + 12 \text{ min}$$






3. Qo'shishni bajaring va tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 2 \text{ soat } 25 \text{ min} \\ + 2 \text{ soat } 17 \text{ min} \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 2 \text{ soat } 36 \text{ min} \\ + 4 \text{ soat } 48 \text{ min} \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 2 \text{ soat } 25 \text{ min} \\ + 2 \text{ soat } 17 \text{ min} \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 2 \text{ soat } 36 \text{ min} \\ + 4 \text{ soat } 48 \text{ min} \\ \hline \end{array}$$



4. Soatlar ko'ssatayotgan vaqtlar orasidagi farqni aniqlang:



5. Qavslarni shunday qo'ying-ki, natijada tenglik to'g'ri bo'lsin:
- $$810 - 210 + 160 = 440 \quad 2\,400 - 400 + 500 = 1\,500$$
- $$954 - 100 + 54 = 800 \quad 9\,700 - 9\,000 + 100 = 600$$

6. Jadvalni to'ldirning:

Qo'shiluvchi	236		56 879	
Qo'shiluvchi		2 547	12 587	31 248
Yig'indi	897	9 847		96 578

7. Rahimjon dam olish uchun anhor bo'yiga bordi. U 1 soat 55 minut vaqtini baliq ovlash uchun va 1 soat 25 minut vaqtini cho'milish uchun sarfladi. Rahimjon dam olish uchun qancha vaqt sarflagan?

8. O'quvchilar bo'yisi 80 m, eni 50 m bo'lgan to'g'ri to'rtbur-chak shaklidagi yer maydonini panjara bilan o'rashdi. Panjaraning uzunligini toping.

9.

2 soat 50 min	+	6 soat 30 min
---------------	---	---------------

5 soat 55 min	+	3 soat 48 min
---------------	---	---------------

**49.****Vaqt**

1. Misollarning yechilishini tushuntiring:
- a) 1 soat 15 min – 35 min = 75 min – 35 min = 40 min
- b)
- | | | |
|----------------------|---|----------------------|
| – 4 soat 15 min | → | – 3 soat 75 min |
| <u>1 soat 30 min</u> | | <u>1 soat 30 min</u> |
| <u>2 soat 45 min</u> | | |
2. 1 soat 10 min – 15 min = □ min – 15 min = □ min
 1 soat 20 min – 35 min = □ min – 35 min = □ min
 1 soat 14 min – 26 min = □ min – 26 min = □ min
- 3.
- | | |
|----------------------|----------------------|
| – 3 soat 45 min | – 4 soat 45 min |
| <u>1 soat 15 min</u> | <u>2 soat 55 min</u> |
4. Umidning otasi bir oyda 142 500 soʻm, oyisi esa 118 240 soʻm daromad qildi. Umidning ota-onasi birgalikda bu oyda qancha daromad qilishgan?
5. Zanjirdagi vaqtlardan qaysi biri “begona”.



6. $(130\ 502 - 72\ 774) : 2 + 29\ 357$
 $156\ 008 + (50\ 409 - 24\ 389) \cdot 2$

7. Amallarni bajaring va natijaning toʼgʼriligini tekshiring:

$\begin{array}{r} 47\ 784 \\ + 5\ 473 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 56\ 965 \\ + 34\ 423 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 567\ 965 \\ - 10\ 423 \\ \hline \end{array}$
--	---	--

8. Sayohatchi 2 soat yoʼl yurdi. U bu vaqtning 16 minutini daryordan oʼtish uchun, qolgan qismini esa qirdan oshish uchun sarfladi. U qirdan oshish uchun qancha vaqt sarflagan?






50.

Mustahkamlash uchun mashqlar

- Shanba kuni Dono 1 soat 45 minut, yakshanba kuni esa 2 soat 25 minut dars qildi. Dono ikki kun davomida necha soat dars qilgan?
- $13 \text{ m } 78 \text{ sm} + 54 \text{ sm}$ $9 \text{ m } 38 \text{ sm} - 6 \text{ m } 75 \text{ sm}$
 $5 \text{ km } 300 \text{ m} - 458 \text{ m}$ $3 \text{ km } 608 \text{ m} + 950 \text{ m}$
- Ikki shahar orasidagi masofani mototsiklchi 35 minutda, velosipedchi esa 3 soat 10 minutda bosib o'tdi. Velosipedchi mototsiklchiga qaraganda qancha ko'p vaqt sarflagan?
- $9\ 200 - (4\ 300 - x) = 6\ 800$ $9\ 233 + (x - 4\ 852) = 16\ 070$
- $9 \text{ sr } 6 \text{ kg} \star 9\ 006 \text{ kg}$ $5 \text{ km } 40 \text{ m} \star 5\ 040 \text{ m}$
 $8 \text{ t } 3 \text{ sr} \star 8\ 030 \text{ kg}$ $8 \text{ km } 35 \text{ m} \star 8\ 035 \text{ sm}$
- Fermer xo'jaligi do'konlarga jami necha tonna sabzavot jo'natgan?



- Ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini toping:
 - 208 400 bilan 18 000 va 9 762 sonlari yig'indisining ayirmasi;
 - 720 048 va 97 256 sonlari ayirmasi bilan 316 809 va 250 249 sonlari ayirmasining yig'indisi.
- To'g'ri to'rburchak shaklidagi maydonning eni 84 m 7 dm bo'lib, bo'yidan 6 m kam. Shu maydonning perimetrini toping.

III bo'limga doir qo'shimcha misol va masalalar

1. 45-betdagи rasmda berilgan topshiriqlarni bajaring:
 - Ayiqpolvonning necha kilogramm asali bor?
 - Yashiringan raqamlarni toping.
 - 1 santimetrnи 1 metr deb olib, chizg'ich yordamida jirafaning bo'yini o'lchang.
 - Karam necha kilogramm?
 - Rebusni yeching. Bunda bir xil harflarga bir xil raqamlar, har xil harflarga har xil raqamlar mos keladi.
2. Omborda 540 sr sabzi bor edi. 9 ta mashinaga bir xil miqdorda sabzi ortilib, olib ketilgandan keyin omborda 360 sr sabzi qoldi. Har bir mashinaga qanchadan sabzi ortilgan?
3. Alisher uyidan bekatga borish uchun qancha vaqt yurgan?



$$\begin{array}{r}
 4. \quad 800\,000 \quad \quad 13\,275 \quad \quad 243\,496 \quad \quad 362\,320 \\
 + \quad 20\,572 \quad \quad + \quad 31\,514 \quad \quad - \quad 172\,407 \quad \quad - \quad 251\,905 \\
 \hline
 \end{array}$$

5. Qiymati bir xil bo'lgan ifodalarni aniqlang:

1) 96 : 6	3) 65 : 5	5) 77 : 7	7) 39 : 3
2) 48 : 3	4) 72 : 6	6) 84 : 7	8) 88 : 8
6. $240 + 90 \cdot 3 - 300$ $700 - 270 : (9 : 3) + 300$
 $720 - 80 \cdot 7 + 928$ $640 : 8 + 490 : 7 + 350$

7. Katakchalar o'rniغا 240 soni qo'yilganda to'g'ri bo'ladijan tengliklarni aniqlang:

$$1\ 000 - 520 = 2 \cdot \square \quad \square \cdot 3 < 500$$

$$\square + \square = \square \cdot 3 \quad \square \cdot 4 < 1\ 000$$

$$15 \cdot 8 = \square : 2 \quad 5 \cdot \square > 1\ 100$$



8. Mamlakatimiz qachon mustaqillikka erishgan? Bu yil mustaqillikka erishganimizga necha yil bo'lganini ayirish amali yordamida toping.

9. Fermada 322 ta tovuq, 143 ta o'rdak va 248 ta g'oz bor. Bir haftada bitta tovuqqa 3 kg, bitta o'rdakka 5 kg, bitta g'ozga 4 kg don kerak bo'ladi. Barcha parrandalar uchun bir haftada qancha don sarflanadi?

10. Tenglikni yozing va uning to'g'riligini tekshiring:
9 va 3 028 ning ko'paytmasi 9 388 va 17 864 ning yig'inidisiga teng.

11. Jadvalni to'ldiring:

Qo'shiluvchi	274 385	487 623	
Qo'shiluvchi	365 789		32 415
Yig'indi		624 871	812 457

12. Qavslarni shunday qo'ying-ki, natijada tenglik to'g'ri bo'lsin:

$$360 + 240 : 4 + 2 = 152 \quad 360 + 240 : 4 + 2 = 400$$

$$360 + 240 : 4 + 2 = 100 \quad 360 + 240 : 4 + 2 = 422$$

13. $x + 625\ 000 = 965\ 000$ $521\ 400 + x = 612\ 400$

$$x - 83\ 210 = 408\ 740 \quad x - 436\ 547 = 31\ 254$$


14. Otabek 7 soat 25 minut, uning singlisi 9 soat 15 minut uxladi. Singlisi Otabekdan qancha ko'p uxlagan?

$$15. \begin{array}{r} 3 \text{ kg } 290 \text{ g} \\ + 2 \text{ kg } 860 \text{ g} \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 8 \text{ sr } 990 \text{ kg} \\ + 15 \text{ sr } 80 \text{ kg} \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 12 \text{ t } 760 \text{ kg} \\ + 29 \text{ t } 240 \text{ kg} \\ \hline \end{array}$$

16. Ishchi har kuni 8 soat ishlaydi. Agar u bir haftada 5 kun ishlasa, hafta davomida necha soat ishlaydi?
17. Jadvalni to'ldiring:

Kamayuvchi	865 472	925 687	
Ayrluvchi	365 789		32 415
Ayirma		624 871	812 457

18.  15 kg 900 g \star 16 400 g
 24 t 400 kg \star 23 600 kg
 25 km 687 m \star 25 678 m
 38 m 3 sm \star 380 dm 3 sm



19.  Kesma chizing va shu kesmadan 4 marta uzun kesmani yasang.

 9 990 \star 900 \star 99 = 8 991
 8 888 \star 880 \star 88 = 9 680
 7 770 \star 700 \star 77 = 6 993

21. Quruvchi birinchi kuni 1130 ta, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 180 ta ortiq g'isht terdi. Quruvchi shu ikki kunda nechta g'isht tergan?

22. Qoldiqli bo'llishni bajaring:

$$318 : 5 \quad 412 : 3 \quad 528 : 7 \quad 625 : 4$$

23. Bo'yи 12 dm 7 sm, eni 10 dm 9 sm bo'lgan to'g'ri to'rtbur-chakning perimetрini toping.

IV BO'LIM

KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

a)

$$4\ 320$$

$$\div \downarrow 3$$

-

$$\downarrow + 6\ 912$$

:

$$\downarrow 8$$

=

$$\downarrow ?$$



b) $1\ 008 \text{ km} : 9 \text{ soat} = ? \text{ km/soat}$

d) $\text{MATE} \cdot \text{M} = \text{ATIKA}$




51.

Ko'paytirish



Nechta qalam bor?



ko'paytuvchi

$$5 \cdot 4 = 20$$

ko'paytma



Qalamlar sonini ikki usulda hisoblash mumkin:

1-usul: $4 + 4 + 4 + 4 + 4 = 20$; **2-usul:** $5 \cdot 4 = 20$.

Demak, ikkita sonning ko'paytmasini bir xil qo'shiluvchilarning yig'indisi deb hisoblanadi:

$$5 \cdot 4 = 4 + 4 + 4 + 4 + 4 = 20$$
.

1. $14 \cdot 2$ $12 \cdot 3$ $132 \cdot 4$ $185 \cdot 5$
 $15 \cdot 3$ $11 \cdot 6$ $122 \cdot 3$ $203 \cdot 4$

2. Uchta yuk mashinasining har biriga 895 tadan tarvuz ortildi. Uchta yuk mashinasiga jami qancha tarvuz ortilgan?

3. Bog'bon 336 kg nok va undan 2 marta ortiq olma terdi. Bog'bon hammasi bo'lib necha kilogramm meva tergan?

4. $134 \cdot 2 \star 267$ $500 \star 145 \cdot 3$ $155 \cdot 4 \star 165 \cdot 3$
 $243 \cdot 3 \star 730$ $756 \star 215 \cdot 3$ $312 \cdot 2 \star 213 \cdot 3$

5. Kombaynchi kuniga 147 sr dan 5 kun, kuniga 153 sr dan 4 kun bug'doy yig'ib oldi. Kombaynchi to'qqiz kunda qancha bug'doy yig'ib olgan?

6. $(2\ 000 - 1\ 815) \cdot 6$ $8\ 000 - (4\ 536 + 165 \cdot 3)$
 $247 \cdot 4 + 1\ 329$ $1\ 235 + (8\ 100 - 166 \cdot 5)$

7. Tomonining uzunligi 125 mm bo'lgan kvadratning perimetri necha santimetr bo'ladi?



52.

Sonni yig'indiga ko'paytirish



Barcha to'plar sonini ikki xil usulda hisoblash mumkin:



1-usul: Qatorlar soni 3 ni har bir qatordagi to'plar soni ($4 + 3$) ga ko'paytirish:

$$3 \cdot (4 + 3) = 3 \cdot 7 = 21$$

2-usul: Oldin qizil to'plar ($3 \cdot 4 = 12$), so'ng ko'k to'plar sonini ($3 \cdot 3 = 9$) topib, keyin ular yig'indisini hisoblash:

$$3 \cdot 4 + 3 \cdot 3 = 12 + 9 = 21$$

Demak, yig'indini songa quyidagi usullar bilan ko'paytirish mumkin:

- 1) yig'indini hisoblab, so'ng uni songa ko'paytirish;
- 2) har bir qo'shiluvchini songa ko'paytirib, so'ng hosil bo'lgan ko'paytmalarni qo'shish.

1.	$14 \cdot (2 + 3)$	$(75 + 42) \cdot 2$	$4 \cdot (162 + 238)$
	$25 \cdot (5 + 2)$	$(24 + 58) \cdot 3$	$5 \cdot (440 + 660)$

2. Qulay usul bilan hisoblang:

$$27 \cdot 36 + 27 \cdot 64 = 32 \cdot 250 + 68 \cdot 250$$

Namuna: $41 \cdot 33 + 41 \cdot 67 = 41 \cdot (33 + 67) = 41 \cdot 100 = 4100$

3. Uchburchaklar sonini turli usullarda hisoblang:



4.	$485 \cdot 1$	$0 \cdot 4263$	$1203 \cdot 1$	$12843 \cdot 0$
----	---------------	----------------	----------------	-----------------


5. To'plarning nechtaligini ikki usulda hisoblang.



$3 \cdot 6 = 6 \cdot 3$
ko'paytuvchi
larning o'rnlari
ni almashtirgan
da ko'paytma
o'zgarmaydi.



6. Ikkita yuk mashinasi bir ombordan bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishda yo'lga chiqdi. 4 soatdan so'ng bu mashinalar orasidagi masofa qancha bo'ladi?



7. Amallarni bajaring va natijani tekshiring:

$$\begin{array}{r} 564\,712 \\ + 259\,841 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 401\,526 \\ + 463\,867 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 633\,912 \\ + 345\,894 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 816\,012 \\ - 459\,324 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 840\,243 \\ - 439\,192 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 674\,816 \\ - 395\,319 \\ \hline \end{array}$$

8.	$(2 + 3) \cdot 333$	$2 \cdot (468 + 222)$	$5 \cdot 485 + 5 \cdot 115$
	$(4 + 8) \cdot 225$	$3 \cdot (500 + 318)$	$6 \cdot 333 + 6 \cdot 667$

9. Uchburchakning bir tomoni 14 dm ga teng bo'lib, ikkinchi tomoni birinchi tomondan ikki marta uzun. Agar uchburchakning perimetri 64 dm bo'lsa, uning uchinchi tomoni uzunligini toping.





53.

Ustun shaklida ko'paytirish usuli

1. $576 \cdot 9$ ko'paytma qanday bajarilganligini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} \times 576 \\ 9 \\ \hline 54 \\ + 630 \\ \hline 5184 \end{array}$$

6 · 9
 70 · 9
 500 · 9
 576 · 9

2. $\begin{array}{r} \times 206 \\ 5 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} \times 124 \\ 8 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} \times 486 \\ 2 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} \times 321 \\ 3 \\ \hline \end{array}$

3. 596 va 5 sonlari ko'paytmasi bilan 936 va 6 sonlari ko'paytmasining yig'indisini toping.
4. Rasmga ko'r'a masala tuzing va uni yeching:



275 000 so'm



20 000 so'm



5. Yugurish maydoni to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uning bo'yи 40 m, eni 10 m. Oybek bu maydonni yugurib 3 marta aylanib chiqdi. U qancha masofaga yugurgan?

6. $345 \cdot 6 + 976 \cdot 8$ $70 \cdot 8 : 2 + (270 + 50)$
 $721 000 - 309 \cdot 3$ $(230 + 270) \cdot 2 - 1000$

7. Bitta sigirdan bir kunda 14 litr sut sog'ib olinadi. 10 ta shunday sigirdan 7 kunda necha litr sut sog'ib olinadi?

8. Qulay usul bilan hisoblang:

$16 \cdot 5 \cdot 2$

$5 \cdot 29 \cdot 2$

$244 \cdot 5 \cdot 2$

$25 \cdot 4 \cdot 5$

$48 \cdot 5 \cdot 2$

$2 \cdot 453 \cdot 5$



54.

Ustun shaklida ko'paytirish usuli

Ko'p xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish, uch xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish kabi bajariladi:

$$\begin{array}{r} 7291 \\ \times 3 \\ \hline 21873 \end{array}$$



Ko'paytirishda ustun qilib yozishni qisqartirish mumkin. Masalan, 172 ni 6 ga ko'paytiraylik:

1) 2 (birlik)ni 6 ga ko'paytirib, 12 (birlik)ni hosil qilamiz; bu 1 ta o'nlik va 2 ta birlik degani; 1 (o'nlik)ni (yoddan chiqmaslik uchun) 7 ning ustiga, 2 (birlik)ni esa 6 ning tagiga yozamiz.

$$\begin{array}{r} 41 \\ \times 172 \\ \hline 1032 \end{array}$$

2) 7 (o'nlik)ni 6 ga ko'paytirib, 42 (o'nlik) ni hosil qilamiz; yoddagi 1 (o'nlik) bilan 43 (o'nlik) bo'ladi; bu 4 ta yuzlik va 3 ta o'nlik degani; 4 (yuzlik)ni 1 ning ustiga yozamiz, 3 (o'nlik)ni 7 ning ostiga yozamiz.

3) 1 (yuzlik)ni 6 ga ko'paytirib, 6 (yuzlik)ni hosil qilamiz; unga 4 (yuzlik)ni qo'shamiz. Bu 10 ta yuzlik, yoki 1 ta minglik degani. Shunday qilib, natija 1032 ga teng bo'ladi.

1. $\begin{array}{r} 2312 \\ \times 3 \\ \hline \end{array}$

$\begin{array}{r} 1298 \\ \times 2 \\ \hline \end{array}$

$\begin{array}{r} 2914 \\ \times 3 \\ \hline \end{array}$

2. a) Novvoy bir kunda 1125 ta non yopadi. U bir haftada nechta non yopadi?
 b) Bir qutida 1423 ta tugma bor. Xuddi shunday 4 ta qutida nechta tugma bor?

3. Har bir yoritgichdan ikkitadan xarid qilish uchun necha so'm kerak bo'ladi?



6 200 so'm





4 800 so'm




3 500 so'm

4. Birinchi o'ramda 14 m 60 sm gazlama, ikkinchi o'ramda 15 m 80 sm gazlama bor. Ikkala o'ramda jami qancha gazlama bor?
5. Hosil bo'lgan yig'indidan berilgan sonni ayiring:



6. $671\ 974 - 126 : 6$ $27\ 412 \cdot 5 + 532 : 4$
 $465\ 902 + 3129 \cdot 7$ $56\ 794 \cdot 6 - 942 : 6$

7. Bitta cho'pni shunday oling-ki, natijada uchta kvadrat qolsin.



8. Xaridor 108 metrli gulsiz gazlama o'ramidan 6 ta, 112 metrli gulli gazlama o'ramidan 3 ta sotib oldi. Xaridor hammasi bo'lib necha metr gazlama xarid qilgan?

9.

$\begin{array}{r} 3\ 143 \\ \times \quad 2 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 2\ 752 \\ \times \quad 3 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 4\ 368 \\ \times \quad 4 \\ \hline \end{array}$
---	---	---




55.

Kattaliklarni songa ko'paytirish

Kattalikni songa ko'paytirish uchun avval kattalik bitta o'lchov birligida ifodalanadi, so'ng ko'paytirish sonlarni ko'paytirish kabi bajariladi.



1. Kattalikni songa qanday ko'paytirilganligini tushuntiring:
 $6 \text{ km } 258 \text{ m} \cdot 2 = ?$
 1) $6 \text{ km } 258 \text{ m} = 6\,258 \text{ m}$
 2) $6\,258 \cdot 2 = 12\,516$ 3) $12\,516 \text{ m} = 12 \text{ km } 516 \text{ m}$
2. $8 \text{ m } 25 \text{ sm} \cdot 4$ $8 \text{ sr } 20 \text{ kg} \cdot 3$ $3 \text{ t } 15 \text{ kg} \cdot 5$
3. Uchta paxta terish mashinasining har biri bir kunda $8 \text{ t } 370 \text{ kg}$ paxta terdi. Ular jami qancha paxta terishgan?
4. $x + 2\,322 = 4\,123$ $x - 3\,201 = 7\,999$
 $x + 8\,802 = 9\,101$ $x - 5\,493 = 4\,208$
5. Birinchi va to'rtinchi daraxt orasidagi masofani toping.



6. Sichqon 112 kun davomida har kuni iniga 6 tadan boshoq tashidi. U to'plangan boshoqning 224 tasini yedi. Sichqonning inida nechta boshoq qoldi?
7. Polizdan 5 408 dona tarvuz uzildi. Uzilgan qovunlar soni tarvuzlar sonidan 6 marta ortiq. Tarvuzlar soni qovunlar sonidan qancha kam?
8. $6 \text{ t } 45 \text{ kg} \cdot 3$ $7 \text{ m } 63 \text{ sm} \cdot 4$
 $5 \text{ sr } 65 \text{ kg} \cdot 6$ $45 \text{ m } 25 \text{ sm} \cdot 2$



56.

Mustahkamlash uchun mashqlar

1. Misollarning yechilishini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 1 \\ \times 307 \\ \hline 1842 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 1 \\ \times 20409 \\ \hline 81636 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 1 \\ \times 43008 \\ \hline 215040 \end{array}$$

2. Ko'paytirishni ustun shaklida yozib bajaring:

$$9082 \cdot 8$$

$$7020 \cdot 9$$

$$12005 \cdot 5$$

$$40918 \cdot 7$$

$$4036 \cdot 7$$

$$7002 \cdot 9$$

$$30704 \cdot 6$$

$$6904 \cdot 9$$

3. Rasmdagi oyoq kiyimlarini xarid qilish uchun jami necha so'm sarflash kerak?



4 750 so'm



3 marta qimmat

4. $2 \cdot x + 918 = 11266$

$$2 \cdot (x + 918) = 11266$$

5. $40876 - 6030 \cdot 5$

$$80703 \cdot 6 - 5007 \cdot 3$$

$$79121 + 5060 \cdot 4$$

$$16008 \cdot 3 + 8050 \cdot 4$$

6. Qishloqqa toza ichimlik suvi keltirish uchun 3 km 200 m quvur yotqizildi. Shundan keyin yana undan 2 marta uzun masofaga quvur yotqizish kerak. Qishloqqa suv keltirish uchun jami necha metr quvur yotqizilishi kerak bo'lgan?

7. Sayohat paytida birinchi avtobusga 48 ta, ikkinchi avtobusga birinchisiga qaraganda 6 ta kam sayohatchi o'tirdi. Ikka-la avtobusda odamlar soni teng bo'lishi uchun birinchi avtobusdan ikkinchisiga nechta sayohatchi o'tishi kerak?

8. $6 \cdot x = 666$

$$x \cdot 8 = 704$$

$$x \cdot 9 = 918$$

$$9 + x = 811$$

$$x + 5 = 781$$

$$x + 7 = 661$$



57. Nol bilan tugaydigan sonlarni ko'paytirish

1. Ko'paytirishlarning qanday bajarilganligini tushuntiring:



$$680 \cdot 8 = 68 \text{ o'nl.} \cdot 8 = (68 \cdot 8) \text{ o'nl.} = 544 \text{ o'nl.} = 5\,440.$$

$$7\,100 \cdot 4 = 71 \text{ yuzl.} \cdot 4 = (71 \cdot 4) \text{ yuzl.} = 284 \text{ yuzl.} = 28\,400.$$

$$\begin{array}{r} \times 750 \\ 3 \\ \hline 2250 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 2300 \\ 7 \\ \hline 16100 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 64000 \\ 4 \\ \hline 256000 \end{array}$$

2. $3\,200 \cdot 4$ $7\,200 \cdot 3$ $68\,000 \cdot 5$ $21\,200 \cdot 4$
 $3\,070 \cdot 6$ $4\,300 \cdot 7$ $40\,500 \cdot 2$ $70\,200 \cdot 5$

3. Agar "kalavaning uchini" topsangiz, sevimli ertak qahramonlaridan birining nomini bilib olasiz.

1 500 · 3 | I |

3 600 · 4 | O |

5 400 · 3 | Q |

30 200 · 3 | S |

3 800 · 2 | O' |


2 400 · 5 | B |

1 200 · 6 | R |

60 400 · 4 | G |

12 000	7 600	241 600	4 500	7 200	90 600	14 400	16 200

4. Rasmga ko'ra masala tuzing va uni yeching:



4 200 so'm

3 800 so'm

5. $532 : 4 + 600 \cdot 8$ $3\,500 \cdot 6 - 2\,700 \cdot 4$

6. 300 730 va 48 307 sonlari yig'indisiga 372 645 va 284 563 sonlari ayirmasini qo'shing.



7. Bitta daftар 450 so'm, bitta ruchka 250 so'm turadi. Sakizta daftар va o'nta ruchka uchun necha so'm to'lanaadi?



3 070 · 6

4 300 · 7

40 500 · 2

2 kg 80 g · 3

3 m 70 sm · 4

8 sr 90 kg · 8



58.

Mustahkamlash uchun mashqlar

$$\begin{array}{r} \times 316 \\ 4 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 2615 \\ 5 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 43\,216 \\ 2 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 71\,562 \\ 3 \\ \hline \end{array}$$

2. $x \cdot 5 = 715$
 $x \cdot 4 = 812$

$x : 3 = 6\,714$
 $x : 4 = 2\,448$

3. Atirgulning bo'yisi moychechakning bo'yidan qancha baland?



4. Sayohatchi 1 hafta sayohatda bo'ldi. U har kuni 6 soat davomida soatiga 12 km dan yo'l yurdi. U sayohat mobaynida necha kilometr yo'l yurgan?

$$\begin{array}{r} \times 3 \text{ m } 75 \text{ sm} \\ 2 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 7 \text{ sr } 19 \text{ kg} \\ 4 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 6 \text{ t } 5 \text{ sr } 42 \text{ kg} \\ 4 \\ \hline \end{array}$$


6. Rasmlar yordamida ushbu ifodalar niman anglatishini aniqlang:

$$350 \text{ kg} - 320 \text{ kg}$$

$$350 \text{ kg} - 50 \text{ kg}$$

$$350 \text{ kg} + 320 \text{ kg}$$

$$320 \text{ kg} + 50 \text{ kg}$$



7. Oralardagi masofa 846 km bo'lgan ikki shahardan bir vaqtida bir-biriga qarab ikki poyezd yo'lga chiqdi. Birinchi poyezd soatiga 48 km, ikkinchisi esa soatiga 56 km yurdi. 3 soatdan keyin ular orasidagi masofa qancha bo'ladi?

$$\begin{array}{r} \times 7\,041 \\ 3 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 78\,246 \\ 4 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 56\,230 \\ 5 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 82\,451 \\ 6 \\ \hline \end{array}$$



59.

Bo'lish



24 ta nok 4 ta likopchaga teng qilib taqsimlansa, har bir likopchada nechtadan nok bo'ladi?

Buni topish uchun 4 ni qaysi songa ko'paytirganda 24 hosil bo'lishini aniqlash kerak.

Bu son 6, chunki $4 \cdot 6 = 24$. Bu sonni topish amali **bo'lish** deb ataladi va u quyidagi tarzda ifodalanadi:

$$24 : 4 = 6$$

1) $24 : 4 = 6$ ifodada

24 — bo'linuvchi, 4 — bo'luvchi, 6 — bo'linma.

2) $35 : 5 = 7$, chunki $5 \cdot 7 = 35$.



Ustun shaklida bo'lish usulini tushuntiring:

$\begin{array}{r} 8 \\ \hline 6 \\ \\ 3 \\ \hline 2 \end{array}$	$\begin{array}{r} 8 \\ \hline 6 \\ \\ 3 \\ \hline 2 \end{array}$	$\begin{array}{r} 8 \\ \hline 6 \\ \\ 3 \\ \hline 2 \end{array}$	$\begin{array}{r} 8 \\ \hline 6 \\ \\ 3 \\ \hline 27 \end{array}$	$\begin{array}{r} 8 \\ \hline 6 \\ \\ 3 \\ \hline 27 \end{array}$
--	--	--	---	---

1. $48 : 4$ $484 : 4$ $386 : 2$

$65 : 5$ $846 : 2$ $984 : 8$

2. Tenglamani yeching va javobini tekshiring:

$$x + 6 = 300 \quad x - 285 = 30 \quad 720 - x = 187$$

$$42 \cdot x = 0 \quad x : 8 = 125 \quad 423 : x = 9$$

3. $872 : 4 \star 872 : 2$ $791 : 7 \star 891 : 3$

$669 : 3 \star 668 : 2$

$564 : 4 \star 846 : 6$

$0 : 9 = 0$

$5 : 5 = 1$


$4 : 1 = 4$

Nolga bo'lish mumkin emas: $8 : 0 =$



4. Bino qurilishi uchun birinchi kuni 53 460 dona, ikkinchi kuni undan 4 marta kam taxta keltirildi. Shu ikki kunda necha dona taxta keltirilgan?
5. Bo'lishni ustun usulida bajaring:
- | | | | |
|-----------|-----------|-----------|-----------|
| $356 : 2$ | $396 : 6$ | $474 : 3$ | $581 : 7$ |
| $972 : 4$ | $285 : 5$ | $516 : 4$ | $872 : 8$ |
6. Iyun oyida birinchi oromgohda 240 ta, ikkinchisida esa 180 ta kishi dam oldi. Avgust oyida dam oluvchilar soni birinchi oromgohda 8 marta, ikkinchisida esa 2 marta kam bo'ldi. Ikki oromgohda avgust oyida jami necha kishi dam olgan?

7.



8.



- a) O'rdak tovuqdan qancha og'ir?
b) O'rdak g'ozdan qancha yengil?
d) Parrandalarning umumiy massasini toping.



2 kg 700 g



4 kg 300 g



5 kg 800 g

9.



$$\begin{aligned}6 \cdot 8 : 3 &= (130 - 50) \cdot (42 - 35) \\8 \cdot 9 : 2 &= (210 + 90) : (60 - 57)\end{aligned}$$



60. Ko'paytirishning to'g'riliгини текширish usullari



Ko'paytirish amali	Tekshirish usullari	
	I. Bo'lish yordamida	II. Ko'paytirish yordamida
$ \begin{array}{r} 23 \\ \times 3 \\ \hline 69 \end{array} $	$ \begin{array}{r} 69 \quad 3 \\ -\underline{6} \quad 23 \\ \hline 9 \\ -\underline{9} \\ 0 \end{array} $	$3 \cdot 23 = 69$

Agar ko'paytma ko'paytuvchilardan biriga bo'linganda, bo'linmada ikkinchi ko'paytuvchi hosil bo'lsa, ko'paytirish to'g'ri bajarilgan bo'ladi.



1. Ko'paytmani hisoblang va natijani tekshiring:

$$\begin{array}{cccc}
 98 \cdot 2 & 87 \cdot 6 & 144 \cdot 5 & 345 \cdot 6 \\
 \hline
 79 \cdot 4 & 99 \cdot 9 & 152 \cdot 3 & 237 \cdot 4
 \end{array}$$

2. Ko'paytirishni bajaring va natijani tekshiring:

$$\begin{array}{cccc}
 112 & 123 & 325 & 109 \\
 \times 6 & \times 7 & \times 3 & \times 9 \\
 \hline
 \end{array}$$

3. Barcha basketbol va futbol to'plari necha so'm turadi?

11 200 so'm



8 800 so'm



4. Hilolaning 12 ta daftari bor. Anorada Hiloladagidan 4 marta ko'p, Karimada esa Anoradagidan 3 marta kam daftar bor. Uchala qizda jami nechta daftar bor?

5. $36\ 541 + 214 - 94 \cdot 2$ $(80\ 500 - 79\ 750) : 2 \cdot 5$

6.

- Ko'paytirishni bajaring va natijani tekshiring:

$$98 \cdot 9 \quad 200 \cdot 5 \quad 131 \cdot 7 \quad 199 \cdot 4 \quad 318 \cdot 3$$

7.

- Bir mashinaga 2 950 kg, ikkinchisiga esa undan 850 kg ortiq yuk ortildi. Ikkala mashinaga jami qancha yuk ortilgan?



61. Bo'lishning to'g'riliginin tekshirish usullari



Bo'lish amali	Tekshirish usullari	
	I. Ko'paytirish yordamida	II. Bo'lish yordamida
$ \begin{array}{r} 102 \\ - 9 \\ \hline 12 \\ - 12 \\ \hline 0 \end{array} $	$ \begin{array}{r} 34 \\ \times 3 \\ \hline 102 \end{array} $	$102 : 34 = 3$

Agar bo'linma va bo'luvchi ko'paytirilganda ko'paytmada bo'linuvchi hosil bo'lsa, bo'lish to'g'ri bajarilgan bo'ladi.

1. Bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:

$$\begin{array}{ccc}
 48 : 2 & 84 : 7 & 531 : 9 \\
 96 : 3 & 65 : 5 & 824 : 8
 \end{array}$$



2. Bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:

$$\begin{array}{r}
 735 | 7 \\
 645 | 5 \\
 801 | 9 \\
 912 | 4
 \end{array}$$

3. $x - 1\ 918 = 20\ 512$ $(42\ 013 - 512) - x = 35\ 201$
 $x - 2\ 014 = 52\ 511$ $82\ 304 - (x + 610) = 5\ 009$

4. Bitta bo'yinbog' bitta ko'yakdan necha so'm arzon?



7 950 so'm



20 800 so'm

5. $970 \cdot 2 : 5$ $(3\ 900 - 456 \cdot 7) : 3$
 $904 : 4 \cdot 6$ $(232 + 498) : 5 \cdot 8$

6. Bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:

$$606 : 6 \quad 550 : 5 \quad 813 : 3 \quad 981 : 9 \quad 525 : 7$$

7. Noma'lum son 10 marta orttirilib, ko'paytmadan 723 soni ayirildi. Natijada 337 hosil bo'ldi. Noma'lum sonni toping.





62. Tenglamalar. Noma'lum ko'paytuvchini topish

1. Tenglamaning yechilishini tushuntiring:



Tenglama	$x \cdot 3 = 591$
1. Noma'lum ko'paytuvchi x ni topamiz	$x = 591 : 3$ $x = 177$
2. Tekshiramiz	$177 \cdot 3 = 591$ $591 = 591$

Noma'lum ko'paytuvchini topish uchun ko'paytmani ma'lum ko'paytuvchiga bo'lish kerak.



2. $x \cdot 8 = 560$
 $9 \cdot x = 630$

$9 \cdot x = 23\,463$
 $6 \cdot x = 40\,212$

3. $3\,200 \cdot 5$
 $2\,530 \cdot 5$

$94\,400 \cdot 4$
 $91\,490 \cdot 7$

$83\,025 \cdot 9$
 $28\,500 \cdot 8$

4. Noma'lum son 3 marta orttirilib, natijaga 192 qo'shilganda 1083 hosil bo'ldi. Noma'lum sonni toping.
5. Soatlar ko'rsatayotgan vaqtlar orasidagi farq qancha?

a)

b)

6. $2 \cdot \square + 12\,400 = 13\,202$ $4 \cdot \square + 20\,080 = 21\,068$



7. $2 \cdot x = 232$
 $6 \cdot x = 630$

$x \cdot 7 = 42\,714$
 $x \cdot 5 = 62\,145$



8. Maktab Mahmudning uyidan 1 km 200 m masofada joylashgan. Mahmud har kun maktabga borib kelish uchun qancha masofani bosib o'tadi?



63. Tenglamalar. Noma'lum bo'linuvchini topish

1. Tenglamaning yechilishini tushuntiring:

Tenglama	$x : 7 = 683$
1. Noma'lum bo'linuvchi x ni topamiz	$x = 683 \cdot 7$ $x = 4\,781$
2. Tekshiramiz	$4\,781 : 7 = 683$ $683 = 683$

Noma'lum bo'linuvchini topish uchun bo'linmani bo'luvchiga ko'paytirish kerak.

2. $x : 2 = 88$ $x : 4 = 502$
 $x : 3 = 224$ $x : 5 = 605$



3. Bitta bananning massasi qancha?



} 1 kg 125 g

4. Usta 2 m 80 sm va 3 m 30 sm uzunlikdagi taxtalarni randaladi. Randalangan taxtalarning umumiyligi uzunligi qancha?

5. $304 \cdot 8 \star 304 \cdot 7$ $40\,000 - 3 \star 39\,999 - 2$
 $209 \cdot 6 \star 290 \cdot 6$ $58\,163 + 254 \star 58\,164 + 253$

6. Noma'lum sonni 7 marta kamaytirilib, natijadan 918 ayrlisa, 114 hosil bo'ladi. Noma'lum sonni toping.

7. $x : 8 = 93$ $x : 4 = 3\,002$
 $x : 9 = 101$ $x : 7 = 5\,214$

8. 420 kg olmani joylashtirish uchun 6 kg li yashiklardan nechta kerak bo'ladi?





64. Tenglamalar. Noma'lum bo'luvchini topish

1. Tenglamaning yechilishini tushuntiring:



Tenglama	$72 : x = 9$
1. Noma'lum bo'luvchi x ni topamiz	$x = 72 : 9$ $x = 8$
2. Tekshiramiz	$72 : 8 = 9$ $9 = 9$

Noma'lum bo'luvchini topish uchun bo'linuvchini bo'linmaga bo'lish kerak.



2. $64 : x = 8$ $95 : x = 5$
 $81 : x = 9$ $800 : x = 100$
3. Birinchi savatda 24 kg olma, ikkinchisida esa nok bor. Ikkinchi savatga 8 kg nok qo'shilsa, noklar olmalarga qaraganda 10 kg ortiq bo'ladi. Savatda qancha nok bor?
4. $3 \cdot x = 249$ $7 \cdot x - 514 = 60$ $265 - 4 \cdot x = 33$
5. Birinchi bochkada 48 litr suv bor. Ikkinchi bochkadan 12 litr suv olingandan keyin, unda birinchidagidan 2 marta kam suv qoldi. Ikkinchi bochkada necha litr suv bo'lgan?



6. To'rt oy ichida kompyuter necha so'mga arzonlashdi?

May oyida

587 300 so'm



Sentabr oyida

499 900 so'm



7. $906 : x = 6$

$712 : x = 4$

$x : 7 = 1\,217$

$x : 1 = 6\,885$





65.


Mustahkamlash uchun mashqlar

1. Tenglamaning yechilishini tushuntiring:

Tenglama	$x \cdot 4 + 759 = 827$
1. Noma'lum qo'shiluvchi $x \cdot 4$ ni topamiz	$x \cdot 4 = 827 - 759$ $x \cdot 4 = 68$
2. Noma'lum ko'paytuvchi x ni topamiz	$x = 68 : 4$ $x = 17$
3. Tekshiramiz	$17 \cdot 4 + 759 = 827$ $68 + 759 = 827$ $827 = 827$

2. $7 \cdot x + 854 = 910$ $9 \cdot (7512 - x) = 342$
 $x \cdot 2 - 586 = 358$ $(2878 - 2140) : x = 9$

3. Rasmga mos keluvchi masala tuzing va uni yeching:



1 350 gramm

15 500 so'm

4. Noma'lum sonni 6 ga ko'paytirib, natijaga 1 550 qo'shilsa, 2 000 soni hosil bo'ladi. Noma'lum sonni toping.

5.


$3 \cdot x - 198 = 333$	$4518 - x : 5 = 3919$
$x \cdot 6 + 234 = 864$	$676 : x + 335 = 337$

- 6.
- Omborda 1 280 sr sabzi bor edi. Shahardagi 8 ta bozorga bir xil miqdorda sabzi jo'natildi. Omborda yana 584 sr sabzi qoldi. Har bir bozorga qanchadan sabzi jo'natilgan?



66.

Tezlik. Vaqt. Masofa



Avtomobil 2 soatda 180 km, mototsikl 4 soatda 200 km masofani bosib o'tdi.

Bunda avtomobil soatiga $180 : 2 = 90$ km, mototsikl esa $200 : 4 = 50$ km yo'l yurgan. Demak, avtomobil mototsikliga qaraganda tez yurgan. Bu holda avtomobilning tezligi soatiga 90 km, mototsiklning tezligi esa soatiaga 50 km deyiladi. Bu tezliklar qisqacha 90 km/soat, 50 km/soat tarzida yoziladi.

Yana km/s, m/s kabi tezlik birliklari ham bor.

Tezlikni topish uchun masofani vaqtga bo'lish kerak.



2 soat

40 km


Otning tezligi: $40 : 2 = 20$ (km/soat)



1. Quyidagi ifodalarning ma'nosini tushuntiring:

- Samolyotning uchish tezligi soatiga 800 km;
- Teploxdodning suzish tezligi 45 km/soat;
- Piyodanining tezligi 4 km/soat.

2. Ushbu rasmlardan foydalanib tezliklarni toping.



3. Hovlida g'ozlar o'tlamoqda. Ularning oyoqlari 22 ta. G'ozlar yoniga 3 ta echki qo'shilsa, ularning jami oyoqlari nechta bo'ladi?
4. Poyezd 224 km masofani 4 soatda bosib o'tdi. Uning tezligi vertolyotning tezligidan 3 marta kam. Vertolyotning tezligini toping.
5. $260 : 4$ $315 : 7$ $287 : 7$ $816 : 6$
 $360 : 8$ $552 : 8$ $486 : 9$ $984 : 4$
6. Yuk mashinasi 8 soatda 280 km yo'l yurdi. Yengil mashina esa bu masofani 4 soatda bosib o'tdi. Yuk mashinasining tezligi yengil mashina tezligidan necha marta kam?



7. $(850 - 430) : 7$ $549 : 9 \cdot 6$
 $(310 + 240) : 5$ $732 : 6 \cdot 9$

8. Avtomobil 180 km masofani 3 soatda bosib o'tdi. U qanday tezlik bilan yurgan?




67.

Tezlik. Vaqt. Masofa

Masofani topish uchun tezlikni vaqtga ko'paytirish kerak.



- Yuk mashinasi 40 km/soat tezlik bilan 4 soat yurdi. Yuk mashinasi qancha masofani bosib o'tdi?
- Samolyotning tezligi 450 km/soat. U 6 soatda qancha masofani uchib o'tadi?
- Velosipedchi shahardan qishloqqa 3 soatda yetib keldi. Shahardan qishloqqacha bo'lgan masofani aniqlang?



- $90 \cdot 4 : 3$ $420 : 6 \cdot 8$ $560 : 7 \cdot 6$
 $60 \cdot 8 : 4$ $360 : 9 \cdot 7$ $630 : 9 \cdot 5$
- Shohbekatdan bir vaqtda ikki poyezd qarama-qarshi yo'naliishda yo'lga chiqdi. 5 soatdan keyin ular orasidagi masofa qancha bol'dadi?




- $895\ 819 + 228 : 3$ $7\ 296 : 4 \cdot 8$
 $20\ 000 - 786 : 6$ $5\ 832 \cdot 8 : 6$
- Avtomobil qishloqdan shaharga borish uchun oldin tosh yo'lda 30 km/soat tezlik bilan 2 soat, keyin asfalt yo'lda 70 km/soat tezlik bilan 3 soat yo'l yurdi. Avtomobil qishloqdan shahargacha qancha yo'l yurgan?




**68.****Tezlik. Vaqt. Masofa**

Vaqtni topish uchun masofani tezlikka bo'lish kerak.

1. Asalari gulzorga qancha vaqtda yetib boradi?



2. 60 km masofani birinchi velosipedchi 12 km/soat, ikkinchi velosipedchi esa 15 km/soat tezlik bilan bosib o'tdi. Birinchi velosipedchi ikkinchi velosipedchiga qaraganda qancha vaqt ko'p harakatlangan?
3. Sayohatchi hammasi bo'lib necha soat yo'l yurgan?



4. $11\ 140 + (2\ 176 - 2\ 056) : 6 + 1\ 692$
 $601\ 217 - 439\ 392 + 783 : 9 - 28\ 756$

5. It tulkini quvlashni boshlaganida, ular orasidagi masofa 120 m edi. Agar it 250 m/min tezlik bilan, tulki esa 220 m/min tezlik bilan chopayotgan bolsa, it qancha vaqt dan keyin tulkiga yetib oladi?

6. Toychoq o'tlab yurib, otardan 12 km uzoqlashib ketdi. U qaytishda 6 km/soat tezlik bilan yursa, otarga necha soatda yetib keladi?

7. $47\ 632 + 21\ 394$ $326\ 857 - 42\ 435$
 $13\ 278 + 84\ 657$ $669\ 734 - 48\ 150$



69.

Mustahkamlash uchun mashqlar

1. Jadvalga ko'ra masalalar tuzing va ularni yeching:

	Tezlik	Vaqt	Masofa
	?	2 soat	1 700 km
	90 km/soat	4 soat	?
	15 km/soat	?	45 km

2. $7 \text{ t } 5 \text{ sr} \star 7 \text{ t } 50 \text{ kg}$ $8 \text{ m } 5 \text{ dm} \star 8 \text{ m } 55 \text{ sm}$
 $30 \text{ km } 100 \text{ m} \star 3100 \text{ m}$ $45 \text{ sr} \star 5 \text{ t } 4 \text{ sr}$
3. Mototsiklchi 210 km masofani 3 soatda bosib o'tdi. U qanday tezlik bilan yurgan?
4. Shahardan qishloqqacha bo'lgan masofa 12 km. Sayohatchi 5 km/soat tezlik bilan 2 soat yurdi. U qishloqqa yetishi uchun yana qancha yo'l yurishi kerak?
5. Yuk poyezdi 62 km/soat tezlik bilan 7 soat yo'l yurdi. Shundan keyin manzilga yetish uchun yurgan yo'lidan 2 marta ortiq yo'l qoldi. Poyezd hammasi bo'lib necha kilometr yo'l yurishi kerak?
6. Sekundiga 8 km tezlik bilan uchadigan raketa 576 000 km masofani necha soatda bosib o'tadi? U qancha minutga teng?



7. $(217 + 248) : 3$
 $(204 + 186) : 6$

$594 : 9 \cdot 4$
 $486 : 6 \cdot 7$



8. Avtobus 180 km masofani 3 soatda bosib o'tdi. Qaytishda shu masofani 2 soatda bosib o'tishi uchun avtobus tezligini qanchaga oshirishi kerak?



70.


Qoldiqqli bo'lish

16 ta olmani 5 ta likopchaga teng taqsimlash kerak. Buning uchun oldin har bir likopchaga bittadan, keyin yana bittadan, keyin yana bittadan olma qo'yildi.



Natijada, 16 ta olma 5 ta likopchaga 3 tadan taqsimlandi va 1 ta olma ortib qoldi. Bunday taqsimlash **qoldiqqli bo'lish** deb ataladi va quyidagi tarzda ifodalanadi: $16 = 5 \cdot 3 + 1$.

Qoldiqqli bo'lish ustun usulida quyidagicha bajariladi:



$$16 = 5 \cdot 3 + 1$$

Bo'linuvchi bo'luvchi to'liqsiz bo'linma qoldiq

Bo'luvchi bilan to'liqsiz bo'linmaning ko'paytmasiga qoldiq qo'shilganda bo'linuvchi hosil bo'lsa, qoldiqqli bo'lish to'g'ri bajarilgan bo'ladi.



Biror sonni 3 ga bo'lganda qanday qoldiqlar hosil bo'lishi mumkin? Xulosa chiqaring.

Qoldiqli bo'lishda qoldiq bo'lувchidan kichik bo'ladi



1. Qoldiqli bo'lishni tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 582 \\ \underline{\quad\quad\quad} \\ 560 \\ \hline 22 \end{array} \quad \text{Tekshirish: } 8 \cdot 70 + 22 = 582 \\ 22 < 70$$

2. Qoldiqli bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:

83 : 2	84 : 5	574 : 8	527 : 4
44 : 3	46 : 7	970 : 9	903 : 6

3. Soat va minutlarda ifodalang:

580 min	246 min	560 min
615 min	349 min	436 min



4. Ishchi boshkadan 5 chelak suv oldi. Bochkadan yana necha marta chelakni to'ldirib suv olish mumkin? Bochkada qancha suv qoladi?

200 litr 15 litr

5. $3\ 600 : 7$ $397 : 3$ $1\ 065 : 4$
 $4\ 200 : 3$ $486 : 2$ $2\ 080 : 3$

6. Birinchi do'kon qandolatchilik korxonasidan 9 yashikda 72 kg, ikkinchi do'kon xuddi shunday yashiklarda 128 kg konfet oldi. Ikkinchi do'kon necha yashik konfet olgan?



7. Ikti muktabga bir xil bog'lamlarda 10 000 ta kitob yuborildi. Birinchi muktabga 200, ikkinchisiga esa 300 bog'lam kitob jo'natildi. Har bir muktabga nechta kitob yuborilgan?



8. Qoldiqli bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:
 $386 : 9$ $4\ 441 : 6$ $822\ 434 : 7$



71.

Qoldiqli bo'lish

1. Qoldiqli bo'lishni hamda tekshirish qanday bajarilganini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 75 \\ \underline{- 22} \\ 3 \end{array}$$

Tekshirish: $8 \cdot 9 + 3 = 75$

2. Qoldiqli bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:

$45 : 6$

$830 : 7$

$846 : 4$

$26 : 4$

$650 : 8$

$683 : 2$

3. Donni tashish uchun yuk mashinasi necha marta qatnaydi? Oxirgi qatnashida mashinada necha tonna bug'doy bo'ladi?



4. $75 \text{ dm} \star 7 \text{ m } 50 \text{ sm}$ $1800 \text{ mm} \star 1 \text{ m } 8 \text{ sm } 8 \text{ t}$
 $1 \text{ sr} \star 81 \text{ sr}$ $8 \text{ kg } 750 \text{ g} \star 8760 \text{ g}$

5. $200\ 500 - 943 \cdot 5$ $623 \cdot 9 + 15\ 008$
 $30\ 264 + 475 \cdot 8$ $80\ 000 - 9 \cdot 312$

6. Sarvinozda 400 so'm pul bor. Uning puli narxi 70 so'm bo'lgan daftardan necha dona sotib olishga yetadi? Bu xariddan so'ng Sarvinozda necha so'm pul qoladi?

7. Qoldiqli bo'lishni ustun usulida bajaring va natijani tekshiring:



$386 : 3$

$524 : 7$

$475 : 9$

$693 : 4$

$484 : 8$

$684 : 5$

8. 8 qandaydir songa ko'paytirildi. Natijaga 4 097 qo'shilganda 5 081 hosil bo'ldi. Noma'lum ko'paytuvchini toping.





72.

Ustun usulida bo'lish

Ko'p xonali sonni bir xonali songa ustun usulida bo'lish uch xonali sonni bir xonali songa bo'lish kabi bajariladi.

1. Bo'lish amali qanday bajarilganligini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 8918 \\ \times 7 \\ \hline 1274 \end{array}$$

Tekshiring

$$\begin{array}{r} 1274 \\ \times 7 \\ \hline 8918 \end{array}$$



2. Bo'lishni ustun usulida bajaring va natijani tekshiring:

484 : 4

6 963 : 3

2 364 : 3

39 852 : 6

$$\begin{array}{r} 13824 + 7839 : 9 \\ 40040 - 2968 : 8 \end{array} \quad \begin{array}{r} 7296 : 4 \cdot 8 \\ 5832 \cdot 8 : 6 \end{array}$$

4. Zebra qancha vaqtda ko'l bo'yiga yetib boradi?



500 m/min



2 km 500 m

5. 6 kg bug'doydan 4 kg 800 g un, 9 kg arpadan 6 kg 840 g un olinadi. 1 kg arpadan 1 kg bug'doya qaraganda qancha kam un olinadi?

6. $2 \cdot (x - 435) = 1812$ $3 \cdot (x + 985) = 4617$



7. Qurilishga 1 532 ta shifer kerak. Birinchi kuni undan 4 marta kam shifer keltirildi. Yana nechta shifer keltirilishi zarur?



8. $4 \text{ sr } 86 \text{ kg} = \square \text{ kg}$

$32 \text{ t } 8 \text{ sr} = \square \text{ sr}$


$25 \text{ km } 750 \text{ m} = \square \text{ m}$

$7 \text{ m } 68 \text{ sm} = \square \text{ sm}$


**73.****Ustun usulida bo'lish**

- Bo'lishni ustun usulida bajaring va natijani tekshiring:
 $9\ 368 : 4$ $4\ 746 : 6$ $9\ 860 : 2$ $7\ 926 : 3$
- Qand zavodida 31 872 sr lavlagi qayta ishlanib, undan 6 marta kam shakar olindi. Zavod bu lavlagidan qancha shakar olgan?
- Hisoblang va natijani tekshiring:
 $63\ 894 \cdot 5$ ★ $639\ 854 : 3$ $80\ 169 \cdot 3$ ★ $801\ 692 : 4$
 $41\ 827 \cdot 2$ ★ $341\ 825 : 5$ $36\ 801 \cdot 4$ ★ $364\ 007 : 7$
- Rasmga ko'ra masala tuzing va uni yeching.

Buxoro



Samargand



Toshkent



- Fermerning 7 995 ta oq, undan 3 marta kam kulrang quyonlari bor. Fermer hamma quyonlarning yarmini go'sht uchun topshirdi. Har bir quyonning massasi 3 kg dan bo'lsa, fermer necha kilogramm go'sht topshirgan?


- Dilmurod taxtadan oldin 90 sm, keyin 1 m 30 sm uzunlikdag'i bo'laklar kesib oldi. Shundan so'ng, 2 m 80 sm uzunlikdag'i taxta qoldi. Dastlab taxtaning uzunligi qancha bo'lgan?

- (43 785 – 38 598) : 3 $(9\ 010 - 6\ 235) \cdot 9$
 $(20\ 200 - 12\ 874) : 6$ $8 \cdot (4\ 348 + 2\ 062)$

**74.****Sonni bir xonalı songa bo'lish**

$$\begin{array}{lll} 1. \quad 942 : 3 & 8918 : 7 & 6975 : 5 \\ 656 : 2 & 9744 : 8 & 7452 : 6 \end{array} \quad \begin{array}{lll} 6420 : 6 \\ 8160 : 2 \end{array}$$

2. Sonli Ifoda tuzing va uning qiymatini toping:
- 1 305 va 801 sonlarining yig'indisini 9 ga bo'ling;
 - 6 030 va 5 124 sonlarining ayirmasini 6 marta kamaytiring.
3. $2 \text{ km } 76 \text{ m} = \boxed{} \text{ m}$ $69\,000 \text{ m} = \boxed{} \text{ km}$
 $18 \text{ km } 20 \text{ m} = \boxed{} \text{ m}$ $88\,000 \text{ m} = \boxed{} \text{ km}$
4. Kemalar orasidagi masofa necha kilometr?



5. Islombek, Iqbolbek va Dostonbeklarning uchalasida jami 1 200 so'm pul bor. Islombek va Dostonbekning ikkalasida 980 so'm, Iqbolbek va Dostonbekning ikkalasida 740 so'm bor. Bolalarning har birida qancha pul bor?
6. Bog'bon bir uzumzordan 504 kg, ikkinchi uzumzordan esa undan 3 marta kam uzum yig'ib oldi. Hamma yig'ilgan uzumdan 4 marta kam uzum bolalar bog'chasiga jo'natildi. Bolalar bog'chasiga qancha uzum jo'natilgan?



7. Do'konda 9 642 dona gazeta, undan 3 marta kam jurnal bor. Do'konda nechta jurnal bor?



$$\begin{array}{ll} 8. \quad x + 5\,591 = 7\,030 & x - 7\,356 = 3\,740 \\ 8\,005 - x = 6\,997 & 9\,844 + x = 14\,656 \end{array}$$



75.

Sonni bir xonali songa bo'lish

1. Bo'lish qanday bajarilganligini tushuntiring:

$$\begin{array}{r}
 \begin{array}{r}
 16415 \\
 -14 \\
 \hline
 24 \\
 -21 \\
 \hline
 31 \\
 -28 \\
 \hline
 35 \\
 -35 \\
 \hline
 0
 \end{array}
 \quad \left| \begin{array}{r} 7 \\ 2345 \end{array} \right. \\
 \end{array}
 \qquad \text{Tekshirish:} \\
 \begin{array}{r}
 \begin{array}{r}
 1233 \\
 \times 2345 \\
 \hline
 7
 \end{array}
 \end{array}$$



2. $3171 : 7$ $4887 : 9$ $2637 : 9$
 $48984 : 8$ $15282 : 6$ $14625 : 5$
3. Anvar 1 minutda qancha masofaga yuguradi?  $\xrightarrow{4 \text{ m/sek}}$
4. $(47843 - x) : 4 = 6824$ $(47843 - x) \cdot 4 = 6824$
5. Tengsizlik tuzing va uning to'g'riligini tekshiring:
a) 3 580 va 5 sonlarining bo'linmasi 916 va 195 sonlari-ning ayirmasidan kichik;
b) 2 484 va 9 sonlarining bo'linmasi 2 484 va 6 sonlari-ning bo'linmasidan kichik.
6. 13 737 kg cho'yandan tarozi toshlari quyildi. Quyilgan toshlardan 3 246 tasi 2 kg li, qolganlari 5 kg li bo'lsa, jami nechta tosh quyilgan?

7. Qurilishda birinchi ishchi har kuni 1 625 ta, ikkinchisi 1 825 ta g'isht terdi. Birinchi ishchi 6 kun, ikkinchisi 5 kun ishladi. Ular hammasi bo'lib nechta g'isht tergan?

8. $76*7 > 7698$ $8*2* > 8928$
 $5892 < 58*3$ $5008 < 500*$

**76.****Sonne bir xonali songa bo'lish**

- $25\ 392 : 2$ $52\ 297 : 7$ $67\ 428 : 9$
 $33\ 656 : 4$ $44\ 384 : 8$ $38\ 412 : 6$
- Har bir juftlikdagi birinchi son ikkinchisidan necha marta katta yoki necha marta kichik?
 672 va 8 5 va 485 9 va 522 504 va 7
 644 va 7 582 va 6 9 va 837 492 va 6
- Qaysi shakl tushib qolgan?



- Chigitni qayta ishlash korxonasiga 4 t 344 kg chigit keltirildi. Agar 6 kg chigitdan 300 g yog' olinsa, keltirilgan chigitaridan qancha yog' olinadi?
- Bochkalardagi bo'yogni 3 kg li idishlarga quyish uchun nechta shunday idish kerak bo'ladi?
- Bu yil asalarichilik xo'jaligi 4 840 kg asal oldi. 500 kg asal omborda qoldirilib, qolgan asal bankalarga 5 kg dan joylandi. Buning uchun nechta banka kerak bo'lgan?



- $2\ 592 : 6 - 432$ $8\ 141 : 7 \cdot 8$
 $7\ 136 : 8 + 7\ 092$ $57\ 183 : 7 + 297\ 108$
- To'g'ri to'rtburchakning perimetri 36 sm. Agar uning bir tomoni 4 sm bo'lsa, qolgan tomonlari uzunliklarini toping.





77.

Sonni bir xonali songa bo'lish

1. Ka'p xonali sonlarni bir xonali songa bo'lishda yana bir holga duch kelamiz. 742 ni 7 ga bo'laylik.

$$\begin{array}{r} 742 \\ \hline 7 \quad | \quad 106 \\ -42 \\ \hline 0 \end{array}$$

Tekshirish:

$$\begin{array}{r} \times 106 \\ \hline 742 \\ \hline 742 \end{array}$$

7 (yuzlik)ni 7 ga bo'lamiz. Bo'linmada 1 (yuzlik) hosil bo'ladi. 4 (o'nlik) 7 ga bo'linmaydi. Shuning uchun bo'linmaning o'nlar xonasiga 0 yozamiz. 4 (o'nlik) va 2 (birlik) – 42 (birlik)ni 7 ga bo'lganimizda bo'linmada 6 (birlik) hosil bo'ladi.

Demak, $742 : 7 = 106$.

2. Bo'lishni ustun usulida bajaring va natijani tekshiring:

$$618 : 6 \quad 756 : 7 \quad 2856 : 7 \quad 27513 : 9$$


3. $2 \cdot x = 408 \quad x \cdot 8 = 8016 \quad x : 6 = 7014 : 7$

4. Sinf xonasi polining bo'yisi va enini o'lchang va uning perimetrini hisoblang.

5. $4852 + 4853 \star \quad 4856 + 4857$

$80\,700 + 32\,415 \star \quad 80\,700 + 34\,215$

6. Banka ichidagi murabboning massasini toping.



1 kg 80 g 207 g

7. $1624 : 8 \quad 50\,103 - 27\,171 : 9$
 $4832 : 4 \quad (50\,103 - 27\,171) : 9$

8. Poyezd 520 km yo'l yurdi. U dastlab 4 soat davomida 70 km/soat, qolgan yo'lni esa 80 km/soat tezlik bilan bosib o'tdi. Poyezd butun yo'lg'a qancha vaqt sarflagan?



78.

Noi bilan tugagan sonlarni bo'lish

1. Bo'lish qanday bajarilganligini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 14400 \\ \times 3 \\ \hline 4800 \\ 24 \\ \hline 14400 \end{array}$$

Tekshirish:

$$\begin{array}{r} 4800 \\ \times 3 \\ \hline 14400 \end{array}$$

2. Bo'lishni ustun usulida bajaring va natijani tekshiring:

$$32\ 800 : 8$$

$$21\ 350 : 5$$

$$16\ 800 : 3$$

$$37\ 400 : 4$$

$$34\ 300 : 7$$

$$54\ 600 : 7$$

3. $2 \cdot x + 757 = 827$ $2 \cdot (8\ 600 - x) = 6\ 800$


$$902 - 3 \cdot x = 845$$

$$3 \cdot (x + 308) = 9\ 900$$

4. Qurilishga 87 500 dona taxta keltirildi. Birinchi kuni keltirilan taxtadan 7 marta kam taxta ishlatildi. Ikkinci kuni qolgan taxtaning yarmi ishlatildi. Ikkinci kuni qurilishda qancha taxta ishlatilgan?



5. Naqshni daftaringizga chizing va uni bo'yang.



6. Bosmaxonada 3 810 ta matematika kitobi har bir bog'lama ga 6 tadan, 6 816 ta o'qish kitobi har bir bog'lama ga 8 tadan qilib joylashtirildi. Ulardan 929 bog'lami do'konga jo'natildi. Bosmaxonada necha bog'lam kitob qoldi?



7. $1\ 950 : 5 + 19\ 500 : 5$
 $6\ 230 : 7 + 62\ 300 : 7$

$8\ 700 : 3 + 87\ 000 : 3$
 $3\ 420 : 4 + 34\ 200 : 4$



8. Sayohatchilar kemada 4 864 km masofani 8 kunda suzib o'tdi. Ular bir kunda necha kilometr masofani suzib o'tishgan?

**79.****Nol bilan tugagan sonlarni bo'lish**

- Bo'lishni ustun usulida bajaring va natijani tekshiring:
 $1\ 850 : 5$ $25\ 600 : 8$ $81\ 200 : 7$
 $1\ 780 : 5$ $20\ 230 : 7$ $354\ 600 : 9$
- Tikuvchilik fabrikasi omborida $2\ 600$ m shoyi gazlama, undan 5 marta kam chit gazlama bor. Omborda hammasi bo'lib necha metr gazlama bor?
- $370 + (x - 123) = 493$ $(58\ 087 - x) + 60 = 35\ 240$
 $978 - (x - 471) = 922$ $(1\ 095 + x) - 87 = 75\ 723$
- $803 \text{ t } 504 \text{ kg} - 200 \text{ t } 900 \text{ kg}$
 $65 \text{ km } 765 \text{ m} - 29 \text{ km } 570 \text{ m}$
 $265 \text{ m } 60 \text{ sm} + 279 \text{ m } 89 \text{ sm}$
- Rasmdagi olmaxonning jami nechta yong'og'i bor?
- Nazira opa bozorda go'sht xarid qilish uchun $4\ 750$ so'm, kartoshka xarid qilish uchun undan 5 marta kam pul sarfladi. Nazira opa xarid uchun jami qancha pul sarflagan?
- Maktab kutubxonasida $7\ 500$ ta darslik kitoblar va undan 3 marta kam badiiy kitoblar bor. Kutubxonadagi badiiy kitoblar darslik kitoblardan nechtaga kam?



- $23 \text{ m } 6 \text{ sm} = \square \text{ sm}$ $2\ 355 \text{ kg} = \square \text{ t } \square \text{ kg}$
 $9 \text{ min } 6 \text{ sek} = \square \text{ sek}$ $62\ 335 \text{ kg} = \square \text{ sr } \square \text{ kg}$
- Birinchi akvariumga 300 litr, ikkinchisiga 312 litr suv quyildi. Ikkala akvariumga 6 litrli chelak bilan necha chelak suv quyilgan?



80.

Kattaliklarni songa bo'lish

Kattalikni songa bo'lish uchun avval kattalik bitta o'lchov birligida ifodalanadi, so'ng bo'lish sonlarni bo'lish kabi bajariladi.



1. Bo'lish qanday bajarilganligini tushuntiring:

$$6 \text{ t } 728 \text{ kg} : 4 = ?$$

$$1) 6 \text{ t } 728 \text{ kg} = 6728 \text{ kg}$$

$$2) 6728 : 4 = 1682$$

$$3) 1682 \text{ kg} = 1 \text{ t } 682 \text{ kg}$$

2. $7 \text{ m } 32 \text{ sm} : 4$ $2 \text{ t } 247 \text{ kg} : 7$ $2 \text{ km } 64 \text{ m} : 6$
 $8 \text{ m } 43 \text{ sm} : 3$ $3 \text{ sr } 48 \text{ kg} : 6$ $3 \text{ kg } 495 \text{ g} : 5$

3. Chilangar 8 ta detalga ishlov berish uchun 6 soat 40 minut vaqt sarfladi. U bitta detalga ishlov berish uchun qancha vaqt sarflagan?

4. Vertolyot 2 760 km masofani 5 soatda uchib o'tdi. Vertolyot qanday tezlik bilan uchgan?

$$(580 - x) \cdot 4 = 100$$

$$900 - x \cdot 5 = 800$$

5. Quyon tipratikandan qancha og'ir?



3 kg



1 kg 550 g

7. Yer yuzidagi eng mitti qush – kolibrining massasi 2 g, eng katta qush – tuyaqushning massasi esa 120 kg. Kolibrining massasi tuyaqushnikidan necha marta kam?

8. $487\ 200 : 6 + 9\ 055$ $(35\ 400 + 53\ 900) : 5$

 $373\ 160 : 4 + 72\ 195$ $57\ 960 : 4 - 86\ 940 : 6$



9. Uchta mashinaga 8 t 850 kg paxta ortildi. Har bir mashinaga qancha paxta ortilgan?



81.

Kattaliklarni songa bo'lish

- Bitta qadimgi taqinchoq kim oshdi savdosida 387 000 so'mga sotildi. Taqinchoq dastlabki narxidan uch marta qimmat narxda sotilgan bo'lsa, uning dastlabki narxi necha so'm bo'lgan?
- $84 \text{ kg } 724 \text{ g} : 4$ $58 \text{ m } 71 \text{ sm} : 3$
 $27 \text{ t } 408 \text{ kg} : 6$ $43 \text{ km } 95 \text{ m} : 5$
- $8 \text{ dm} - 4 \text{ sm}$ $6 \text{ m } 9 \text{ dm} - 3 \text{ dm}$
 $7 \text{ sm} - 5 \text{ mm}$ $6 \text{ sm } 2 \text{ mm} + 9 \text{ mm}$
- Asalarilar 5 418 g asal yig'ishdi. Ular yig'ilgan asaldan 6 marta kam asalni ayiqpolvonga berdilar. Asalarilarda qancha asal qoldi?
- Har bir shaklning perimetrini toping.



- Ikkita bir xil nasos yerdan 5 760 litr suv tortib chiqardi. Bunda dastlab birinchi nasos 5 soat, keyin ikkinchisi 3 soat ishladi. Har bir nasos qancha suv tortib chiqargan?



- $720 - (300 - 420 : 6)$ $55\ 140 : 6 \cdot 30 + 560 \cdot 40$
 $980 + (445 - 880 : 4)$ $2\ 758 \cdot 6 - 7240 : 2$
- Perimetri 6 dm 8 sm bo'lgan kvadratning tomoni uzunligini toping.



82.

Ko'paytirish va bo'lish

1. $7944 : 4$ $8270 \cdot 6$ $91512 : 9$
 $1477 : 7$ $4258 \cdot 3$ $64744 : 8$
2. Ertalab soat 10 da Toshkentdan ikkita poyezd qarama-qarshi yo'nalishda yo'lga chiqdi. Soat 13 da ular orasida-gi masofa 330 km bo'ldi. Poyezdlardan birining tezligi 50 km/soat. Ikkinchini poyezdnинг tezligini toping.
3. $6340 \text{ kg} \star 6 \text{ t } 340 \text{ kg}$ $1 \text{ t } 1 \text{ sr} \star 1 \text{ t } 140 \text{ kg}$
 $1 \text{ m } 1 \text{ dm} \star 1 \text{ m } 12 \text{ dm}$ $5780 \text{ m} \star 5 \text{ km } 780 \text{ m}$
4. Kombayn 6 kunda daladan 1800 sr bug'doy hosilini yig'ishtirib oldi. Bu kombayn 9 kunda qancha bug'doy hosilini yig'ishtira oladi?
5. $910\,000 - 352\,583 : 7$ $12\,232 \cdot 8 + 2\,340 : 4$
 $123\,097 \cdot 8 + 53\,909$ $107\,060 \cdot 9 - 4\,600 \cdot 7$
6. Rasmga ko'ra har bir ekin maydonining perimetrini toping.
-
7. Usta har kuni 2 670 ta bolt yasar edi. U dastgohini yan-gisiga almashtirib, har kuni 2 880 ta bolt yasay boshladi. 6 kun davomida usta yangi dastgohida eskisiga qaragan-da qancha ko'p bolt yasaydi?
8. $700\,103 - 6\,300 : 7$ $523\,200 : 5 + 20\,679$
 $147\,000 - 385 \cdot 6 : 5$ $62\,342 \cdot 8 + 33\,615$
9. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi gilamning perimetri 20 m, bo'yи 6 m. Gilamning eni qancha?



83.

Ko'paytirish va bo'lish

1. $9 \cdot x = 810$
 $x : 7 = 259$

$640 : (25 + x) = 8$
 $(x - 480) \cdot 6 = 10200$


2. Sabzavot do'koniga 590 kg kartoshka, undan 320 kg kam sabzi, sabzidan 3 marta kam sholg'om keltirildi. Do'konga necha kilogramm sholg'om keltirilgan?

3. 30 ta palto tikish uchun 150 ta tugma kerak. 45 ta palto uchun nechta tugma kerak bo'ladi?


4. Rasmga qarab rangli qalamlar ning narxini aniqlang.

5. O'ylangan sonni 215 ta kamayti-rib, natijani 5 marta kamaytirsak, 1 075 hosil bo'ladi. Qanday son o'ylangan?

6. Aylanalardan tashkil topgan naqshga qarang. Bu yerda nechta aylana borligini sanang. Daftaringizga shu naqshni chizing va uni bo'yang.



1 050 so'm



7. Uchta bir xil nasos bir soatda 4 506 litr suv tortib chiqaradi. Shunday 6 ta nasos bir soatda necha litr suv tortib chiqaradi?

8. Bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:

$38\ 400 : 4$	$26\ 800 : 4$
$31\ 500 : 9$	$56\ 400 : 6$



IV bobga doir qo'shimcha misol va masalalar

1. 79-betdagি rasmda berilgan topshiriqlarni bajaring:
 a) Zanjirli misolni yeching.
 b) Tezlikni hisoblab toping.
 d) Rebusni yeching. Bunda bir xil harflarga bir xil raqamlar, har xil harflarga har xil raqamlar mos keladi.

2. $4\ 086 \cdot 5$ $16\ 443 : 7$ $40\ 230 : 10$
 $5\ 229 : 7$ $15\ 760 \cdot 8$ $665\ 874 : 6$

3. Mahallani obodonlashtirish uchun har qatorga 16 tupdan 5 qator terak va har qatorga 20 tupdan archa ko'chati o'tqazildi. Terak va archa ko'chatlarining sonlari teng bo'lsa, necha qator archa o'tqazilgan?

4. $518 - x = 140 + 200$ $x - 516 = 360 : 90$

5. $13\ 304 - 8\ 456$ \star $13\ 304 - 8\ 546$


 $76\ 523 + 9\ 248$ \star $76\ 523 + 9\ 428$

6. 3 ta cho'pning o'rnnini shunday almash-tiring-ki, natijada 4 ta bir xil kichik kvadrat va 1 ta katta kvadrat hosil bo'lsin.



7. Oralaridagi masofa 600 km bo'lgan ikki shahardan bir vaqtda bir-biriga qarab ikki mashina yo'lga chiqdi va 4 soatdan keyin uchrashishdi. Birinchi mashinaning tezligi 70 km/soat. Ikkinci mashinaning tezligini toping.

8. O'ylangan sonni 10 marta kamaytirib, natijani 8 marta ortirsak, 3 040 hosil bo'ladi. Qanday son o'ylangan?

9. $(900\ 000 - 896\ 507) : 4 + 191$
 $50\ 103 - 35\ 073 : 9 + 2\ 931$



10. $\square \cdot \square = \square$, $\square : \square = \square$



11. Ishchi 123 800 so'm maosh oladi. Kassa xodimi ishchiga bu pulni qanday qog'oz pullar bilan to'laganda qog'oz pullar soni eng kam bo'ladi?

12. Ikkı shahardan bir-biriga qarab ikkita poyezd yo'lga chiqdi. Ulardan biri uchrashguncha 310 km, ikkinchisi esa undan 2 marta ortiq yo'l yurdi. Quyidagi ifodalar nimani bildiradi? 1) $310 \cdot 2$ 2) $310 \cdot 2 + 310$

13. Tengliklarning to'g'ri ekanligini tekshiring:

$$9\,060 \cdot 3 = 9\,481 + 17\,699 \quad 27 \cdot 100 = 270 \cdot 10$$

14. Mahallani ko'kalamzorlashtirish uchun 200 tup terak va 300 tup majnuntol ko'chatlari sotib olindi. Agar bitta terak ko'chati 560 so'm, majnuntol ko'chati esa undan 2 marta qimmat tursa, hamma ko'chatlar uchun necha so'm to'langan?

15. Futbol jamoasi 3 ta o'yinda raqiblar darvozasiga 3 ta to'p kiritib, o'z darvozasidan 1 ta to'p olib chiqdi. Bu jamaa birinchi o'yinda g'olib chiqdi. Ikkinchi o'yin durang bo'ldi, uchinchi o'yinda esa yutqazdi. Har bir o'yin qanday hisob bilan yakunlangan?

16. $(x - 420) \cdot 5 = 400$ $x \cdot 9 = 540 - 360$
 $80 : x + 140 = 180$ $(780 - x) : 6 = 100$

$$17. 78\ 439 \cdot 4$$

$$16\ 778 : 7$$


$$6 \cdot 47\ 358$$

$$5\ 792 : 8$$

$$23\ 008 \cdot 9$$

$$7\ 587 : 9$$

18. Ikki shahardan bir vaqtida ikki poyezd yo'lga chiqdi. Ular 7 soatdan keyin uchrashdilar. Ikkinci poyezdning tezligini toping.



19. Nazira xola 1 metri 325 so'm turadigan gazlamadan 8 metr sotib oldi va pulining yarmini sarfladi. Keyin bitta kitob sotib oldi. Shundan so'ng uning yonida 2 000 so'm pul qoldi. Nazira xola kitobni necha so'mga sotib olgan?

$$20. 5\ 270 \cdot 6 : 4$$

$$4\ 528 \cdot 4 : 8$$

$$3\ 927 \cdot 7 : 3$$

$$6\ 270 \cdot 7 : 5$$

$$74\ 615 : 5 \cdot 3$$

$$78\ 456 : 6 \cdot 5$$

21. Qoldiqli bo'llishni bajaring:

$$30 : 4$$

$$239 : 5$$

$$556 : 9$$

$$3\ 684 : 9$$

$$69 : 9$$

$$466 : 8$$

$$975 : 8$$

$$4\ 151 : 7$$

22. Fermada 326 bosh sigir va 118 bosh buzoq bor. Fermer bir kunda har bir sigirga 4 kg, har bir buzoqqa 2 kg dan yem beradi. U bir kunda hamma sigir va buzoqlarga necha kilogramm yem beradi?

23. Qavslarni shunday qo'yingki, tengliklar to'g'ri bo'lsin:

$$4 \cdot 600 - 200 : 5 = 320$$

$$195 : 3 + 2 \cdot 5 = 15$$


$$4 \cdot 600 - 200 : 5 = 440$$

$$195 : 3 + 2 \cdot 5 = 335$$

$$4 \cdot 600 - 200 : 5 = 2\ 240$$

$$195 : 3 + 2 \cdot 5 = 195$$

NOL BILAN TUGAYDIGAN SONGA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH





84.

Ko'paytirishning guruhlash qonuni

1. Sharlarning umumiy sonini hisoblashning turli usullari ni tushuntiring. Hosil bo'lgan natijalarni taqqoslang:

$$\begin{aligned}1) \quad & 3 \cdot (5 \cdot 2) = 3 \cdot 10 = 30 \\2) \quad & 3 \cdot (5 \cdot 2) = (3 \cdot 5) \cdot 2 = 15 \cdot 2 = 30 \\3) \quad & 3 \cdot (5 \cdot 2) = (3 \cdot 2) \cdot 5 = 6 \cdot 5 = 30\end{aligned}$$



Bir necha ko'paytuvchining ko'paytmasini hisoblashda ko'paytuvchilarning o'rnnini turli usulda almashtirish va guruhlash mumkin. Bu xossaga **ko'paytirishning guruhlash qonuni** deyiladi.



2. Hisoblashning turli usullarini tushuntiring:

$$\begin{aligned}1) \quad & 8 \cdot (4 \cdot 3) = 8 \cdot 12 = 96 \\2) \quad & 8 \cdot (4 \cdot 3) = (8 \cdot 4) \cdot 3 = 32 \cdot 3 = 96 \\3) \quad & 8 \cdot (4 \cdot 3) = (8 \cdot 3) \cdot 4 = 24 \cdot 4 = 96\end{aligned}$$

3. Qulay usul bilan hisoblang:

2 · (7 · 5)	8 · (5 · 5)	250 · 74 · 4	4 · 150 · 8
6 · (9 · 5)	5 · (7 · 4)	125 · (4 · 6)	8 · (125 · 7)

4. Duradgor jami 10 dona deraza yasadi. Uning 2 tasini o'z ehtiyoji uchun ishlatib, qolganini 15 625 so'mdan sotdi. Duradgor jami necha so'mlik deraza sotgan?

5. $3 \cdot x - 748 = 4\,340$ $4 \cdot x + 125 = 6\,137$



6. 82 ta terimchining har biri bir kunda 100 kg dan paxta terdi. Terimchilar jami qancha paxta terishgan?



7. $35 \cdot 7 \cdot 2$	12 · (5 · 7)	150 · (3 · 6)
$8 \cdot 3 \cdot 25$	$45 \cdot (2 \cdot 8)$	$125 \cdot (2 \cdot 6)$



85. Sonni 10 ga, 100 ga, 1000 ga ko'paytirish



Ma'lumki, 7 o'nlik 70 ga teng: $7 \cdot 10 = 70$, ya'ni 7 ni 10 ga ko'paytirish uchun 7 dan keyin bitta nol qo'yish kifoya. Ko'p xonali sonlarni 10 ga ko'paytirishda bu qoidadan foydalaniladi: $28 \cdot 10 = 280$.

1. 273 ni 100, 1000 sonlariga ko'paytirishni tushuntiring:

$$1) 273 \cdot 100 = 27\,300;$$

$$2) 273 \cdot 1\,000 = 273\,000.$$


2. $172 \cdot 10$ $46 \cdot 1\,000$ $10 \cdot 350$
 $89 \cdot 100$ $72 \cdot 1\,000$ $600 \cdot 100$

3. 415 sonining o'ng tomoniga a) bitta; b) ikkita; d) uchta nol qo'yildi. Natijada 415 soni har safar necha marta ortgan?

4. $255 + 695 = 910$ $910 - 10 = 900$ $900 - 6799 = ?$

5. Yuk mashinasi 5 soatda 200 km yo'l bosgandan keyin, yana 100 km yo'l qoldi. Agar u tezligini soatiga 10 km ga oshirsa, qolgan yo'lni qancha vaqtida bosib o'tadi?

6. Rasmga ko'ra masala tuzing va uni yeching:



7. Ko'paytmalarning yig'indisini toping.

$1\,340 \cdot 10$ va $2\,060 \cdot 10$ $2\,450 \cdot 100$ va $4\,570 \cdot 10$
 $5\,700 \cdot 100$ va $3\,090 \cdot 100$ $96\,000 \cdot 10$ va $2\,480 \cdot 10$

8. Tikuvchi ayol 12 m chitdan 4 ta ko'ylak tikdi. U 60 m chitdan nechta shunday ko'ylak tikishi mumkin?





86.

Mustahkamlash uchun mashqlar

1. Qulay usul bilan hisoblang:

$$75 \cdot 3 \cdot 4$$

$$125 \cdot 2 \cdot 9$$

$$6 \cdot 4 \cdot 125$$

$$85 \cdot 7 \cdot 6$$



$$7 \cdot 45 \cdot 4$$

$$175 \cdot 9 \cdot 8$$

2. Ko'paytirishni tushuntiring:

$$68 \cdot 100 = 68 \cdot (10 \cdot 10) = (68 \cdot 10) \cdot 10 = 680 \cdot 10 = 6800$$

3. Quyidagi shakllar qatorida qaysi shakl yetishmaydi?



?



4. $x - 7 = 7\,616$ $x - 7\,616 = 7$ $x + 7 = 7\,616$

$$x \cdot 7 = 7\,616$$

$$x : 7 = 7\,616$$

$$x : 7\,616 = 7$$

5. Quyidagi "sehrli" kvadratlarni to'ldiring:



		170
150		160
130		120

		140
150		
160	110	180

135	120	195
150		
		165

6. $40\,200 : 6$ $521\,600 : 8$ $2\,907 \cdot 3 \cdot 10 + 5\,403$
 $36\,040 : 5$ $102\,018 : 6$ $780 \cdot 5 \cdot 100 - 20\,471$



7. 50 ta bir xil piyola uchun 10 000 so'm to'landi. Yana 15 ta shunday piyola xarid qilish uchun necha so'm kerak bo'ladi?



8. $652\,806 : 9$ $3\,708 \cdot 4 \cdot 100 + 6\,504$
 $146\,844 : 6$ $794 \cdot 5 \cdot 100 - 30\,374$



87. Sonni nol bilan tugaydigan songa ko'paytirish

1. Sonni nol bilan tugaydigan sonlarga ko'paytirish ustun usulida quyidagicha amalga oshiriladi:

$$\begin{array}{r} \times 326 \\ 20 \\ \hline 6520 \end{array} \quad \begin{array}{r} \times 47 \\ 300 \\ \hline 14100 \end{array}$$

Ko'paytirishni quyidagicha tushuntiramiz:

$$326 \cdot 20 = 326 \cdot (2 \cdot 10) = (326 \cdot 2) \cdot 10 = 652 \cdot 10 = 6\,520$$

$$47 \cdot 300 = 47 \cdot (3 \cdot 100) = (47 \cdot 3) \cdot 100 = 141 \cdot 100 = 14\,100$$

2. $20 \cdot 32$ $30 \cdot 44$ $200 \cdot 24$
 $42 \cdot 20$ $40 \cdot 15$ $500 \cdot 12$
3. Bir bog'lamda 52 ta kitob bor. a) 40 ta; b) 200 ta bog'lamda nechtadan kitob bor?
4. Ko'paytirishni bajaring va tushuntiring:
- | | | | |
|---|--|--|--|
| $\begin{array}{r} 7200 \\ \times 4 \\ \hline \end{array}$ | $\begin{array}{r} 26500 \\ \times 2 \\ \hline \end{array}$ | $\begin{array}{r} 27600 \\ \times 2 \\ \hline \end{array}$ | $\begin{array}{r} 37500 \\ \times 4 \\ \hline \end{array}$ |
|---|--|--|--|
5. Qaysi sonni 8 ga ko'paytirsak, 8 016 hosil bo'ladi?
6. Bitta choynak va to'rtta piyola necha so'm bo'ladi?



7. $1\,500 \cdot 2$ $33 \cdot 300$ $8 \cdot 4\,000$
 $1\,050 : 5$ $1\,200 : 6$ $1\,008 : 2$
8. Dehqon 720 sr hosil yig'ib oldi. Hosilning 240 sr i suli, 180 sr i arpa, qolgani esa bug'doy. Bug'doy hosili arpa hosilidan qancha ortiq?





88. Nol bilan tugaydigan sonlarni ko'paytirish

1. Nol bilan tugaydigan sonlarni ko'paytirish ustun usulida quyidagicha amalga oshiriladi:

$$\begin{array}{r} \times 80 \\ \hline 3200 \end{array} \qquad \begin{array}{r} \times 60 \\ \hline 54000 \end{array}$$

Ko'paytirishning qanday bajarilganligini quyidagicha tushuntiramiz:

$$80 \cdot 40 = 80 \cdot (4 \cdot 10) = (80 \cdot 4) \cdot 10 = 320 \cdot 10 = 3200;$$

$$60 \cdot 900 = 60 \cdot (9 \cdot 100) = (60 \cdot 9) \cdot 100 = 540 \cdot 100 = 54000.$$

2. $90 \cdot 80$ $30 \cdot 300$ $420 \cdot 900$ $50 \cdot 3000$
 $40 \cdot 50$ $10 \cdot 700$ $340 \cdot 200$ $40 \cdot 4000$
3. $x + 9488 = 11318$
 $x - 7145 = 13414$
 $x \cdot 2 - 743 = 9447$
4. Rasmga ko'ra guruch va bug'doyning umumiy massasini toping.
-
5. $300 \cdot 50$ $150 \cdot 400$ $60 \cdot 800$ $25000 \cdot 30$
 $600 \cdot 40$ $140 \cdot 500$ $700 \cdot 60$ $1200 \cdot 400$
6. Agar $a = 21140$, $b = 7$, $c = 2908$ bo'lsa, $a : b + c$ ifodaning qiymatini toping.
7. Omborda 930 sr sabzavot va 360 sr meva bor edi. Sabzavot va mevalarning bir qismi olib ketilgandan so'ng, sabzavotlar oldingidan 3 marta, mevalar 4 marta kam qoldi. Ombordan qancha sabzavot va qancha meva olib ketilgan?
8. 2 o'nlik va 3 o'nlikning ko'paytmasini toping. Ko'paytma necha o'nlikni hosil qiladi?



89.

Mustahkamlash uchun mashqlar

1. Tengliklarning to'g'riligini tushuntiring:

$$5 \cdot 7 \cdot 2 = (5 \cdot 2) \cdot 7$$

$$25 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 9 = (25 \cdot 4) \cdot (3 \cdot 9)$$

$$3 \cdot 6 \cdot 4 = 3 \cdot (6 \cdot 4)$$

$$2 \cdot 3 \cdot 5 \cdot 4 = (2 \cdot 3) \cdot (5 \cdot 4)$$

2. a) Ifodaning qiymatini turli usullar bilan hisoblang:

$$5 \cdot 7 \cdot 2 \cdot 11$$

$$20 \cdot 8 \cdot 9 \cdot 5$$

$$25 \cdot 7 \cdot 4 \cdot 11$$

b) Ular ichidan eng qulay usulni aniqlang.

d) Tanlangan usulni quyidagi usul bilan taqqoslang:

$$5 \cdot 7 \cdot 2 \cdot 11 = (5 \cdot 2) \cdot (7 \cdot 11) = 10 \cdot 77 = 770$$

$$20 \cdot 8 \cdot 9 \cdot 5 = (20 \cdot 5) \cdot (8 \cdot 9) = 100 \cdot 72 = 7200$$

$$25 \cdot 7 \cdot 4 \cdot 11 = (25 \cdot 4) \cdot (7 \cdot 11) = 100 \cdot 77 = 7700$$

3. Tomonlarining uzunliklari 13 sm, 14 sm va 15 sm bo'lgan uchburchakning perimetrini toping.



- 4.
- | | | | | | | | | | | | | | |
|-----|-----|---|------|---|------|---|-----|---|-----|---|-----|---|-----|
| 600 | : 5 | — | : 2 | — | : 2 | — | : 5 | — | : 6 | — | : 9 | — | : 9 |
| 400 | : 8 | — | : 60 | — | : 12 | — | : 2 | — | : 5 | — | : 9 | — | : 9 |

5. Agar a) $a = 308$, $b = 219$, $c = 70$;

$$\text{b)} a = 467, b = 158, c = 50$$

bo'lса, $(a + b) \cdot c$ ifodaning qiymatini toping.

6. Poyezd shu yo'lни 6 soatda bosib o'tishi uchun tezligini necha km/soatga oshirishi kerak?



9 soat

432 km



$$7 \cdot 4 \cdot 10$$

$$50 \cdot 8 \cdot 2$$

$$25 \cdot 8 \cdot 4$$

$$6 \cdot 2 \cdot 35$$

$$8 \cdot 4 \cdot 45 \cdot 5$$

$$5 \cdot 35 \cdot 16 \cdot 2$$



8. Qanday songa 2 va 5 ikki martadan ko'paytirilsa, 10 000 hosil bo'ladi?



90. Sonlarni 10 ga, 100 ga va 1 000 ga bo'lish



Kitob do'koniga 56 000 so'mlik 100 ta bir xil kitob keltirildi. Har bir kitobning narxi necha so'm turadi?

$$56\,000 : 100 = 560 \text{ yuz} : 1 \text{ yuz} = 560 : 1 = 560 \text{ (so'm)}$$

Javob: 560 so'm

Minglar			
Yuzlar			
O'nlar			
Birlar			

Bo'lish

6	0	0	0	Bu 6 000 sonini bildiradi.
6	0	0	0	Bu $6\,000 : 10 = 600$ sonini bildiradi.
6	0	0	0	Bu $6\,000 : 100 = 60$ sonini bildiradi.
6	0	0	0	Bu $6\,000 : 1\,000 = 6$ sonini bildiradi.

Nol bilan tugagan sonni 10, 100 va 1 000 ga bo'lganda, uning o'ng tomonidagi bitta, ikkita, uchta nolni o'chirish kifoya.



1. $640 : 10$ $600 \cdot 8 : 100$ $500 \cdot 50 : 1\,000$
 $920 : 10$ $500 \cdot 8 : 200$ $250 \cdot 40 : 1\,000$
2. Maktabda 1 350 ta o'quvchi bor. Agar har bir sinfda 30 tadan o'quvchi bolsa, maktabda nechta sinf bor?
3. Toshlarning massalarini hisoblab toping?



4. Musobaqada g'olib bo'lgan volleybol jamoasiga 23 000 so'm pul mukofoti berildi. Bu pul 10 o'quvchidan iborat jamoa a'zolariga teng taqsimlandi. Jamoaning har bir a'zosi qanchadan pul olgan?

5. $420 \cdot 6 : 10 \star 420 \cdot 60 : 100$

 $580 \cdot 50 \star 58 \cdot 5 \cdot 100$

$840 \cdot 4 : 10 \star 8400 \cdot 4 : 100$



$250 \cdot 10 - 250 \cdot 6 \star 250 \cdot 4$

6. $x : 30 = 8 \quad 4800 : x = 100$

$x \cdot 7 = 490 \quad x \cdot 100 = 8100$

7. $25 \cdot 38 = 950$ natijadan foydalanib, amallarni bajaring:
 $38 \cdot 25 \quad 25 \cdot 380 \quad 950 : 38$

8. Shakllarning bo'yalgan qismlari perimetrini toping:



9. $540 : 9 + 8100 : 9 + 3600 : 100$

 $3200 : 100 + 300 : 10 + 27000 : 1000$

Nasiriddin Tusiy tarix, falsafa, mantiq kabi fanlarga oid 50 ga yaqin asarlar yozgan.

U qadimgi yunon matematiklari va astronomlarining asarlarini arab tiliga tarjima qilgan va ularni qoshimchalar, izohlar bilan to'ldirgan.





91.

Sonni ko'paytmaga bo'lish

1. Uchta sinfning har birida 30 tadan o'quvchi bor. 450 ta kitob o'quvchilarga teng taqsimlandi. Har bir o'quvchi nechtadan kitob olgan?

Masalani ikki usulda yechish mumkin:

1-usul. O'quvchilarning umumiylarini topamiz: $3 \cdot 30 = 90$.



Har bir o'quvchi olgan kitoblar sonini topamiz $450 : 90 = 5$.

2-usul. Har bir sinf o'quvchilari olgan kitoblar sonini topamiz:
 $450 : 3 = 150$.

Har bir o'quvchi olgan kitoblar sonini topamiz $150 : 30 = 5$.

Bundan ko'rinish turibdiki, $450 : (3 \cdot 30) = 450 : 3 : 30 = 5$.

2. $60 : (2 \cdot 3)$ $80 : (4 \cdot 2)$ $90 : (2 \cdot 5)$
 $72 : (2 \cdot 4)$ $63 : (3 \cdot 3)$ $96 : (3 \cdot 2)$
3. Firma ikkita do'konga bir xil miqdorda jami 120 kg pirojnih jo'natdi. Pirojniylar 3 kg li qutilarga solingan bo'lsa, firma har bir do'konga necha qutidan pirojnih yuborgan?
4. Shakllarni daftaringizga har xil usulda joylashtirib chizing.



5. Uchta chilangarning har biri bir soatda 4 ta detal yasashsa, ular 72 ta shunday detalni necha soatda tayyorlashadi?

6. $800 : 2 : 4$ $34\ 900 : 4 : 25$ $122\ 000 : 2 : 500$

7. $1\ 000 : (10 \cdot 10)$ $18\ 900 : (4 \cdot 25)$
 $1\ 200 : (2 \cdot 50)$ $28\ 200 : (50 \cdot 2)$

8. Qanday besh xonali sonlardan 2 ni ayirsak, ayirmada to'rt xonali son hosil bo'ladi?



92.

Nol bilan tugaydigan songa bo'lish

- Bo'lishni namunada ko'rsatilgandek tushuntirib bajaring:
 $16\ 800 : 70 = 25\ 800 : 300 = 66\ 000 : 500$
 Namuna: $2400 : 80 = 2400 : (10 \cdot 8) = 2400 : 10 : 8 = 240 : 8 = 30$
- Rasmga ko'ra masala tuzing va uni yeching.



+



250 so'm

4 000 so'm

- Bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:
 $3\ 200 : 50 = 39\ 200 : 400 = 275\ 400 : 900$
 $7\ 560 : 70 = 51\ 200 : 800 = 427\ 700 : 700$
- a) Qutining massasi 8 kg 508 gramm. Shunday 10 ta qutining massasi necha gramm bo'ladi?
 b) Bir xaltadagi shakarning massasi 2 kg 250 g. 10 ta shunday xaltadagi shakarning massasini toping.
- a) Grammlarda ifodalang:
 2 kg, 3 kg 800 g, 9 kg 200 g, 7 kg 250 g.
 b) Kilogramm va grammlarda ifodalang:
 1 360 g, 8 000 g, 1 600 g, 3 890 g, 10 000 g.
- Ikki ishchi birgalikda 180 000 so'm ish haqi oldi. Ulardan biri 6 hafta, ikkinchisi 4 hafta ishlagan. Ular ish haqini qanday taqsimlaydilar?



7. $2\ 700 : 30 \star 27\ 000 : 300 = 495 \cdot 3 \star 49 \cdot 30$
 $1\ 720 : 10 \star 17\ 200 : 100 = 908 \cdot 6 \star 9 \cdot 106$



8. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi stolning perimetri 2 m 80 sm, eni 60 sm. Stolning bo'yini toping.



93. Nol bilan tugaydigan songa bo'lish

1. Bo'lishni namunada ko'rsatilgandek tushuntirib bajaring:

$$49\,000 \quad | \quad 700$$

Namuna:

$$\begin{array}{r} 8\,400\,\emptyset \\ - 8 \\ \hline 4 \\ - 4 \\ \hline 0 \end{array} \quad 8400\emptyset : 2\emptyset = 8400 : 2 = 4200$$

$$184\,200 \quad | \quad 60$$


Namuna:

2.	$2\,500 : 50$	$28\,800 : 100$	$162\,600 : 300$
	$2\,000 : 40$	$34\,300 : 700$	$156\,000 : 800$

3. a) 10 000 soni 1 000 dan necha marta katta?
b) 2 400 soni 40 dan necha marta katta?

4. 120 ni 3 va 5 ga ko'paytirsak necha bo'ladi?

5. $168\,037 - 3\,240 : 40 + 97\,319$
 $300 \cdot 20 + 375 \cdot 400 - 38\,671$
 $5\,000 - 4\,000 : 50 + 140 : 20$
 $(270 : 90 \cdot 4 + 880) \cdot 100 + 3\,020$



6. Dehqon polizdan 3 200 kg pomidor terib oldi. 1 280 kg pomidorni 20 kg lik, qolganini 30 kg lik yashiklarga joyladi. Dehqonga pomidorlarni joylashtirish uchun nechta yashik kerak bo'lgan?

7. Vertolyot 100 km masofaga 20 litr yoqilg'i sarflaydi. U o'monga borib kelishi uchun qancha yoqilg'i kerak?



325 km



8. $x \cdot 30 = 6\,420$
 $x \cdot 50 = 8\,400$

$x \cdot 60 = 10\,800$
 $x \cdot 80 = 16\,800$



94.

Nol bilan tugaydigan songa bo'lish

1. Qulay usul bilan hisoblang:

$$35\ 210 : 70$$

$$168\ 000 : 400$$

$$456\ 000 : 400$$

$$40\ 150 : 50$$


$$258\ 000 : 300$$

$$260\ 100 : 900$$

2. Fabrikada 80 ta bir xil ayollar ko'ylagi tikish uchun 240 m gazlama sarflandi. Bitta ko'ylik uchun qancha gazlama sarflangan?
3. Birinchi issiqxonada 9 480 dona, ikkinchi issiqxonada birinchidagidan 3 marta kam atirgul yetishtirildi. Birinchi issiqxonada ikkinchi issiqxonadagidan necha dona ko'p atirgul yetishtirilgan?
4. $20 \cdot x + 190 = 250$ $(x + 523) \cdot 300 = 290\ 700$
 $150 + x \cdot 30 = 6\ 300$ $23\ 400 : (685 - x) = 60$
5. Bitta stul bitta kreslordan necha marta arzon? Ikkita kreslo va beshta stul necha so'm bo'ladi?



120 000 so'm



150 000 so'm

6. Uchta qutida 3 900 ta qalam bor. Birinchi qutida uchinchisidagidan 100 ta ortiq, ikkinchi qutida birinchisidagidan 100 ta ortiq qalam bor. Har bir qutida nechta qalam bor?



7. Fabrikada 12 000 m gazlama 400 m dan qilib to'plarga o'raldi. Necha to'p gazlama hosil bo'ldi?



8. $12\ m\ 86\ sm + 45\ sm$ $45\ t\ 75\ kg - 8\ t\ 530\ kg$
 $5\ soat\ 48\ min + 35\ min$ $26\ kg\ 35\ g - 4\ kg\ 470\ g$



95.

Mustahkamlash uchun mashqlar

1. $240 \cdot 60 \cdot 100 \star 24 \cdot 10 \cdot 600$

$840 \cdot 60 : 50 \star 840 : 60 \cdot 50$

2. 100 kg undan 430 ta non yopiladi. 1 t undan nechta non yopiladi?



3. $x : 90 = 9\,000 \quad 1\,010 : x = 10 \quad x \cdot 50 = 45\,000$

4.



- a) Birinchi mototsikl ikkinchisidan qancha arzon?
 b) Uchinchi mototsikl birinchisidan qancha qimmat?
 d) Ikkinci mototsikl uchinchisidan qancha arzon?
5. Sonli ifodalar tuzing va ularning qiymatini toping:
 a) 216 080 va 40 sonlari bo'linmasidan 346 va 5 sonlari ko'paytmasini ayiring;
 b) 813 600 va 60 sonlari bo'linmasiga 240 560 va 80 sonlari bo'linmasini qo'shing.
6. Jadvalni to'ldiring:

Ko'paytuvchi	10	20			60	
Ko'paytuvchi	30		30	40		600
Ko'paytma		60	120	2 400	4 800	9 600

7.

Samolyot Toshkentdan Urganchga 110 minutda uchib bordi. Poyezd esa 20 soatda bordi. Samolyot manzilga yetib borish uchun poyezdg'a qaraganda qancha vaqt kam sarflagan?

8.

$(7\,010 - 917) \cdot 20$

$100\,000 - 9\,750 : 50$

$(10\,014 - 9\,065) \cdot 30$


$200\,000 - 1\,980 \cdot 40$



96.

Yuz birliklari

Tomoni 1 sm bo'lgan kvadratning yuzi **1 kvadrat santimetr** (qisqacha **1 kv. sm**) ga teng.




Tomoni 1 dm bo'lgan kvadratning yuzi **1 kvadrat detsimetr** (qisqacha **1 kv. dm**) ga teng.

Tomoni 1 m bo'lgan kvadratning yuzi **1 kvadrat metr** (qisqacha **1 kv. m**) ga teng.

1 kv. sm, 1 kv. dm va 1 kv. m — yuz o'lchov birliklari hisoblanadi.

Shakllarning yuzini hisoblash deganda, shakl nechta yuz o'lchov birligi bo'lgan kvadratlardan tashkil topganligini aniqlash tushuniladi.


Masalan, 1-shakl tomoni 1 sm bo'lgan 6 ta kvadratdan, 2-shakl esa 8 ta shunday kvadratdan tashkil topgan.



Bu birinchi shaklning yuzi **6 kv. sm**, ikkinchisiniki esa **8 kv. sm** ga teng ekanligini bildiradi.


1. To'g'ri to'rtburchakning eni 4 sm, bo'yisi 5 sm. U tomoni 1 sm bo'lgan kvadratlarga bo'lindi. Nechta kvadrat hosil bo'ldi? Bu to'g'ri to'rtburchakning yuzi necha kvadrat santimetrga teng?

2. Rasmdagi shakllarni daftaringizga chizing. Bu shakllarning perimetrini va yuzini hisoblang.



$$\begin{array}{lll} 3. \quad 107 \cdot 8 & 6\ 020 \cdot 5 & 125\ 602 - 5\ 003 \cdot 8 \\ 2\ 408 \cdot 6 & 7\ 009 \cdot 4 & 23\ 040 + 2\ 075 \cdot 9 \\ \\ 4. \quad x \cdot 3 = 642 & 5 \cdot x = 840 & 2\ 049 - x = 1\ 324 \\ x : 3 = 164 & 840 : x = 6 & x + 879 = 6\ 125 \end{array}$$

5. Sayohatchi uch kunda qancha masofani bosib o'tgan?



6. Daftaringizga eni 2 sm, bo'yи 3 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak va tomoni 3 sm bo'lgan kvadrat chizing. Ularni tomoni 1 sm bo'lgan kvadratlarga bo'ling. Ularning har birida nechtadan kvadrat hosil bo'ldi? Qaysi shaklning yuzi katta?



7. To'g'ri to'rtburchakning eni 3 sm, bo'yи 6 sm. U tomoni 1 sm bo'lgan kvadratlarga bo'ldi. Nechta kvadrat hosil bo'ldi? Bu to'g'ri to'rtburchakning yuzi necha kvadrat sanitmetr?



$$\begin{array}{ll} 8. \quad 20 \cdot x + 854 = 914 & 9 \cdot (7\ 512 - x) = 34\ 722 \\ x \cdot 30 - 586 = 1\ 214 & (5\ 848 - 2\ 140) : x = 9 \end{array}$$



97.

To'g'ri to'rtburchakning yuzi

Eni 2 sm, bo'yisi 12 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning yuzini hisoblaymiz:

- 1) uni tomoni 1 sm bo'lgan kvadratlarga bo'lamiz;



- 2) har birida 12 ta kvadrat bo'lgan 2 qator hosil bo'ldi;

- 3) bu kvadratlar soni, ya'ni to'g'ri to'rtburchakning yuzi:

$$2 \cdot 12 = 24 \text{ (kv. sm)} \text{ bo'ladi.}$$

To'g'ri to'rtburchakning yuzi eni bilan bo'yining ko'paytmasiga teng.



1. Tomoni 1 dm bo'lgan kvadrat tomoni 1 sm bo'lgan kvadratchalarga bo'lindi. Nechta kvadratcha hosil bo'ldi? 1 kv. dm necha kv. sm ga teng?

$$1 \text{ kv. sm} = 100 \text{ kv. mm}$$

$$1 \text{ kv. dm} = 100 \text{ kv. sm}$$

$$1 \text{ kv. m} = 100 \text{ kv. dm}$$

$$1 \text{ kv. km} = 1\,000\,000 \text{ kv. m}$$

2. Tomoni 7 m bo'lgan kvadratning yuzini toping.
3. $810\,236 - (6\,039 + 985)$ $(62\,030 - 44\,026) + 725\,636$
4. Bo'yisi 80 m va eni 20 m bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydonning yuzini toping.
5. $800 \text{ kv. sm} = \square \text{ kv. dm}$ $4\,000 \text{ kv. sm} = \square \text{ kv. dm}$
 $700 \text{ kv. dm} = \square \text{ kv. m}$ $30\,000 \text{ kv. sm} = \square \text{ kv. m}$

6. To'g'ri to'rtburchakning bo'yisi 45 dm, eni 9 dm ga teng. Uning yuzi va perimetrini toping.

7. $(9\,000 - 456 \cdot 7) : 3$ $9\,070 \cdot 6 : 5$
 $(8\,500 + 512 \cdot 3) : 4$ $2\,896 : 8 \cdot 6$



98.

Yer maydonlari yuzini o'lchash



Katta yer maydonlari yuzini o'lchashda kvadrat kilometr — yuz o'chov birligi ishlataladi. Bu — tomoni 1 km bo'lgan kvadrat.

O'zbekistonning yer maydoni yuzi: **447 400 kv. km.**

Turmishda ar va gektar kabi yuz birliklari ham ishlataladi. **Ar** — tomoni 10 m bo'lgan kvadrat: **1 ar = 100 kv. m.**

Gektar (ga) — tomoni 100 m bo'lgan kvadrat:

1 ga = 10 000 kv. m.

Kichik yuzlarni o'lchashda kvadrat millimetrr (qisqacha **1 kv. mm**) — tomoni 1 mm bo'lgan kvadrat ishlataladi.


- 1 kv. dm = 100 kv. sm ekanligidan foydalanib, quyidagi larni kvadrat santimetrlarda ifodalang: 8 kv. dm, 12 kv. dm.
2. Bir kvadratning yuzi 64 kv. dm, ikkinchisiniki esa undan 2 marta ortiq. Ikkinchi kvadratning yuzini toping.
3. Hovli to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uning eni 20 m, bo'yisi esa 30 m. Hovlining yuzi necha ar?
4. Rasmdagi shakllarning yuzini kv.mm larda ifodalang:



- $x + 725 = 3560$ $x \cdot 10 = 950$ $x \cdot 8 = 1600$
 $x - 725 = 3560$ $x : 10 = 950$ $x : 8 = 1600$

6. $8000 : (25 \cdot 4) \cdot 7$
 $90000 : (300 : 3) \cdot 6$

7. Har bir ar maydondan 40 kg bug'doy hosili olindi. Daladan qancha bug'doy hosili olindi?






99.

Shaklning yuzi. Paletka




Shakllarning yuzini aniqlash uchun paletkadan ham foydalaniladi. U kvadrat santi-metrlarga bo'lingan shaffof qog'ozdan iborat.

Paletka yordamida yuza quyidagicha aniqlanadi. Yassi shakl ustiga paletka rasmda ko'rsatilgandek qo'yiladi. Bu shaklga joylashgan kvadratchalar sanaladi. To'liq kvadratchalar soni 18 ta. To'liq bo'limgan kvadratchalar soni 8 ta. Ular qo'shilsa, 4 ta to'liq kvadratchani hosil qiladi. Demak, shaklning yuzi: $18 + 4 = 22$ (kv. sm) ga teng.



1. Berilgan shakllarning yuzini paletka yordamida toping.

2. $32\ 914 : 7 + 2\ 798$
 $50\ 320 : 8 - 4\ 239$



3. Daftaringizga uchburchak chizing. Bu uchburchak ichidagi to'liq va to'liq bo'limgan daftar kataklarini sanang.
4. Dalaning har 3 kv. m maydonida 120 tup g'o'za bor. Agar dala maydonining yuzi 7 200 kv. m bo'lsa, dalada necha tup g'o'za bor?

5. $26\ kg\ 500\ g \star 7\ 500\ g$ $1\ t\ 539\ kg \star 1\ 530\ kg$
 $5\ 321\ sm \star 53\ m\ 21\ sm$ $7\ 910\ sr \star 79\ t\ 1\ sr$

6. Shaffof qog'ozdan paletka yasang. Uchburchak chizing va uning yuzini paletka yordamida hisoblang.

7. $1\ 000\ 000 - 1\ 590 \cdot 400$ $425 \cdot 700 - 270 \cdot 30$
 $678\ 097 + 370 \cdot 500$ $105\ 000 - 480 \cdot 70$

V bobga doir qo'shimcha misol va masalalar


1. 121-betdagi rasmda berilgan topshiriqlarni bajaring:
 - a) Bo'lish va ko'paytirishni bajaring va "begona" natijani aniqlang.
 - b) Yashiringan raqamlarni toping.
 - c) Rebusni yeching. Bunda bir xil harflarga bir xil raqamlar, har xil harflarga har xil raqamlar mos keladi.
2. $400\ 000 - 673\ 800 : 100$ $706 \cdot 100 - 3\ 150 : 90$
 $657 - 583\ 000 : 1000$ $60\ 200 : 700 + 9 \cdot 325$
3. Ikkinci uyumda necha so'm bor?



60 marta ko'p

4. Qavslarni shunday qo'yingki, natijada tenglik to'g'ri bo'lisin:
 $4\ 050 - 4\ 500 : 880 - 780 = 4\ 005$
 $5\ 200 - 3\ 600 : 40 + 260 = 300$
 $7\ 200 : 800 : 20 - 30 = 720$
5. $1\ \text{kv. m} = 100\ \text{kv. dm}$ va $1\ \text{kv. m} = 10\ 000\ \text{kv. sm}$ ekanligidan foydalanib, kvadrat metrlarda ifodalang:
 $500\ \text{kv. dm}$, $6\ 400\ \text{kv. dm}$, $20\ 000\ \text{kv. sm}$, $50\ 000\ \text{kv. sm}$.
6. $1\ 290 \cdot 80 = x \cdot 400$ $2\ 800 \cdot 300 = x \cdot 400$
7. Ikkita xona polini bo'yash kerak. Birinchi xonaning bo'yи 6 m, eni 4 m. Ikkinci xonaning bo'yи 5 m, eni 4 m. 1 kv. m yuzga 100 g bo'yoq ishlatalidi. Bu ikki xonaning polini bo'yash uchun qancha bo'yoq kerak bo'ladi?

8. Yelkanlarda yozilgan sonlarning yig'indisi qaysidir bayroqda yozilgan songa teng. Shu bayroqlarni mos yelkan ustuniga o'rnatiting.



$$\begin{array}{r} 9 \cdot 1084 \\ 6 \cdot 5736 \end{array} \quad \begin{array}{r} 7 \cdot 60010 \\ 5 \cdot 90600 \end{array} \quad \begin{array}{r} 8 \cdot 54070 \\ 6 \cdot 39080 \end{array}$$



10. Qulay usul bilan hisoblang.

$$\begin{array}{r} 2746 + 7254 + 8978 \\ 3568 + 8768 + 1232 \end{array} \quad \begin{array}{r} 1250 \cdot 100 - 250 \cdot 100 \\ 3200 \cdot 10 - 1200 \cdot 10 \end{array}$$

11. $7 \text{ t } 30 \text{ kg} \star 7 \text{ t } 3 \text{ sr}$ $8 \text{ sr } 2 \text{ kg} \star 8 \text{ sr } 20 \text{ kg}$
 $9 \text{ t } 600 \text{ kg} \star 9 \text{ t } 6 \text{ sr}$ $2 \text{ kg } 70 \text{ g} \star 270 \text{ g}$

12. Beshta yashikka 113 kg uzum joylandi. Birinchi yashikka 22 kg, ikkinchisiga 19 kg, qolgan uchta yashikka baravar-dan uzum joylandi. Agar 1 kg uzumning narxi 700 so'm bo'lsa, beshinchi yashikdagi uzum necha so'mga sotiladi?

13. Rasmdagi bo'yalgan shakllarning yuzini toping:



14. a) Kvadrat millimetrlarda ifodalang:

2 kv. sm; 18 kv. sm; 6 kv. sm; 42 kv. sm;

b) Kvadrat metrlarda ifodalang:

800 kv. dm; 3 800 kv. dm; 500 kv. dm; 10 000 kv. sm.

$$15. x \cdot 30 = 45\,000$$

$$x : 200 = 4\,000$$

$$300 \cdot x = 4\,500$$

$$4\,000 : x = 200$$

16. Motorli qayiq ko'lda 96 km masofani 24 km/soat tezlik bilan suzib o'tdi. Qaytishda shu masofaga 1 soat kam vaqt sarfladi. Uning qaytishdagi tezligi qanday bo'lган?

$$17. 114\,000 - 190 \cdot 90$$

$$25\,200 : 70 + 106\,986$$

$$285\,165 - 140 \cdot 80$$

$$3\,750 : 30 + 21\,804$$

18. AB tomoni 3 sm, BC tomoni 6 sm bo'lган $ABCD$ to'g'ri to'rtburchak chizing. Uning perimetri va yuzini hisoblang. Paletka yordamida ABC uchburchak yuzini aniqlang.

$$19. 33 \star 44 \star 55 = 22$$

$$999 \star 888 \star 777 = 888$$

$42 \star 33 \star 44 = 31$


$$331 \star 441 \star 551 = 221$$

20. Issiqxonaning har bir 1 kv. m maydonida 30 kg dan bodring yetishtirildi. Eni 7 m, bo'yi 10 m bo'lган to'g'ri to'rtburchak shaklidagi issiqxonada qancha bodring yetishtirilgan?

$$21. 9\,003 - (2\,178 + 1\,359) : 3$$


$$3\,245 + (3\,503 - 1\,299) : 4$$

IKKI VA UCH XONALI SONGA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH



**100.****Sonni yig'indiga ko'paytirish**

Rasmdagi ma'lumotlardan foydalanib, $ABCD$ to'g'ri to'rtburchak yuzini ikki usul bilan hisoblash mumkin:

**1-usul.**

AD tomon uzunligini topamiz: $8 + 6 = 14$ (sm).

$ABCD$ to'g'ri to'rtburchak yuzini topamiz: $5 \cdot 14 = 70$ (kv.sm).

2-usul.

$ABEF$ to'g'ri to'rtburchak yuzini topamiz: $5 \cdot 8 = 40$ (kv.sm).

$ECDF$ to'g'ri to'rtburchak yuzini topamiz: $5 \cdot 6 = 30$ (kv.sm).

$ABCD$ to'g'ri to'rtburchak yuzini topamiz:

$$40 + 30 = 70 \text{ (kv. sm)}.$$

Xulosa: $5 \cdot (8 + 6) = 5 \cdot 8 + 5 \cdot 6$

Son va yig'indining ko'paytmasini bu sonni har bir qo'shiluvchiga alohida-alohida ko'paytirib, chiqqan natijalarni qo'shish orqali hisoblash mumkin.



- Hisoblashning turli usullarini tushuntiring:

$$9 \cdot (125 + 18) = 9 \cdot 143 = 1287$$



$$9 \cdot (125 + 18) = 9 \cdot 125 + 9 \cdot 18 = 1125 + 162 = 1287$$

- Qulay usul bilan hisoblang:

$$8 \cdot (8 + 10) \quad 17 \cdot 4 + 17 \cdot 6 \quad 16 \cdot (4 + 20)$$

- $\boxed{630} : 70 \quad \boxed{} : 50 \quad \boxed{} : 3 \quad \boxed{} : 2 \quad \boxed{} \cdot 40 \quad \boxed{}$


4. Rasmdagi shakllarning perimetri va yuzini toping.



5. Piyoda va velosipedchi bir vaqtida bir qishloqdan bir xil yo'nalishda yo'lga chiqdi. Piyodaning tezligi 4 km/soat, velosipedchining tezligi undan 3 marta ortiq. 2 soatdan keyin velosipedchi piyodadan necha kilometr masofada bo'ladi?

$$6. \begin{array}{l} 9 \cdot x + 8 = 80 \\ 36 : x = 54 : 6 \end{array} \quad \begin{array}{l} x \cdot 4 + 3217 = 25709 \\ 900000 - 7 \cdot x = 857643 \end{array}$$

7. a) Chizmadagi umumiy tomoni AB bo'lgan ko'pburchaklarni yozing.
b) Chamalab o'tkir, o'tmas va to'g'ri burchaklarni toping va yozing.



8. Bir qutida 10 ta qalam bor. Bolalar bog'chasiga oldin 24 quti, keyin yana 16 quti qalam keltirildi. Bog'chaga oldin necha dona qalam keltirilgan? Bog'chaga jami necha dona qalam keltirilgan? Turli usullar bilan hisoblang va natijalarni taqqoslang.

$$9. \begin{array}{ll} 845 \cdot (6 + 7) & 1701 \cdot (5 + 8) \\ 912 \cdot (4 + 8) & 2678 \cdot (7 + 9) \end{array}$$



101. Sonni ikki xonali songa ko'paytirish



19 · 12 ko'paytirishni tushuntiring:

$$19 \cdot 12 = 19 \cdot (10 + 2) = 19 \cdot 10 + 19 \cdot 2 = \\ = 190 + 38 = 228$$

Bunday ko'paytirishni ustun shaklida quyidagicha yozish mumkin:

$$\begin{array}{r} \times 19 \\ 12 \\ \hline + 38 \\ \hline 190 \\ \hline 228 \end{array} \quad \begin{matrix} \leftarrow 19 \cdot 2 \\ \leftarrow 19 \cdot 10 \\ \leftarrow 19 \cdot (10 + 2) \end{matrix}$$



1. Hisoblashlarning bajarilishini tushuntiring:

a) $123 \cdot 15 = 123 \cdot (10 + 5) = \\ = 123 \cdot 10 + 123 \cdot 5 = \\ = 1230 + 615 = 1845;$

$$\begin{array}{r} \times 123 \\ 15 \\ \hline + 615 \\ \hline 1230 \\ \hline 1845 \end{array} \quad \begin{matrix} \leftarrow 123 \cdot 5 \\ \leftarrow 123 \cdot 10 \\ \leftarrow 123 \cdot (10 + 5) \end{matrix}$$

b) $138 \cdot 37 = 138 \cdot (30 + 7) = \\ = 138 \cdot 30 + 138 \cdot 7 = \\ = 4140 + 966 = 5106.$

$$\begin{array}{r} \times 138 \\ 37 \\ \hline + 966 \\ \hline 4140 \\ \hline 5106 \end{array} \quad \begin{matrix} \leftarrow 138 \cdot 7 \\ \leftarrow 138 \cdot 30 \\ \leftarrow 138 \cdot (30 + 7) \end{matrix}$$

2. Ko'paytirishni ustun usulida bajaring:



$21 \cdot 11$	$32 \cdot 12$	$33 \cdot 13$	$34 \cdot 14$
$35 \cdot 15$	$36 \cdot 16$	$36 \cdot 17$	$36 \cdot 18$
$37 \cdot 15$	$37 \cdot 16$	$37 \cdot 18$	$38 \cdot 19$
$41 \cdot 12$	$42 \cdot 14$	$43 \cdot 16$	$44 \cdot 18$

3. Birinchi xo'jalikda 50 quti, ikkinchisida esa 40 quti asalari bor. Har bir qutidan 32 kg asal olinsa, hamma qutilardan necha kilogramm asal olinadi?

4. a) 13 ta shim;
b) 26 ta ko'ylak;
d) 17 ta mayka necha so'm bo'ladi?



5. $670 \cdot 200 - 52\ 800 : 40$ $(612\ 237 - 240\ 037) : 40$
 $657\ 450 : 90 + 83 \cdot 600$ $70 \cdot (100\ 100 - 99\ 800)$

6. Bo'sh katakka A, B, D, E kvadratlardan qaysi birini qo'yish kerak?



A




B



D



E



7. $86 \cdot 29 + \square = 3\ 030$ $\square + 703 \cdot 28 = 21\ 090$
 $\square - 32 \cdot 23 = 1\ 140$ $384 \cdot 65 - \square = 18\ 025$

8. Jadvalni to'ldiring:

b	240	550	412	2 230	6 120	7 210
c	15	23	31	46	25	52
b · c						

9. Bir mashinada 240 qop, ikkinchi mashinada birinchidagidan ikki marta kam un keltirildi. Har bir qopda 45 kg un bor. Ikkinchi mashinada necha kilogramm un keltirilgan?



102. Sonni ikki xonali songa ko'paytirish

1. Ko'paytirishni tushuntiring:

$$\begin{array}{r} \times 473 \\ 62 \\ \hline 946 \\ + 28380 \\ \hline 29326 \end{array} \quad \begin{array}{r} \times 603 \\ 74 \\ \hline 2412 \\ + 4221 \\ \hline 44622 \end{array} \quad \begin{array}{r} \times 5630 \\ 44 \\ \hline 2252 \\ + 2252 \\ \hline 247720 \end{array} \quad \begin{array}{r} \times 320 \\ 170 \\ \hline 224 \\ + 32 \\ \hline 54400 \end{array}$$

2. Ko'paytirishni bajaring va tushuntiring:

$$34 \cdot 18$$

$$52 \cdot 26$$

$$790 \cdot 86$$

$$96 \cdot 55$$

$$76 \cdot 39$$

$$408 \cdot 56$$

140 ta

3. 13 ta shunday yashikda nechta apelsin bo'ladi?



4. $x : 79 = 557$ $x : 834 = 57$ $x : 89 = 673$
5. a) Umumiy daftarda 80 ta varaq bor. 14 ta umumiy daf-tarda nechta varaq bo'ladi?
 b) Maktabda 19 ta sinf bor. Agar har bir sinfda 39 tadan o'quvchi bo'lsa, maktabda nechta o'quvchi bor?
6. $9 \text{ km } 40 \text{ m} = \square \text{ m}$ $9 \text{ t } 7 \text{ kg} = \square \text{ kg}$
 $2 \text{ soat } 40 \text{ min} = \square \text{ min}$ $865 \text{ sm} = \square \text{ m } \square \text{ sm}$
 $8 \text{ so'm } 40 \text{ tiyin} = \square \text{ tiyin}$ $1\,300 \text{ tiyin} = \square \text{ so'm}$
7. Omborda har birida 26 banka go'shtli konserva bo'lgan 96 yashik va har birida 16 banka sabzavotli konserva bo'lgan 48 ta yashik bor. Omborda jami necha banka konserva bor?



8. Kataklarga 2 900, 47, 10, 100 sonlarini shunday joylash-tiringki, natijada tenglik to'g'ri bo'lsin: $\square \cdot \square - \square : \square = 441$.



9. $707 \cdot 13$ $603 \cdot 58 + (2\,000 - 1\,975) : 5$
 $810 \cdot 14$ $695 \cdot 15 + (8\,070 - 7\,948) : 2$



103. Sonni ikki xonali songa ko'paytirish

1. Ko'paytirishni tushuntiring:

$$\begin{array}{r} \times 2500 \\ 89 \\ \hline 225 \\ + 200 \\ \hline 222500 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 3009 \\ 42 \\ \hline 6018 \\ + 12036 \\ \hline 126378 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 3060 \\ 85 \\ \hline 1530 \\ + 2448 \\ \hline 260100 \end{array}$$

2. Bolalar bog'chasiga 15 quti shokolad keltirildi. Har bir qutida 48 tadan shokolad bor. Bog'chaga necha dona shokolad keltirilgan?

3. $4600 \cdot 12$
 $3700 \cdot 15$

$2007 \cdot 45$
 $8004 \cdot 35$

$1050 \cdot 29$
 $8040 \cdot 55$

4. Ahmad amaki keltirilgan 120 qop bug'doyni omborga tashish uchun necha qadam yuradi?



22 qadam




5. $(345 \cdot 45 - 126 \cdot 26) \cdot 3 + 11225$
 $16 \cdot (12697 - 9989 + 508) + 8240$
 $28 \cdot (82698 : 3 - 2855 : 5) + 212$
6. $2 \cdot (x + 2917) = 12348$
 $3 \cdot (x - 2917) = 12348$

*	***	3
**		
10	*	1
**	0	*
1	1	0
1	1	0

7. Tomonlari 7 sm va 5 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Uning perimetrini va yuzini toping.

8. $(1556 - 1512) \cdot 28$
 $(2032 - 1792) \cdot 36$

$456 \cdot 28 + 512 \cdot 28$
 $632 \cdot 36 + 792 \cdot 43$





104. Sonni ikki xonali songa ko'paytirish

1. Ko'paytirishni bajaring va tushuntiring:

$$76 \cdot 43$$

$$531 \cdot 17$$

$$5090 \cdot 56$$

2. a) Televizor magnitofondan necha so'm qimmat?

b) 5 ta televizor va 7 ta magnitofon necha so'm bo'ladi?

c) 200 000 so'mga 2 ta televizor va 1 ta magnitofon sotib olish mumkinmi?



94 000 so'm



18 000 so'm

3. Jadvalni to'ldiring:

a	142	315	2 112	4 326	5 218	7 845
$32 \cdot a$						

4. a) Novvoy bir kunda 875 ta non yopadi. U 28 kunda nechta non yopadi?

b) Poyezdning 16 ta vagoni bor. Har bir vagonda 54 ta o'rin bor. Poyezdda hammasi bo'lib nechta o'rin bor?

5. $(x \cdot 9) : 24 = 3$ $96 : x + 82 = 88$ $84 : 7 - x = 6$

6. Bekatdan bir vaqtida qarama-qarshi yo'nalishda ikkita mashina yo'lga chiqdi. Birinchi mashina 50 km/soat, ikkinchisi esa 70 km/soat tezlik bilan yurdi. 4 soatdan keyin ular orasidagi masofa necha kilometr bo'ladi?

7. $874 \cdot 68$ $485 \cdot 96$ $6 345 \cdot 16$

$$452 \cdot 16$$

$$906 \cdot 67$$

$$4 127 \cdot 68$$


8. To'g'ri to'rtburchakning bo'yи 150 mm bo'lib, u enidan 3 marta uzun. To'g'ri to'rtburchakning perimetrini santimetrlarda ifodalang.








105. Sonni ikki xonali songa ko'paytirish

1. Yer maydoni rasmda ko'rsatilgandek ikkita kvadratdan iborat. Birinchi kvadratning tomoni 40 m, ikkinchi kvadratning tomoni esa 20 m. Maydonning yuzini va perimetrini toping.



2. $3\ 762 \cdot 76$ $4\ 782 \cdot 62$ $48\ 320 : 80 \cdot 36 + 68$
 $4\ 538 \cdot 56$ $2\ 695 \cdot 72$ $27\ 270 : 90 \cdot 48 - 85$
3. Noma'lum qo'shiluvchilarni toping. Bunda uchburchak tomonlaridagi sonlar yig'indisi markazdagi songa teng bo'lsin.



4. Eni 12 sm, bo'yи 14 sm bo'lgan to'g'ri to'rburchakning perimetri va yuzini toping.

5. $x : 570 + 297 = 354$ $3\ 072 + x \cdot 8 = 3\ 304$
 $680 : x + 340 = 344$ $x : 9 + 4\ 098 = 9\ 003$

6. $8\ t\ 3\ sr \star 8\ 050\ kg$ $17\ t\ 40\ kg \star 17\ 400\ kg$
 $4\ m\ 3\ dm \star 403\ dm$ $35\ km\ 900\ m \star 35\ 090\ m$



7. Korxonada 1 069 ta 18 varaqli va 2 405 ta 12 varaqli daftar tayyorlandi. Hamma daftarlarga necha varaq qog'oz sarflangan?

8. $592 \cdot 82 - 779 \cdot 39$ $35\ 001 : 9 + 6\ 901 \cdot 11$
 $403 \cdot 98 - 381 \cdot 73$ $39\ 844 : 7 + 5\ 217 \cdot 12$



106. Sonni uch xonali songa ko'paytirish

1. $586 \cdot 349$ ko'paytmani hisoblash usullarini tushuntiring:

1-usul.

$$586 \cdot 349 = 586 \cdot (300 + 40 + 9) = 586 \cdot 300 + 586 \cdot 40 + \\ + 586 \cdot 9 = 175\,800 + 23\,440 + 5\,274 = 204\,514$$

2-usul.

Handwritten multiplication of 586 by 349. The multiplication is set up as follows:

$$\begin{array}{r} \times 586 \\ 349 \\ \hline 349 \\ 2344 \\ 1758 \\ \hline 204514 \end{array}$$

The steps are numbered from 1 to 4, corresponding to the annotations:


1. Birliklarini ko'paytiramiz: $586 \cdot 9 = 5\,274$
2. O'nliklarini ko'paytiramiz: $586 \cdot 4 = 2\,344$ (o'nl.)
3. Yuzliklarini ko'paytiramiz: $586 \cdot 3 = 1\,758$ (yuzl.)
4. Natijalarni qo'shamiz.

2. $643 \cdot 126$ $591 \cdot 328$ $954 \cdot 148$ $768 \cdot 125$

3. Vertolyot 180 km/soat tezlik bilan 5 soat uchdi. Qaytishda bu masofani 6 soatda uchib o'tdi. Vertolyot qaytishda qanday tezlik bilan uchgan?

4. $540 : x = 60$ $x : 300 = 9$ $x \cdot 20 = 1400$

5. Rasmga qarab masala tuzing va uni yeching:



6. $4\,018 - 3\,326 = \square : 173$ $62\,400 : 300 \cdot 208 = \square$
 $63\,013 - 62\,889 = \square : 62$ $1\,679 + 2\,301 = \square : 199$



7. $315 \cdot 416$ $294 \cdot 503$ $234 \cdot 427$
 $617 \cdot 218$ $769 \cdot 219$ $644 \cdot 568$






8. Birinchi avtomobil 6 soat, ikkinchisi esa 2 soat yurdi. Agar birinchi avtomobil ikkinchisiga qaraganda 368 km ortiq yo'l bosgan bo'lsa, birinchi avtomobilning tezligini toping.



107. Sonni uch xonali songa ko'paytirish

- Kopaytirishni bajaring va tushuntiring:
 $821 \cdot 237$ $462 \cdot 273$ $526 \cdot 328$
- Baliqchilar 240 t baliq tutdi. Tutilgan sazan balig'i hamma baliqdan 6 marta kam, tanga baliq esa 2 marta kam. Tutilgan baliqlarning qolgani laqqa balig'i. Necha tonna laqqa balig'i tutilgan?
- Har bir ko'yakka 145 sm gazlama sarflansa, 285 ta ko'yak tikish uchun qancha gazlama kerak bo'ladi?
- Rasmida berilgan shakllarning yuzlarini taqqoslang:



- Shaxmat musobaqasida Aziz, Azamat va A'zam dastlabki uchta o'rinni egallashdi. Agar Aziz uchinchi o'rinni, Azamat esa ikkinchi va uchinchi o'rirlarni olmagan bo'lsa, ulardan har biri nechanchi o'rinni egallagan?

$4 \text{ m } 2 \text{ sm} \star 4 \text{ m } 1 \text{ dm}$ $a - 28 \star a - 82$
 $5 \text{ dm } 3 \text{ mm} \star 50 \text{ sm } 8 \text{ mm}$ $c - 0 \star c + 0$

$x : 101 - 142 = 793$ $x : 123 + 1449 = 1878$

- Qaysi besh xonali sonlarga 3 ni qo'shsak, olti xonali son hosil bo'ladi?

$644 \cdot 63$ $572 \cdot 610$ $453 \cdot 182$
 $904 \cdot 86$ $335 \cdot 470$ $913 \cdot 241$



108. Sonni uch xonali songa ko'paytirish

1. Bu misollarda nima sababdan ko'paytirish bunday tarzda bajarilayotganini tushuntiring.



$$\begin{array}{r} \times 271 \\ 650 \\ \hline 1355 \\ + 1626 \\ \hline 176150 \end{array} \quad \begin{array}{r} \times 271 \\ 605 \\ \hline 1355 \\ + 1626 \\ \hline 163955 \end{array}$$

2. $450 \cdot 700$ $841 \cdot 630$ $946 \cdot 843$ $586 \cdot 659$
 $579 \cdot 740$ $202 \cdot 280$ $253 \cdot 335$ $438 \cdot 653$

3. Futbol darvozasining balandligi 2 m 40 sm, u xokkey darvozasining balandligidan ikki marta ortiq. Xokkey darvoza sining balandligini toping.

4. $x : 780 = 101$ $x : 807 = 101$ $x : 990 = 991$

5. $2142 : 6$ $\square + 32$ $\square - 24$ $\square : 100$ $\square + 25$ \square

6. Traktor 1 kunda 84 litr yoqilg'i sarflaydi, birinchi traktor ikkinchi traktordan qancha yoqilg'i kam sarflagan?



7. $8 \text{ kg } 435 \text{ g} : 7$ $9 \text{ soat } 32 \text{ min} : 8$
 $72 \text{ m } 16 \text{ sm} : 9$ $52 \text{ min } 18 \text{ s} : 6$

8. $240 \cdot 480$ $608 \cdot 112$ $348 \cdot 629$
 $220 \cdot 401$ $985 \cdot 247$ $387 \cdot 654$





9. "Tiko" avtomobili 100 km masofaga 5 litr benzin sarflaydi. "Tiko" avtomobili bir litr benzin sarflab necha kilometr yo'l yuradi? 32 litr benzin qancha masofaga yetadi?



109. Sonni uch xonali songa ko'paytirish

- Kombayn har kuni 805 sr bug'doy hosilini yig'ib oldi. U birinchi dalada 15 kun, ikkinchisida 14 kun ishladi. Kombayn necha sentner bug'doy hosilini yig'ib olgan?
- $362 \cdot 534$ $921 \cdot 124$ $813 \cdot 103$ $546 \cdot 205$
 $781 \cdot 421$ $352 \cdot 438$ $372 \cdot 421$ $472 \cdot 345$
- Massasi 19 kg 300 g bo'lgan buzoqcha bahorda yaylovida 145 kun boqildi. Buzoqcha kuniga 650 g dan semirib bordi. Yaylovdan qaytganda uning massasi qancha bo'lgan?
- Paxta maydoni bug'doy maydonidan necha ar ortiq?



- $38 \text{ m } 70 \text{ sm} \cdot 22$ $6 \text{ kg } 750 \text{ g} \cdot 24$
 $2 \text{ t } 250 \text{ kg} \cdot 31$ $8 \text{ t } 904 \text{ kg} \cdot 43$
- Ifoda tuzing va uning qiymatini toping:
167 va 280 sonlarining ko'paytmasini 4 marta kamayting, natijaga 2 067 ni qo'shing.

- 3 600 g choy 50 g li qutichalarga, 9 800 g choy esa 100 g li qutichalarga qadoqlandi. Jami necha quti choy qadoqlangan?
- $(1\ 867 - 298) \cdot 304 - 92\ 888$
 $(7\ 262 - 7\ 139) \cdot 471 + 10\ 011$

**110.****Mustahkamlash uchun mashqlar**

$$\begin{array}{lll} 1. \quad 257 \cdot 348 & 856 \cdot 219 & 897 \cdot 305 \\ 834 \cdot 268 & 385 \cdot 406 & 908 \cdot 433 \end{array}$$

2. Do'konga har birida 18 ta bolalar paypog'i bo'lgan 32 bog'lam va har birida 30 ta kattalar paypog'i bo'lgan 36 bog'lam paypoq keltirildi. Do'konga nechta paypoq keltirilgan?

$$\begin{array}{ll} 3. \quad 458 \cdot 342 - 1\,001 & 10\,125 + 15\,312 : 8 \\ 6324 : 6 + 1\,346 & 4\,834 - 7\,882 : 7 \end{array}$$


4. Teploxdod 6 soatda 300 km masofani suzib o'tdi. Poyezd esa 8 soatda 736 km masofani bosib o'tdi. Poyezdnинг tezligi teploxdodning tezligidan qancha ortiq?

5. Eni 3 sm, bo'yи enidan ikki marta uzun bo'lgan to'g'ri to'rburchak chizing. Uning perimetrini va yuzini toping.




6. Quyidagi ifodalar nimani anglatadi?

$$\begin{array}{ll} a + a + a & a \cdot 3 \\ b : 3 & b : a \end{array}$$

**7.**

- Daftaringizga rasmdagi shakllarni chizing. Unda kvadrat bo'laklarga bo'linib, uning bo'laklaridan uchburchak hosil qilingan. Ikkala chizmadagi bir xil bo'laklarni bir xil rangga bo'yang.



$$\begin{array}{ll} 8. \quad 986 \cdot 134 & 406 \cdot 502 - 381 \\ 809 \cdot 350 & 120 - 3\,920 : 70 \end{array}$$





111.

Sonni ikki xonali songa bo'lish

1. Har bir qutida 18 tadan shokolad bor.

12 ta qutida jami $18 \cdot 12 = 216$ ta shokolad bo'ladi. Demak, 216 ta shokoladni 12 ta qutiga teng qilib taqsimlansa, har bir qutida 18 tadan shokolad bo'lar ekan. Buni bo'lish amali yordamida quyidagicha yozamiz: $216 : 12 = 18$



2. Chamalab bo'lish usuli.

348 ni 87 ga bo'lish kerak bo'lsin. Buning uchun oldin bo'linuvchi va bo'luvchining o'nliklari sonini, ya'ni 34 (o'nlik) ni 8 (o'nlik) ga bo'lib ko'ramiz. 34 ni 8 ga qoldiqli bo'lib, to'liqsiz bo'linmada 4 ni hosil qilamiz. Uni bo'linma deyish uchun oldin tekshirib ko'rish kerak: 4 ni 87 ga ko'paytiramiz va natijada 348 hosil qilamiz.

Demak, $348 : 87 = 4$.

$$3. \quad 26 : 13 \quad 328 : 41 \quad 582 : 97 \quad 456 : 57$$

$$84 : 21 \quad 455 : 91 \quad 333 : 37 \quad 837 : 93$$

4. Bir shahardan qarama-qarshi yo'nalishda ikki mashina yo'lga chiqdi. Ulardan birining tezligi 60 km/soat, ikkinchisini esa 80 km/soat. 6 soatdan keyin ular bir-biridan qanday masofada bo'ladi?

$$5. \quad 98 : x = 49 \quad x : 27 = 35 \quad 6\,225 : x = 83$$

$$64 : x = 16 \quad x : 53 = 27 \quad 1\,204 : x = 43$$

6. Eshikning eni 9 dm, bo'yisi undan 1 m 3 dm ortiq. Shu eshikning yuzini toping.



$$7. \quad 39 : 13 \quad 735 : 15 \quad 576 : 16$$



**112.****Sonni ikki xonali songa bo'lish**

1. Namunada bo'lish qanday bajarilganligini tushuntiring.
Bo'lishni namunadagidek bajaring:
 $480 : 24$ $4\ 950 : 45$
 $3\ 926 : 13$ $7\ 530 : 15$

Namuna:

$$\begin{array}{r} 3612 \\ \underline{-36} \\ 012 \\ \underline{-12} \\ 0 \end{array}$$

Tekshirish:

$$\begin{array}{r} & 301 \\ \times & 12 \\ \hline & 602 \\ + & 301 \\ \hline & 3612 \end{array}$$

2. Sayohatchi 1 551 km yo'lni poyezdda, undan 11 marta kam yo'lni kemada bosib o'tdi. U jami qancha masofani bosib o'tgan?
3. Rasmga ko'ra masala tuzing:



1 t 200 kg



200 kg



40 kg

4. 300 kg uzum 15 ta yashikka joylandi. Har bir yashikka necha kilogramm uzum joylandi?

5. $3\ 082 : 67$ $1\ 445 : 85$ $2\ 175 : 29$
 $1\ 134 : 63$ $1\ 254 : 38$ $1\ 892 : 86$

6. $3\ 672 : \square + 166 = 200$ $\square - 744 : 24 = 969$
 $47\ 564 : 506 + \square = 2\ 901$ $94\ 024 : \square - 73 = 0$

7.

Bo'lishni bajaring va natijani tekshiring:

$8\ 897 : 217$ $12\ 488 : 56$ $14\ 832 : 36$
 $3\ 564 : 132$ $10\ 038 : 42$ $30\ 240 : 96$

8.

960 va 80 sonlarining bo'linmasiga 800 va 60 sonlarining ko'paytmasini qo'shing.



**113.****Sonni ikki xonali songa bo'lish**

1. Bo'lishni bajaring va tushuntiring:




$$7\ 636 \quad | \quad 83$$

$$5\ 766 \quad | \quad 62$$

$$6\ 532 \quad | \quad 71$$

$$4\ 896 \quad | \quad 96$$

2. Do'konda tushgacha 28 qop, tushdan so'ng esa 34 qop un sotildi. Hammasi bo'lib 3100 kg un sotilgan bo'lsa, tushgacha necha kilogramm un sotilgan? Tushdan keyin-chi?
3. $3\ 600 : 40$ $1\ 155 : 21$ $2\ 074 : 34$ $2\ 964 : 76$
 $4\ 500 : 90$ $1\ 344 : 42$ $3\ 392 : 64$ $6\ 987 : 17$
4. Samolyot 2400 km masofani 3 soatda uchib o'tdi. Birinchi soatda butun masofadan 3 marta, ikkinchi soatda esa 2 marta kam masofani o'tdi. U uchinchi soatda necha kilometr masofani uchib o'tgan?
5. Shakllarni daftaringizga har xil usulda joylashtirib chizing.



6. Kattaroq o'lchov birligida ifodalang:

$$\begin{array}{l} 500 \text{ sm} \\ 17\ 000 \text{ m} \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 600 \text{ min} \\ 140 \text{ dm} \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 240 \text{ sr} \\ 72 \text{ soat} \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 900 \text{ kg} \\ 180 \text{ min} \end{array}$$

7. Otobek 2 soatda 10 kv. m yer maydonini, uning do'sti Oybek 4 soatda 24 kv. m yer maydonini chopiq qildi. Ular birgalikda ishlab, 33 kv. m maydonni qancha vaqtda chopiq qiladi?

8.


$$\begin{array}{l} 3\ 515 : 95 + 52\ 009 \\ 3\ 105 : 45 + 29\ 670 \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 6\ 566 : 98 - 3\ 120 : 48 \\ 1\ 792 : 56 - 2\ 494 : 86 \end{array}$$



**114.****Sonni ikki xonali songa bo'lish**

- Bo'lishni bajaring va tushuntiring:
 $49\ 840 : 89$ $60\ 800 : 95$ $49\ 848 : 62$
- Ikkita bir xil yuk mashinasi sement tashidi. Birinchi mashina 15 marta, ikkinchi mashina esa 12 marta qatnadi. Bunda birinchi mashina, ikkinchisiga qaraganda 24 t ortiq sement tashidi. Har bir mashina necha tonna sement tashigan?
- 4 soatdan keyin ular orasidagi masofa qancha bo'ladi?



- $x \cdot 94 = 24\ 910$ $92\ 317 - x \cdot 36 = 60\ 061$
 $x \cdot 83 = 25\ 896$ $67\ 849 - x \cdot 45 = 48\ 679$
- O'tgan yili 15 ta issiqxonadan 450 t bodring olingan. Bu yil yana 5 ta issiqxona qurildi. Agar har bir issiqxonadan o'tgan yilda gidek hosil olinsa, bu yil necha tonna bodring olinadi?
- To'g'ri to'rtburchak shaklidagi yer maydonining bo'yи 54 m, eni 48 m ga teng. Shu maydonning yarmiga kartoshka ekildi. Kartoshka ekilgan maydonning yuzini toping.



- Yakshanba kuni 27 nafar o'quvchi paxta terish uchun hasharga chiqdilar. Ular bir kunda jami 486 kg paxta terishdi. Har bir o'quvchi qanchadan paxta tergan?



- $26\ 964 : 28$ $(82\ 901 + 455) : 91$
 $22\ 311 : 37$ $(86\ 320 + 13\ 720) : 20$




**115.****Sonni ikki xonali songa bo'lish**

1. $216 : 36$ $296 : 37$ $1\ 012 : 22$ $98\ 280 : 42$
2. 1) 130 sonini 7 marta orttiring.
 2) 1 312 va 3 sonlarining ko'paytmasi nechaga teng?
 3) 600 va 15 sonlarining bo'linmasi nechaga teng?
3. $4\ 824 : 24$ $48\ 024 : 24$ $800\ 016 : 16$
 $7\ 272 : 72$ $84\ 042 : 21$ $990\ 660 : 33$
4. Sayohatchilar kemasiga 56 soatda 672 km suzdi. Kema bir soatda necha kilometr suzgan?
5. Bitta kartoshkali somsaning narxi 75 so'm, go'shtli somsaning narxi esa 90 so'm. Quyidagi pullarga kartoshkali somsadan nechta sotib olish mumkin? Go'shtli somsadan-chi?



6. "Zanjir" o'yini.



7. Haftalik gazetaning birida 644 ta, ikkinchisida 572 ta e'londan bor. Birinchi gazetaning har bir betida 14 ta, ikkinchisida esa 13 ta e'londan bor. Har bir gazetada e'londan berilgan nechta bet bor? Qaysi gazetaning betlari soni ko'p?

8. $5\ t\ 152\ kg : 32$ $2\ km\ 325\ m : 75$
 $11\ m\ 52\ sm : 36$ $36\ so'm\ 90\ tiyin : 18$



116.

Sonni ikki xonali songa bo'lish

1. a) Fil to'tiqushdan necha marta kam umr ko'radi?
 b) Toshbaqa fildan necha marta ortiq umr ko'radi?
 d) Qisqichbaqa to'tiqushdan necha marta kam umr ko'radi?



50 yil



300 yil



30 yil



150 yil

2. $2\ 700 : 75$ $5\ 022 : 81$ $3\ 312 : 36$
 $3\ 596 : 58$ $1\ 944 : 54$ $1\ 372 : 14$
3. Har bir sonni 306 marta orttiring: 59, 280, 157, 206, 252
4. Sinf kutubxonasida 210 ta kitob bor. Sinfdagisi 26 o'quvchi o'qish uchun ikkitadan kitob oldi. Kutubxonada nechta kitob qoldi?
5. $851 \cdot 37$ $124\ 440 : 60$ $378 \cdot 65 : 90$
 $692 \cdot 46$ $228\ 090 : 30$ $495 \cdot 32 : 80$
6. $20 \cdot x = 440$ $x : 60 = 30 \cdot 50$
 $360 : x = 12$ $760 - 80 \cdot x = 40$
-
7. $3\ 450 : 50$ $96\ 780 : 30$ $78\ 400 : 40$
 $2\ 449 : 49$ $21\ 760 : 32$ $13\ 344 : 96$
8. Bolalar musiqiy tanlovgiga 27 ta xor guruhidan 945 ta o'quvchi qatnashdi. Guruhlardagi o'g'il bolalar soni qiz bolalarga qaraganda 5 ta kam. Har bir guruhda nechta qiz bola bor? O'g'il bolalar-chi?





117.

Sonni uch xonali songa bo'lish

1. Bo'lishni tushuntiring:



$$\begin{array}{r}
 \begin{array}{r}
 8 & 2 & 3 & 2 & 0 \\
 - & 5 & 6 & 0 \\
 \hline
 2 & 6 & 3 & 2 \\
 - & 2 & 2 & 4 & 0 \\
 \hline
 3 & 9 & 2 & 0 \\
 - & 3 & 9 & 2 & 0 \\
 \hline
 0
 \end{array}
 \quad \begin{array}{r}
 5 & 6 & 0 \\
 \times 1 & 4 & 7 \\
 \hline
 5 & 6 & 0 \\
 + 8 & 8 & 2 \\
 \hline
 7 & 3 & 5 \\
 \hline
 8 & 2 & 3 & 2 & 0
 \end{array}
 \end{array}$$

2. $252 : 126$ $4\ 488 : 264$ $43\ 092 : 342$
 $399 : 133$ $8\ 651 : 211$ $91\ 485 : 285$
3. a) Avtomobil 1 488 km masofani 124 km/soat tezlik bilan necha soatda bosib o'tadi?
b) Samolyot 1 725 km masofani 345 km/soat tezlik bilan necha soatda uchib o'tadi?
4. $3\ 075 : 123$ \star $19\ 526 : 751$
 $36\ 157 - 29\ 279$ \star $21\ 683 - 19\ 295$
5. 168 ta kursi yasash kerak. Birinchi usta bu ishni 28 kun-da, ikkinchisi esa 21 kunda bajara oladi. Bu ishni ikki usta birgalikda necha kunda bajara oladi?
6. Bitta cho'pning o'rnnini shunday almashtiring-ki, natijada tenglik to'g'ri bo'lsin.

a)  b) 


7. Tomonlari 4 sm va 6 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Uning perimetri va yuzini toping.



8. $4\ 344 : 362$ $(803 \cdot 205 + 1\ 385) : 830$
 $5\ 076 : 423$ $100\ 000 - 105 \cdot 23 + 9\ 711$

**118.****Sonni uch xonali songa bo'lish**

- $652 : 326$ $4\ 824 : 402$ $24\ 794 : 253$
 $732 : 244$ $3\ 952 : 304$ $31\ 684 : 356$
- 1 095 kun necha yil bo'ladi? Bir yilda 365 kun bor deb hisoblang.
- Rasmdagi shakllarning yuzlarini taqqoslang:




- $560 : (7 \cdot 4)$ ★ $560 : 7 : 4$ $32 \cdot (10 \cdot 2)$ ★ $32 \cdot 10$
= $240 : (3 \cdot 5)$ ★ $240 : 3 \cdot 5$ $45 \cdot (5 \cdot 8)$ ★ $45 \cdot 5 \cdot 8$
- Do'konga 212 qop un keltirildi. Agar do'konga 12 720 kg un keltirilgan bolsa, bir qop unning massasini toping.
- $5\ 845 - x \cdot 112 = 4\ 389$ $x : 291 + 5\ 197 = 6\ 490$
 $4\ 515 - x \cdot 228 = 2\ 007$ $x : 347 + 6\ 817 = 9\ 713$
- Bog'da 256 tup tol va bir necha tup terak bor edi. Bir tup terak kesilgandan keyin, teraklar tollarga qaraganda 2 marta kam bo'lib qoldi. Bog'da necha tup terak bo'lgan?
- Somsaxonada har kuni 650 ta somsa pishiriladi. Necha kunda jami 1 950 ta somsa pishiriladi? Bir hafta davomida nechta somsa pishiriladi?
- $3\ 744 : 117$ $235\ 000 : 250$
= $73\ 500 : 175$ $181\ 204 : 356$

**119.****Sonni uch xonali songa bo'lish**

1. $69\ 802 : 34$ $197\ 120 : 640$ $100\ 672 : 968$
 $31\ 464 : 69$ $235\ 480 : 580$ $487\ 044 : 489$

2. Oralardagi masofa $1\ 840$ km bo'lgan ikki shahardan bir vaqtda bir-biriga qarab ikki poyezd yo'lga chiqdi. Necha soatdan keyin poyezdlar uchrashadilar?




3. Dehqon 115 kg kartoshkani 63250 so'mga sotdi. U kartoshkaning har bir kilogrammini necha so'mdan sotgan?
4. Omborga 45 kg li qoplarda $4\ 590$ kg guruch va 50 kg li qoplarda $3\ 850$ kg un keltirildi. Un guruchga qaraganda necha qop kam?
5. $954 : 318$ $2\ 940 : 735$ $2\ 820 : 235$
 $876 : 219$ $2\ 544 : 424$ $7\ 222 : 314$
6. 57 so'm 60 tiyin : 48 6 t 5 sr : 500
 72 t 8 sr : 28 10 km 200 m : 600

7. 1) Chizmaga qarang. Undan o'tkir burchakli, to'g'ri burchakli, o'tmas burchakli uchburchaklarni toping va ularning nomini yozing.

- 2) Chizmada nechta uchburchak bor?
3) Chizmadagi to'rtburchak nomini ayting?

8. $(865\ 420 - 510\ 370) : 450 + 520$
 $(349\ 524 + 83\ 219) - 88\ 800 : 148$






120.

Sonni uch xonali songa bo'lish

- $77\ 724 : 254 = ?$ $327\ 420 : 321 = ?$
- $73\ 359 : 741 = ?$ $171\ 270 : 198 = ?$
- Sahro orqali yuklar tuyada tashilgan. 8 ta tuyaga 3 tonna yuk ortilgan. 60 tonna yukni tashish uchun nechta tuya kerak bo'lgan?
- $x : 72 + 465 = 3\ 279$ $x \cdot 113 - 183 = 3\ 885$
 $x \cdot 213 - 748 = 2\ 660$ $x : 81 + 646 = 4\ 211$
- "Kalavaning uchi" ni topsangiz, mamlakatimiz boyligi bo'lmish mahsulot nomini bilib olasiz.



612	
24	
200	
30	
24	



- Buxorodan ertalabki soat 8 da yo'lga chiqqan poyezd soat 15 da Toshkentga yetib keldi. Agar poyezd 651 km yo'l bosib o'tgan bo'ssa, uning tezligini toping.



- Do'konda bir xil miqdorda tuqli va kalish sotildi. Bir juft tuflining narxi 6 000 so'm, bir juft kalishning narxi esa 1 800 so'm. Barcha tuflilar 84 000 so'mga sotilgan. Kalishlar necha so'mga sotilgan?



- $100\ 520 - 470 \cdot 50 + 13\ 980 = ?$
- $14\ 110 + 801\ 000 : 900 - 7\ 604 = ?$

**121.****Sonni uch xonali songa bo'lish**

1. $10\ 105 : 215 = ?$ $468\ 720 : 744 = ?$ $226\ 180 : 526 = ?$
 $17\ 940 : 345 = ?$ $764\ 684 : 212 = ?$ $926\ 100 : 245 = ?$
2. Tikuv fabrikasiga birinchi kuni 2 650 m gazlama, ikkinchi kuni undan 700 m kam gazlama keltirildi. Ikkinchi kuni keltirilgan gazlamadan 650 ta ayollar ko'ylagi tikildi. Har bir ko'ybakka necha metr gazlama sarflangan?

3. $206\ 082 : 321 = ?$ $60\ 588 : 324 = ?$

4. Kitning uzunligi 19 m 68 sm, bosh qismining uzunligi esa 4 m 92 sm. Kit bosh qismining uzunligi o'zining uzunligidan necha marta kam?



5. Uchta bir xil ko'rinishdagi uzuklardan ikkita-sining massasi bir xil, uchinchisi esa ulardan yengil. Qanday qilib toshsiz pallali tarozida bir marta tortish yordamida yengil uzukni topish mumkin?



6. $x : 8 = 4\ 800 : 20$ $640 : (25 - x) = 40$
 $910 : (56 - x) = 26$ $800 : x = 240 : 3$



7. Yo'lni ta'mirlash uchun 540 t qumni 3 ta yuk mashinasi tashishi kerak edi. Har bir mashina 3 t qum ortib, kuniga 5 martadan qatnadi. Hamma qum necha kunda tashilgan?



8. $6\ 094 \cdot 12 - 367\ 710 : (51 \cdot 70)$
 $5\ 060 - 193\ 030 : 194 + 13 \cdot 79$



122.

Mustahkamlash uchun mashqlar

1. Bo'lish qanday bajarilganligini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 16443 \\ - 1512 \\ \hline 1323 \\ - 1323 \\ \hline 0 \end{array} \qquad \begin{array}{r} 189 \\ 87 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 26445 \\ - 258 \\ \hline 645 \\ - 645 \\ \hline 0 \end{array} \qquad \begin{array}{r} 129 \\ 205 \\ \hline \end{array}$$

2. Ko'paytmani hisoblang va natijani tekshiring:

$$452 \cdot 307 \quad 5700 \cdot 55 \quad 246 \cdot 390 \quad 7800 \cdot 42$$

3. Fermada bir yilda har bir sigirdan 3 240 litr sut sog'ib olin-di. Agar bir yilda fermadagi sigirlardan jami 317 520 litr sut sog'ib olingan bo'lsa, fermadagi sog'iladigan sigirlar nechta?

4. Jadvalning bo'sh kataklarini to'ldiriring:

$+ \longrightarrow$		
$\downarrow -$		
67 843	76 395	
25 939	7 821	

\longrightarrow		
\downarrow		
6 864	124	
572	62	

5. $1865 - 4500 : 30$ $7200 : 36 + 64000 : 800$
 $60997 + 12240 : 30$ $824328 : 963 - 31365 : 153$

6. Bog'dan terilgan shaftoli 110 ta savatga joylandi. 240 kg shaftoli bolalar bog'chasiga jo'natildi. Necha savat shaftoli qoldi?



7. Dilafruz kitobni 6 kun 14 betdan, qolgan kunlari esa 20 betdan o'qidi. Agar kitob 264 bet bo'lsa, Dilafruz kitobni necha kunda o'qigan?



$$357 \cdot 264 : 132 \quad 293 \cdot 17 + 3012 \cdot 28$$

$$113505 : 23 : 329 \quad 4023 \cdot 31 - 185 \cdot 11$$



**123.****Mustahkamlash uchun mashqlar**

1. $651 : 217$ $784 : 112$ $954 : 318$ $735 : 245$
 $915 : 183$ $876 : 219$ $424 : 106$ $912 : 456$

2. **312 marta kamaytiring**


1 872	9 360	37 440	37 752	204 048
-------	-------	--------	--------	---------

3. $24\square5 > 43\ 290 : 18$ $46\ 355 : 365 > \square26$
 $37\square8 > 237\ 312 : 64$ $209\ 804 : 236 < 8\square0$

4. $2\ t - 7\ sr$ $370\ kg + 800\ kg$
 $2\ soat - 9\ min$ $730\ m + 400\ m$
 $4\ min - 50\ s$ $7\ m - 25\ dm$

5. To'rt tup olma daraxtidan 224 kg olma terildi. Birinchi tupdan 40 kg, ikkinchisidan 38 kg, uchinchisidan 50 kg olma terildi. Har bir yashikka 12 kg dan olma joylansa, to'rtinchı tupdan terilgan olmani joylash uchun nechta yashik kerak bo'ladi?

6. Rasmga ko'ra masala tuzing va uni yeching.



7. Iffi konchilar brigadasi 5 518 t ko'mir qazidi. Birinchi brigada qazigan ko'mir 43 ta vagonga, ikkinchi brigadaniki esa 46 ta vagonga ortildi. Har bir brigada qancha ko'mir qazigan?

8. $(783 \cdot 54 + 106 \cdot 18) : 982$
 $231\ 168 : (344 \cdot 84) + 406 \cdot 27$





124.

Mustahkamlash uchun mashqlar

1. Bo'lishni namunadagidek bajaring va natijani tekshiring:


$$\begin{array}{r} 7\ 552 \\ \times 236 \\ \hline \text{Namuna:} & \begin{array}{r} 3762 \\ 3762 \\ \hline 0 \end{array} & \begin{array}{r} 627 \\ 6 \\ \hline \end{array} \\ \text{Tekshirish:} & & \begin{array}{r} 627 \\ \times 6 \\ \hline 3762 \end{array} \end{array}$$

2. $5\ 742 : 638 =$ $4\ 256 : 532 =$ $7\ 595 : 217 =$
 $2\ 002 : 143 =$ $6\ 768 : 846 =$ $5\ 264 : 752 =$


3. Sabzi ekilgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydonning bo'yи 250 m, yuzi 5 500 kv. m, kartoshka ekilgan maydonning bo'yи esa 200 m. Agar har ikkala maydonning eni bir xil bo'lsa, kartoshka ekilgan maydonning yuzini toping.

4. $x \cdot 320 + 1\ 000 = 4\ 200$ $(1\ 545 + x) : 83 = 70$
 $526 \cdot (x - 145) = 12\ 624$ $x : 12 + 109 = 211$

5. Rasmga qarab masala tuzing va uni yeching:



6. Rasmdagi shakllarni chizing. Ularning nomlarini ayting.



7. Ikki do'konga 118 yashik olma keltirildi. Ikkala do'konda 2 200 kg olma sotildi. Shundan so'ng, birinchi do'konda 7 yashik, ikkinchi do'konda 11 yashik olma qoldi. Bitta yashikda necha kilogrammdan olma bor?

8. $114\ 460 : 485 =$ $189\ 774 : 234 =$ $261\ 960 : 740 =$
 $105\ 754 : 253 =$ $213\ 664 : 352 =$ $149\ 450 : 490 =$

**125.****Mustahkamlash uchun mashqlar**

$$1. \begin{array}{l} 11\ 455 : 145 \\ 15\ 375 : 125 \end{array} \quad \begin{array}{l} 11\ 232 : 156 \\ 14\ 378 : 182 \end{array} \quad \begin{array}{l} 18\ 056 : 296 \\ 12\ 210 : 185 \end{array}$$

2. Jadvaldan foydalanib, masalalar tuzing va ularni yeching.

Nomi	Rasmi	Uzunligi	Massasi
Ko'k kit		33 m	150 t
Delfin		3 m 60 sm	morjdan 1400 kg kam
Morj		tyulenden 1 m 10 sm uzun	tyulenden 6 marta ortiq
Tulen		ko'k kitdan 11 marta qisqa	300 kg

3. Tengsizliklarning to'g'riligini tekshiring:

$$\begin{array}{ll} 478 \cdot 24 < 478 \cdot (3 \cdot 9) & 296 \cdot 80 > 296 \cdot 10 + 296 \cdot 8 \\ 356 \cdot 10 \cdot 6 > 356 \cdot 16 & 134 \cdot 19 < 134 \cdot 9 \cdot 10 \end{array}$$

4. $43\ 008 : 168 =$ $105\ 196 : 289 =$

$$\boxed{} \cdot \boxed{425} - \boxed{} = ?$$

$$\boxed{40\ 824} : \boxed{324} + \boxed{} = ?$$

